

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Toshkent moliya instituti

“Sug’urta” fakulteti

“Sug’urta ishi” kafedrası

“СУФУРТА ИШИ”
fanidan

1-mavzu: *Sug’urtaning mohiyati, funktsiyalari va bozor munosabatlaridagi o’rni*

Kafedraning 2015 yil 25 avgustdagi 1-sonli
bayonnoma bilan tasdiqlangan

Kafedra mudiri _____
dots. I.Abdurahmonov

Tayorladi: k.o’q. I.Kenjaev

TOSHKENT-2015

1-mavzu: Sug'urtaning mohiyati, funktsiyalari va bozor munosabatlaridagi o'rni

REJA:

1. Sug'urta haqida tushuncha va unga xos bo'lgan asosiy belgilar.
2. Sug'urta iqtisodiy kategoriya sifatida.
3. Sug'urta fondlari, ularning shakllanishi va foydalanish yo'nalishlari.
4. Sug'urtaning funktsiyalari.

1. Tabiiy va boshqa stixiyali kuchlar ta'siri natijasida yuzaga keladigan zararlarni qoplash, oldini olish hamda ogohlantirish uchun maqsadli yo'nalishdagi pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yig'indisiga sug'urta deyiladi.

Sug'urtaning xarakterli belgilari quyidagilardan iborat:

-Sug'urta riskini mavjudligi. Risk-sug'urta munosabatlari paydo bo'lishining asosiy shartidir. Risk bo'lmas ekan, sug'urtaning bo'lishi mumkin emas. Riskning hajmi, miqdori ehtimollar nazariyasi va matematik statistika usullari yordamida aniqlanadi. Sug'urta risklarini tahlil qilish ularni 2 ta yirik guruhga bo'lishni taqozo etadi. Ya'ni, risk sug'urtaviy va sug'urtasiz bo'ladi. Sug'urta shartnomalarida o'z aksini topgan risklar sug'urtaviy risklar deyiladi. Risk bahosini pulda ifodalaniishi sug'urta stavkasini tashkil etadi. Risk doimiy ko'rsatkich emas, balki u doimo o'zgarib turadi. Bu o'zgarishlar iqtisoddagi va boshqa sohadagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Sug'urta tashkiloti riskni rivojlanishini, holatini doimo kuzatishi lozim, ya'ni tegishli statistik hisob olib borishi, yig'ilgan ma'lumotlarni qayta ishlashi va tahlil qilishi kerak.


Riskni baholash uchun uni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- 1) Sug'urtalanishi mumkin bo'lgan risklar.
- 2) Sug'urtalanishi mumkin bo'lmagan risklar.

Riskning eng katta guruhini sug'urtalanishi mumkin bo'lgan risklar tashkil etadi. Quyida keltirilgan mezonlar asosida sug'urta riskini sug'urtasiz risklardan farq qilish mumkin.

- a) Risk tasodifiy xarakterga ega bo'lmog'i kerak ;
- b) Sug'urta hodisalarini ro'y berish faktining vaqti va makonining noma'lum bo'lishi;
- v) Xavf solish manbasiga ko'ra risklar tabiatning stixik kuchlari bilan bog'liq risklari va moddiy boylikni o'zlashtirish oqibatida insoniyatni tabiatga ta'siri bilan bog'liq risklar. Risklarni turkumlashda katta halokatli risklar alohida o'rin tutadi. Chunki bunday risklar ro'y berishi natijasida ko'plab ob'ektlar yirik miqdorda zarar ko'rishi mumkin. Katta halokatli risklarga zilzila, tsunami, kuchli shamol misol bo'lishi mumkin. Yuqorida aytilgan risklardan tashqari ekologik, siyosiy va maxsus risklar bo'lishi mumkin.

Risk menejment (riskni boshqarish) - riskni chegaralash yoki kamaytirish bilan bog'liq tadbirlar yig'indisi. Amaliyotda riskni boshqarish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:



Riskni aniqlash, masalan ssuda oluvchilarning ssudani o'z vaqtida qaytarib bera olmaslik riski sug'urtalanadi, risk darajasi aniqlanadi. Kredit oluvchi shaxsning moliyaviy holati qanday aktivlarga ega ekanligi, loyihada hisob-kitob qanchalik asoslanganligi va xakozo.

Riskni baholash - riskni holatlari aniqlanadi, riskni sodir bo'lish ehtimoliyligi, aktuar hisob-kitoblar, statistik kuzatuvlar, ehtimollar nazariyasi asosida baholanadi va sug'urtalanayotgan ob'ektga nisbatan risk darajasi aniqlanib sug'urta tarifi hisoblanadi. Sug'urta tarifining stavkasi - bu risk bahosidir.

Riskni nazorat etish - bu sug'urta kompaniyasining vakili tomonidan sug'urtalangan ob'ekt holatini, uning saqlanish ustidan kuzatuv ishlarini olib borishi. Shuningdek, uning saqlash xavfliligi talablariga javob berishi tekshiriladi. Qator ob'ektlarni yaxshi saklash uchun zarur tavsiya va maslaxatlar beriladi.

Riskni moliyalashtirish - bu riskni aniqlash, baholash va nazorat etish bilan bog'liq hamma xarajatlarni qoplash.

-Sug'urta munosabatlarining taqsimlash xarakteriga ega ekanligi. Moliya tushunchasi kabi, sug'urta ham yalpi ichki mahsulotni va milliy daromadni qayta taqsimlashda ishtirok etadi.

-Sug'urtada zararlarni hududlar bo'yicha va muayyan bir vaqtda taqsimlanishi. Bu sug'urtaning asosiy belgisi bo'lib, hududlar bo'yicha sug'urta fondini sug'urtalangan xo'jaliklar o'rtasida taqsimlash uchun katta hudud va ko'plab sug'urtalanishi mumkin bo'lgan ob'ektlar zarur bo'lishi talab etiladi. Zararlarni ma'lum bir vaqtda taqsimlanishi sug'urta hodisalarini tasodifiy ro'y berish xarakteriga ega ekanligidan kelib chiqadi. Qator yillar mobaynida favqulodda hodisalar ehtimol ro'y bermasligi mumkin. Bu holat sug'urta hodisalari sodir bo'lmagan vaqtda tegishli miqdorda sug'urta zahiralarni tashkil etishni talab qiladi.

-Sug'urta fondlariga jalb etilgan sug'urta mukofotlarini qaytarib berish. Sug'urta mukofotlari sug'urta tarifi asosida aniqlanadi. Sug'urta tarifi ikki qismdan iborat bo'lib, netto-stavka (sug'urta hodisalari ro'y berganda zararlarni qoplashga ishlatiladi) va netto-stavkaga ustamalardir (sug'urta kompaniyasi ishini tashkil etish bilan bog'liq xarajatlar qoplanadi). Netto-stavka, asosan, sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urtalanuvchiga qaytarib beriladi.

o'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga muvofiq, majburiy sug'urta turlariga doir sug'urta shartlari qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladi. Ixtiyoriy sug'urtalashga doir sug'urta tariflarining miqdori tomonlarning kelishuviga muvofiq belgilanadi.

-Sug'urta fondi mablag'larining, faqat, shu fondni tashkil etishda qatnashgan sub'ektlar o'rtasida taqsimlanishi.

Sug'urta munosabatlarida quyidagi tomonlar qatnashadilar:

Sug'urtalovchi – sug'urta xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan va tegishli litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslar. Tadbirkorlik faoliyatining muhim bo'g'ini. o'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta to'lovini (sug'urta puli) to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi yuridik shaxs sug'urtalovchi deb hisoblanadi.

Sug'urtalovchilar turli mulk shakliga ega bo'lishi mumkin (davlat sug'urta tashkilotlari, aktsionerlik sug'urta tashkilotlari hamda o'zaro sug'urtalash jamiyatlari). Sug'urta faoliyatini olib boruvchi tashkilotlar davlat organlarining tegishli litsenziyasiga ega bo'lishi zarur.

Sug'urtalanuvchi – sug'urtalovchi bilan aniq sug'urta munosabati o'rnatgan va tegishli sug'urta mukofotlarini to'lovchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

Sug'urta vositachilari – sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasida vositachilik vazifasini bajaruvchi yuridik shaxs. Maqomi bo'yicha vositachi sug'urtalanuvchining manfaatlarini himoya qiladi. Ko'rsatgan xizmatlari uchun vositachi sug'urtalanuvchidan emas, balki sug'urta kompaniyasidan tegishli vositachilik haqini oladi.

2. Bozor munosabatlari takomillashuvi iqtisodiy infratuzilmaning qaror topishi bilan birgalikda kechadigan jarayondir. Sug'urta faoliyati iqtisodiy infratuzilmaning ajralmas qismi sifatida bir tomondan, ijtimoiy kafolatni ta'minlasi, ikkinchi tomondan, shartnomaviy majburiyat va tariflar mexanizmi orqali turli sug'urta risklaridan ogoh etish negizida iqtisodiyot sub'ektlari manfaatlarining himoyasini ham o'z zimmasiga oladi.

Sug'urta faoliyati jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlarini himoya qilish, ularning risklar yuz berishi oqibatida ko'rishi ehtimol bo'lgan zararlarini qoplashning zaruriy vositasi sifatida paydo bo'ldi hamda rivojlandi. Shunday anglangan zarurat - aniq sug'urta manfaatlari negizida sug'urta munosabatlari yuzaga keldi.

Sug'urta munosabatlari, ularning tashkiliy shakllari qandayligidan qat'i nazar, sug'urta fondini yaratish va undan foydalanish jarayonidir. Ta'kidlash lozimki, sug'urta munosabatlari - murakkab va keng qamrovli moliyaviy-pullik iqtisodiy munosabatlar bo'lib, ular yuzaga kelishi uchun o'zaro bog'liq shart-sharoit majmuasi mavjudligi ham muhimdir.

O'zbekistonda tadbirkorlikning rivoj topishi jarayonida turli risklarning yuz berishi ehtimoli mavjudligi, shuningdek, ijtimoiy hayotning o'zida namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan qarama-qarshiliklar sub'ektlarning sug'urta faoliyatiga, xususan, risklar transferiga bo'lgan munosabatlarini ijobiy tomonga o'zgartirdi.

Sug'urta faoliyati bozor munosabatlarining eng muhim unsuriga aylandi. «Sug'urta faoliyati deganda sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyati tushuniladi»¹. «Shu narsa aniqki,

¹Ўзбекистон Республикасининг «Сугурта фаолияти тўғрисида»ги Қонуни, 3-модда.

bugungi kunda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar... sug'urta tizimisiz samarali ishlash, investitsiya faoliyati bilan shug'ullanish, kredit olish imkoniyatiga ega emas»².

Shu o'rinda, ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish)da uzluksizlikni ta'minlash imkoniyatini yaratish maqsadiga yo'naltirilgan, mulkchilik shakllariga ko'ra, maxsus qayta taqsimlash munosabatlari tizimi mavjudligi iqtisodiyot sub'ektlari ravnaqiga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda ularning mulkka egalik qilish, undan foydalanish hamda daromad olishlari kabi manfaatlari yuzaga chiqadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda sug'urta faoliyatida talab darajasidagi risk transferi shakllanishi va rivojlanishi hamda uni ilmiy asosda o'rganish muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, iqtisodiyot sub'ektlarining erkinliklari kengayib borayotgan, ular tomonidan mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish)ning yangi turlari o'zlashtirilishi sug'urta faoliyatida risk transferining ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish va takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojni orttirmoqda.

Sug'urtaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini to'liqroq ochib berish uchun ilmiy adabiyotlarda bu masalaga bo'lgan yondashuvlarni o'rganish maqsadga muvofiqdir. Ularda «sug'urta-xizmat ko'rsatish industriyasi»³ ekanligi qayd etilgan, shunga asoslanib, keyingi yillarda xalqaro iqtisodiy atamashunoslikda «xizmatlar iqtisodiyoti nazariyasi» qaror topayotganligini ta'kidlash mumkin.

Sug'urta faoliyatida o'z mohiyati nuqtai nazaridan, aynan «xizmat» tushunchasi fundamental hisoblanadi. Sug'urtachi tomonidan taklif etilayotgan «xizmat» o'zida dastlab moddiylikni aks ettirmaydi, ya'ni u o'z mijoziga faqat «va'dani sotadi». Shu nuqtai nazardan xalqaro savdoda unga «ko'rinmaydigan faoliyat»¹ deb ham tasnif beriladi. Sug'urtalanuvchiga shartnoma tuzilganligini tasdiqlovchi dalil-hujjat sifatida «polis»² beriladi xolos. Sug'urta shartnomasida sug'urtalanuvchiga sug'urta voqeasiga ko'ra, ko'rishi ehtimol bo'lgan zararining ekvivalent qiymatidagi pul to'lovi (ayrim hollarda mol-mulk ko'rinishida) ta'minlanishi nazarda tutiladi. Shartnomaning bajarilishi unda qayd etilgan ma'lum davr oralig'ida amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda bosqichma - bosqich bozor munosabatlari shakllanishi va rivojlanishi, iqtisodiyot sub'ektlarining yuksak darajadagi iqtisodiy mustaqilligi, erkinligi darajasi ortib borayotgan jarayonda doimo risklar mavjud bo'lishi kuzatiladi. Ular manfaatlariga zarar keltirishi mumkin bo'lgan va doimiy takrorlanib turadigan risklarni qayta taqsimlash, ya'ni o'ziga xos bo'lgan maxsus xizmat bilan sug'urta shug'ullanadi.

«Sug'urta deganda yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta

³Каранг: Иқтисодий эркинлаштириш ва ислохотларни чуқурлаштириш - энг муҳим вазифамиз. Президент И.Каримовнинг 1999 йилда мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2000 йилда иқтисодий эркинлаштириш ва ислохотларни чуқурлаштиришнинг устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси.// «Халқ сўзи» газетаси, 2000 йил, 16 февраль.

³ Каранг: Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 1993. p. 1 b. 3.

¹Каранг: Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 1993. p.1 b. 4.

²Каранг: Ефимов С.Л. Энциклопедический словарь. Экономика и страхование. М.: ЦЕРХ -ПЭЛ, 1996. I-X, с. 347.

³ Ўзбекистон Республикасининг «Сугурта фаолияти тўғрисида»ги Қонуни, 3-модда.

hodisasi) yuz berganda, ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi»³.

3. Tabiiy va boshqa stixiyali hodisalar sodir bo'lishi natijasida keltirilgan zararlarni qoplash uchun sug'urta fondlari tashkil etiladi. Sug'urta fondlari tashkil etish manbasiga va foydalanish yo'nalishiga qarab, uch ko'rinishda bo'ladi:

-o'z-o'zini sug'urtalash fondlari. Bu fond har bir xo'jalik sub'ektida tashkil etiladi va ishlab chiqarishda vaqtincha yuzaga kelgan qiyinchiliklarni oldini olishga xizmat qiladi;

-davlatning markazlashgan sug'urta fondlari. Markazlashgan sug'urta fondlari umumdavlat resurslari hisobidan tashkil etiladi. Bu fondan asosan favqulodda hodisalar ro'y berganda paydo bo'lgan zararlarni qoplashga ishlatiladi;

-sug'urta yo'li bilan tashkil etiladigan sug'urta fondlari. Bu fond sug'urtalanuvchilar tomonidan to'langan mukofotlar hisobidan tashkil etiladi. Sug'urta fondi faqat pulli shaklda va u qat'iy maqsadli yo'nalishda foydalaniladi, ya'ni sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq, sug'urta qoplamasi yoki sug'urta summasini to'lashga ishlatiladi.

4. Sug'urtaning iqtisodiy tabiati uning funktsiyalarida o'z aksini topadi. Moliya, kredit kabi iqtisodiy kategoriyalar bilan bir qatorda sug'urta ham bir qator funktsiyalarni bajaradi. Ta'kidlash lozimki, iqtisodiy adabiyotlarda sug'urtaning funktsiyalari bir necha ko'rinishda talqin etiladi. Masalan, i.f.d., prof. V.M.Rodionova rahbarligida chop etilgan "Finansi" o'quv qo'llanmasida sug'urta ikkita funktsiyani bajarishi ko'rsatib o'tilgan. Bu funktsiyalar quyidagilardan iborat: qayta taqsimlash va nazorat funktsiyasi. I.f.d., prof. H.R.Sobirov sug'urta quyidagi funktsiyalarni bajarishini qayd etadi: "xavf-xatar; ogohlantirish; investitsiya; omonat; axborot".

Ko'rinib turibdiki, prof. H.R.Sobirov sug'urtaning 5 ta funktsiyaga ega ekanligini qayd etadi. Fikrimizcha, bu funktsiyalarning ba'zilar tegishli bahs-munozarani talab etadi. Xususan, sug'urtaning investitsiya funktsiyasi. Investitsiya – sug'urta tashkilotlari uchun funktsiya emas, balki asosiy sug'urta faoliyatiga qo'shimcha ravishda amalga oshiriladigan faoliyatdir. Investitsiyasiz ham sug'urta tashkilotlari faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Ammo, sug'urta tashkilotlari vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini investitsiya qilish orqali qo'shimcha daromad oladi. Funktsiya doimiylik xarakteriga ega va u o'zgarmasdir. Sobiq sovet hokimiyati davrida davlat sug'urta organlarining mablag'lari investitsiya qilinmas edi. Bozor munosabatlariga o'tish munosabati bilan sug'urta tashkilotlarida investitsiya faoliyati bilan shug'ullanishga imkoniyat tug'ildi. Shuning uchun biz investitsiyani sug'urtaning funktsiyasi bo'la olmaydi, deb tasdiqlashimiz mumkin.

Ayni shunday fikrlarni axborot funktsiyasi haqida ham gapirish mumkin. Sug'urtalanuvchilarga sug'urta tashkilotlari haqida ma'lumot berish bu sug'urtaning axborot funktsiyasi mavjudligini anglatmaydi. Sug'urta tashkilotlarining tijorat siriga kiruvchi ma'lumotlari umuman axborot sifatida berilmaydi. Sug'urtaga axborot funktsiyasi xosligi unchalik ham o'z isbotini topmagan.

Bizning fikrimizcha, sug'urta quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

- Sug'urta fondini tashkil etish bilan bog'liq funktsiya.
- Sug'urta fondidan foydalanish bilan bog'liq funktsiya.
- Nazorat funktsiyasi.

Yuqorida qayd etilgan funktsiyalar sug'urta faoliyatida doimiy hisoblanadi va har qanday sharoitda o'zgarmasdir. Sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun, albatta, sug'urta tashkilotida etarli miqdorda pul mablag'lari fondi bo'lishi lozim. Agar, sug'urtalovchi pul fondini, ya'ni sug'urta fondini tashkil etmasa, uning moliyaviy ahvoli murakkablashishi mumkin. Tashkil etilgan sug'urta fondining mablag'lari qat'iy maqsadli xarakterga ega bo'lib, u faqat sug'urta hodisalari ro'y berganda qoplama berish uchun ishlatiladi. Sug'urta fondining mablag'larini boshqa maqsadlarda ishlatish mumkin emas. Sug'urta fondi mablag'lari davlat tomonidan olib qo'yilishi va soliqqa tortilishi mumkin emas.

2-mavzu : Sug'urta sohasida qo'llaniladigan asosiy atama va tushunchalar

REJA:

1. Sug'urta fondini tashkil etish bilan bog'liq atamalar.
2. Sug'urta fondidan foydalanish bilan bog'liq atama va tushunchalar.
3. Xalqaro sug'urta amaliyotida ishlatiladigan atama va tushunchalar.

1. Sug'urtada fondini shakllanishi bilan bog'liq atama va tushunchalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Sug'urta munosabatlarida quyidagi tomonlar qatnashadilar:

Sug'urtalovchi – sug'urta xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan va tegishli litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslar. Tadbirkorlik faoliyatining muhim bo'g'ini. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta to'voni (sug'urta puli) to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi yuridik shaxs sug'urtalovchi deb hisoblanadi.

Sug'urtalovchilar turli mulk shakliga ega bo'lishi mumkin (davlat sug'urta tashkilotlari, aktsionerlik sug'urta tashkilotlari hamda o'zaro sug'urtalash jamiyatlari). Sug'urta faoliyatini olib boruvchi tashkilotlar maxsus davlat organining tegishli litsenziyasiga ega bo'lishi zarur.

Sug'urtalanuvchi – sug'urtalovchi bilan aniq sug'urta munosabati o'rnatgan va tegishli sug'urta mukofotlarini to'lovchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

Sug'urta vositachilari – sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasida vositachilik vazifasini bajaruvchi yuridik shaxs. Maqomi bo'yicha vositachi sug'urtalanuvchining manfaatlarini himoya qiladi. Ko'rsatgan xizmatlari uchun vositachi tegishli vositachilik haqini oladi.

Risk- bitta kutilayotgan hodisa bo'yicha xavfning yuzaga kelishi. Risk tushunchasi ko'rinishlarining xilma-xilligi, uni sodir bo'lishi natijasida yuzaga kelgan oqibatlarining og'irligi, riskni ro'y berishi sababli paydo bo'lgan zararlarni mutloq tugatishni imkoniyati bo'lmaganligi sug'urta ishini tashkil etish uchun asos

yaratdi. Shunday qilib, risk sug'urtaviy huquqiy munosabatlarni shakllantirish uchun shart-sharoit yaratadi. Risk-riskli holatlarning yagonalik va o'zaro aloqadorlik yig'indisidir.

Sug'urta fanida risk tushunchasiga turlicha tariflar berilgan. Jumladan, risk-bu konkret hodisa yoki hodisalar yig'indisi bo'lib, ular sodir bo'lgan taqdirda sug'urta kompaniyasi qoplamalar to'laydi. Risk sug'urta ob'ekti bilan to'g'ridan to'g'ri bog'langan. Ob'ektga risk salbiy ta'sir ko'rsatib, uni shikastlashi yoxud nobud qilishi mumkin. Shu tufayli risk - bu yagona tasodifiy hodisa bo'lib, uning ro'y berishi inson ongiga yoki irodasiga bog'liq emas. Sug'urta risklarining ro'yxati sug'urtalovchining sug'urta javobgarligi hajmini tashkil etadi.

Risk bahosining puldagi ifodasi sug'urta tarif stavkasini tashkil etadi; sug'urta ob'ekti; sug'urta javobgarligining turi.

Tibbiy sug'urta- aholi sog'ligini himoya qilish vositalaridan biri. Sug'urta hodisasi ro'y berishi munosabati bilan, sug'urta polisi orqali bepul tibbiy xizmat ko'rsatilishi. Tibbiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta kompaniyasi to'laydi. Tibbiy sug'urta majburiy yoki ixtiyoriy bo'ladi.

Mulkiy sug'urta - turli ko'rinishdagi mol-mulklarni saqlash bilan bog'liq manfaatlar sug'urta munosabatlarining ob'ekti hisoblangan, sug'urtaning mustaqil tarmog'i. Sug'urtalanuvchining shaxsiy mulki, uning qaramog'ida joylashgan mol-mulklar sug'urtalanishi mumkin. Sug'urtalanuvchi sifatida, nafaqat mol-mulkning sohiblari, balki mol-mulkning saqlanishi uchun mas'uliyatli bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar ham bo'lishi mumkin.

Netto-stavka - brutto-stavkaning asosiy tarkibiy qismi. Netto-stavka sug'urta qoplamasini to'lashga mo'ljallangan pul mablag'lari resurslari bo'lib, u brutto-stavkaning 90 foizigacha miqdorini tashkil etishi mumkin.

Majburiy sug'urta - sug'urta munosabatlarining qonun kuchiga ega bo'lgan shakli. Majburiy sug'urta qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Ushbu hujjatda sug'urtaga tortiladigan ob'ektlar soni, sug'urta javobgarligining hajmi, sug'urta munosabatlarida qatnashadigan tomonlarning huquq va majburiyatlari hamda boshqa rekvizitlar ko'rsatiladi. Amaldagi qonunchilikka asosan, O'zbekistonda majburiy sug'urtani tegishli litsenziyaga ega bo'lgan har qanday sug'urta kompaniyasi o'tkazishi mumkin. Shuningdek, majburiy davlat sug'urta turlari ham mavjud. Masalan, harbiy xizmatchilar, davlat bojxona va soliq xizmati xodimlari hamda bir qatorda shunday toifadagi shaxslar baxtsiz hodisalardan majburiy davlat sug'urtasiga tortiladi. Bu sug'urta turi bo'yicha sug'urta mukofotlari Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Risklarni joylashtirish:

1) sug'urta manfaati tufayli yuzaga keladigan sug'urtaviy huquqiy munosabatlarning boshlanish jarayoni. Risklarni birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi joylashtirish mos ravishda to'g'ridan to'g'ri sug'urtalash, qayta sug'urtalash va retrotsessiyani anglatadi. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotda risklarni joylashtirish sug'urta vositachilari orqali sug'urta bozorida amalga oshiriladi;

2) sug'urta brokeri yordamida bir vaqtning o'zida yirik va xavfli risklarni qismlarga bo'lib bir nechta sug'urta kompaniyasida sug'urtalash uslubi. Bir qancha

sug'urta kompaniyalari tarkibidan bittasi etakchi sifatida ajralib chiqadi va u sug'urta shartnomasidagi shartlarni ma'qullab, riskning tegishli qismini o'z javobgarligiga oladi. Keyin, broker boshqa sug'urta kompaniyalariga murojaat qilib, riskning qolgan qismini ham joylashtiradi.

Sug'urta - har xil noxush hodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash hamda fuqarolarning hayotida tegishli sug'urta hodisalari ro'y berganda ularga moddiy yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etiladigan va undan foydalanish bilan bog'liq (maqsadli pul fondlari) iqtisodiy munosabatlar yig'indisi. o'tkazish shartiga qarab, sug'urta majburiy va ixtiyoriy bo'ladi. Ob'ektiga ko'ra, mulkiy, shaxsiy va javobgarlik sug'urtasiga bo'linadi. Sug'urtaning asosini risk tashkil etadi. Sug'urta - bu riskni taqsimlash usulidir.

2. Sug'urta fondidan foydalanish bilan bog'liq atamalarga quyidagilar kiradi:

Bosh polis- sug'urta kompaniyasi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi yozma bitim. Bu bitimga muvofiq, tegishli davr mobaynida sug'urtalanuvchi barcha ob'ektlarni sug'urta kompaniyasiga sug'urtalash uchun beradi. Chet el tajribasida bu bitim «ochiq polis» yoki «polis-abonament» deyiladi. Mazkur bosh polis asosida sug'urtalash tashqi savdo yuklari sug'urtasida keng tarqalgan. Sug'urtalanuvchi sug'urta kompaniyasiga har bir jo'natilgan yuk haqidagi ma'lumotlar (yukning vazni, sug'urta summasi, yukni jo'natish va qabul qilib olish punktlari) bayon etilgan arizani taqdim etsa etarli, yuk avtomatik ravishda sug'urtalangan hisoblanadi.

Kvotali qayta sug'urtalash - sug'urta kompaniyasi qayta sug'urtalovchi kompaniya bilan kelishgan holda unga risklarni bir qismini beradi. Bu operatsiya kvota shartnomasi orqali rasmiylashtiriladi. Qayta sug'urtalovchi kompaniyaga sug'urta mukofotini tegishli qismi beriladi va qayta sug'urtalovchi kompaniya mutanosib ravishda ko'rilgan zararni qoplashda ishtirok etadi.

Vositachilik haqi - mijozlarni sug'urtaga tortganligi uchun sug'urta kompaniyasi tomonidan vositachilarga (sug'urta brokeri, agent) to'lanadigan haq. Vositachilik haqining miqdori sug'urtaning turiga va kelib tushgan mukofotning hajmiga bog'liq holda sug'urta mukofotiga nisbatan foizlarda to'lanadi.

Sug'urta polisi - sug'urta shartnomasi tuzilganlik faktini tasdiqlovchi hujjat. Sug'urta polisida quyidagi rekvizitlar bo'lishi shart: sug'urta kompaniyasining yuridik manzili, sug'urtalanuvchining nomi, sug'urta ob'ekti, sug'urta mukofotining miqdori, shartnomaning amal qilish muddati. Sug'urta qoplamasini to'lashda sug'urtalanuvchi sug'urta polisini sug'urta kompaniyasiga taqdim etishi zarur.

Sug'urta dalolatnomasi - sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urta kompaniyasi tomonidan tuziladigan hujjat. Dalolatnomada mol-mulkning zararlanish yoxud nobud bo'lish sabablari, ko'rilgan zarar miqdori va boshqa ko'rsatkichlar bo'ladi. Dalolatnomaga, zarur hollarda sug'urta hodisasi va mol-mulkning zararlanganligini tasdiqlovchi tegishli tashkilotlarning (yong'inga qarshi kurash, davlat avtomobil nazorati, qishloq xo'jaligi, veterinariya xizmati va boshqalar) yozma hulosasi ilova etiladi. Xalqaro sug'urta munosabatlarida sug'urta

dalolatnomasini adjaster yoki avariya komissari tuzadi va mohiyatan avariya sertifikatiga yaqinlashadi.

Sug'urta mukofoti- sug'urta xizmatini ko'rsatganlik uchun to'lanadigan haq. Sug'urta mukofotining miqdori sug'urta summasiga nisbatan foizlarda aniqlanadi. Sug'urta mukofotining miqdori aniq summalarda ham ifodalanishi mumkin. Masalan, avtomobil egalarining uchinchi shaxsga zarar keltirish fuqarolik javobgarligini sug'urtasida sug'urta mukofoti aniq pul birligida ko'rsatiladi.

Sug'urta puli - sug'urta majburiyatini bajarish hamda sug'urta operatsiyalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmasdan o'zaro kelishgan holda bir qancha sug'urta kompaniyalarining ixtiyoriy uyushmasi. Sug'urta puli, asosan, xavfli, yirik ob'ektlarni sug'urtalash maqsadida tashkil etiladi. har qaysi kompaniya o'z sug'urtalangan riskni pulga beradi va buning uchun, pul orqali yig'ilgan sug'urta mukofotlarining bir qismini oladi.

Sug'urta ob'ekti - shaxsiy sug'urtada fuqarolarning hayoti, sog'ligi, mehnat qobiliyati bilan bog'liq manfaati; mulkiy sug'urtada binolar, qurilmalar, transport vositalari uy-joy mulki, tashiladigan yuklar va boshqa moddiy boyliklarni saqlashga bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarning manfaati; jismoniy yoki yuridik shaxsning o'z hatti-harakati bilan uning shaxsga zarar keltirish fuqarolik mas'uliyati - mas'uliyatni sug'urtalashda sug'urta ob'ektlari bo'lib hisoblanadi. Riskni baholash maqsadida sug'urta ob'ekti sug'urta kompaniyasining mutaxassisleri tomonidan ekspertiza qilinishi mumkin.

Sug'urta shartnomasi - ikki yoki undan ortiq tomonlar o'rtasida tuziladigan yozma ravishdagi bitim bo'lib, bunda sug'urta kompaniyasi sug'urta hodisasi tufayli zarar ko'rilganda sug'urtalanuvchiga sug'urta qoplamasi yoki sug'urta summasini to'lash majburiyatini, sug'urtalanuvchi esa belgilangan muddatlarda sug'urta mukofotini to'lash majburiyatini oladi. Sug'urta shartnomasi tuzilganlik faktini tasdiqlash uchun sug'urtalovchi sug'urtalanuvchiga sug'urta polisi beradi. Sug'urta shartnomasini tuzishdagi asosiy, oddiy va qo'shimcha shartlar sug'urta shartnomasining mazmunini tashkil etadi.

3. Xalqaro darajada qo'llaniladigan sug'urtaga oid atamalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Abandon - to'liq miqdordagi sug'urta summasini olish uchun sug'urtalanuvchining sug'urtalangan mol-mulkdan sug'urtalovchining foydasiga voz kechishi (sug'urtalangan kema nobud bo'lganda, u xabarsiz yo'qolganda, kema yoki yuk qaroqchilar tomonidan bosib olinganda). Abandon to'g'risidagi ariza voqea-hodisa ro'y bergandan keyin olti oy mobaynida berilishi kerak. Ayrim chet mamlakatlar qonunchiligida abandon sug'urtalanuvchining bir tomonlama akti hisoblanadi. Faqat, Angliya qonunchiligida abandon uchun sug'urtalovchining roziligi talab etiladi.

Avariya komissari - sug'urta kompaniyasining vakolatiga ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs. Sug'urtalangan kema yoki yuk bo'yicha ko'rilgan zararining xarakteri va miqdorini aniqlaydi, hodisa ro'y berganlik sabablarini o'rganadi. Sug'urta kompaniyasi avariya komissarining chet elda ham, mamlakat ichkarisida ham tayinlashi mumkin. Avariya komissarining yuridik manzili, telefon

va teleks raqamlari sug'urta kompaniyasi tomonidan beriladigan sug'urta polisida ko'rsatiladi. Sug'urtalanuvchi sug'urta hodisasi ro'y berishi zahoti avariya komissariga murojaat qilishi zarur. Avariya komissari mol-mulkning zararlanganlik darajasini aniqlaydi va sug'urta kompaniyasining topshirig'iga asosan, ko'rilgan zararni qisman qoplashi mumkin. Avariya komissari bajarilgan ishlar to'g'risida sug'urta kompaniyasi uchun avariya sertifikatini tuzadi yoki unga yozma axborot tayyorlaydi.

Avariya sertifikatini - mol-mulk sug'urta hodisasi tufayli zararlanganda, ko'rilgan zararining miqdori va xarakterini tasdiqlovchi hujjat. Avariya sertifikatini avariya komissari (adjaster) tomonidan tuziladi va tegishli vositachilik haqi hisobiga sug'urtalanuvchiga taqdim etiladi. Avariya sertifikatini sug'urtalanuvchining sug'urta qoplamasini olish to'g'risidagi arizasiga ilova etiladi va qoplamani to'lashda sug'urta kompaniyasiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Adjaster - sug'urta hodisasi ro'y berishi munosabati bilan sug'urtalanuvchi tomonidan bildirilgan e'tirozni tartibga solishda sug'urta kompaniyasining manfaatlarini himoya etuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs. U sug'urtalanuvchi bilan unga to'lanadigan sug'urta qoplamasi miqdorini kelishishga harakat qiladi. Adjaster sug'urta hodisasini ro'y berish sabablarini o'rganadi va tahlil etadi. Ushbu tahlil natijalari bo'yicha sug'urta kompaniyasiga ekspert xulosasini tuzadi hamda avariya komissari funksiyasini bajaradi. Adjaster vazifasini sug'urta kompaniyasining tarkibiy bo'limi yoki ixtisoslashgan tashkilot amalga oshirishi mumkin.

Aktuariy - lotin tilidan tarjima qilganda hisobchi degan ma'noni bildiradi. Aktuar hisob-kitoblar nazariyasini o'zlashtirib olgan sug'urta matematikasi sohasidagi mutaxassis. U sug'urta tariflarini hisoblash va metodologiyasini ishlab chiqish, uzoq muddatli sug'urta turlari bo'yicha sug'urta zahiralari shakllantirish bilan bog'liq hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Hozirgi paytda Angliyada aktuariylar instituti faoliyat ko'rsatmoqda. Aktuariylarning xalqaro uyushmasi mavjud.

Aktuar hisob-kitoblar - sug'urta tarifi stavkalarini hisoblashning iqtisodiy-matematik usullari yig'indisi. Ushbu hisob-kitoblar katta sonlar qonuniga asoslanadi. Aktuar hisob-kitoblarning metodologiyasi, ehtimollar nazariyasi, demografiya qonuniyatlariga asoslanadi, tarif stavkasini miqdori sug'urta hodisalari ro'y berishining ehtimoliyligiga bog'liq. Demografiya ma'lumotlaridan fuqarolarning hayotini sug'urtalashda sug'urtalanuvchilarning yoshiga mos ravishda sug'urta tarifi stavkasini tabaqalashtirishda foydalaniladi. Uzoq muddatli hayotni sug'urtasi bo'yicha sug'urta summaları sug'urtalangan shaxs vafot etganda yoki u ma'lum bir yoshga etganda to'lanadi. Etarli miqdordagi sug'urta fondini shakllantirish uchun, sug'urtalovchi shartnoma amalda bo'lgan davrda qancha shaxs vafot etishi yoki ma'lum bir yoshga etishi ehtimoliyligini bilishi zarur. Aholi o'limi darajasi haqidagi statistik ma'lumot asosida turli yoshga etishi ehtimolligini hisoblash hamda fuqarolarning o'limi to'g'risidagi jadvalni tuzish mumkin. Bu jadval asosida nafaqani va hayotni sug'urtalash bo'yicha tarif stavkalarni hisoblash mumkin.

Anderrayter – 1) turli risklarni sug'urtalash vakolatiga ega, sug'urta kompaniyasi tomonidan tayinlanadigan shaxs. Sug'urta kompaniyasini sug'urta portfeli shakllanishi uchun javob beradi. U sug'urta shartnomalarini tuzish, risklarni baholash va sug'urta tarifi stavkasini belgilash yuzasidan tegishli malakaga ega bo'lishi zarur; 2) Lloyd sug'urta polislarini beradigan Lloyd sug'urta korporatsiyasini a'zosi; 3) potentsial mijozlarga sug'urta polisini sotish bilan shug'ullanadigan yoki manfaatdor tomonlarga sug'urta sohasi bo'yicha yuqori darajada maslahat xizmatlarni ko'rsatadigan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Anderrayter siyosati- sug'urtalash bilan bog'liq yangi takliflarni ko'rib chiqish va mazkur taklifni qabul qilish yoki rad etish to'g'risida xulosalar chiqarishga qaratilgan siyosat.

Annuitet – renta va nafaqalarni sug'urtalashning hamma turlarini umumlashtiruvchi tushuncha. Bunda sug'urtalanuvchi sug'urta kompaniyasiga bir vaqtning o'zida yoki bir necha yillar davomida tegishli sug'urta mukofotlarini to'laydi. Keyin sug'urtalanuvchi butun hayoti davomida sug'urta kompaniyasidan daromad oladi. Annuitetning bir turi hisoblanadigan fuqarolarning yillik daromadini sug'urtasi bugungi kunda Buyuk britaniyada, Frantsiyada va AQShda keng rivojlangan.

Dispasher – dengiz transportida umumiy avariya sodir bo'lganda ko'rilgan zararni kema, yuk va fraxt o'rtasida taqsimlash bo'yicha hisob-kitoblarni tuzadigan mutaxassis. Rivojlangan mamlakatlarda dispasher funksiyasini maxsus kompaniyalar bajaradi. Zararlarni taqsimlash bo'yicha hisob-kitoblar dispasha deyiladi va dispashani tuzganlik uchun haqni manfaatdor tomonlar (kema egasi, yuk egasi, yukni sotib oluvchi shaxs) to'laydi.

Evropolis – Evropa Ittifoqi mamlakatlarida sug'urta shartnomasi tuzganlik faktini tasdiqlovchi sug'urta polisi.

Kovernota – sug'urta vositachisi tomonidan sug'urtalanuvchiga beriladigan va sug'urtalanuvchining sug'urta shartnomasi tuzishini tasdiqlovchi hujjat. Ushbu hujjatda ko'rsatilgan muddat mobaynida sug'urta brokeri sug'urtalanuvchiga sug'urta polisini berishi shart. Chunki, kovernota sug'urta kompaniyasi uchun yuridik kuchga ega bo'lgan hujjat hisoblanmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Toshkent moliya instituti

“Sug'urta” fakulteti

“Sug'urta ishi” kafedrası

“СҮҒҮРТА ИШИ”

fanidan

3-mavzu: *Sug'urta faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslari*

Kafedraning 2015 yil 25 avgustdagi 1-sonli
bayonnoma bilan tasdiqlangan

Kafedra mudiri _____
dots. I.Abdurahmonov

Tayorladi: k.o'q. I.Kenjaev

TOSHKENT-2015

3-mavzu: *Sug'urta faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslari*

REJA:

1. Sug'urta munosabatlarini tartibga solishda huquqning ahamiyati, sug'urta huquqi va uning mazmuni.
2. Sug'urta qonunchiligi, sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar.
3. Sug'urta faoliyatini qonun osti hujjatlari bilan tartibga solish.
4. Sug'urta faoliyati klassifikatorining tasdiqlanishi.
5. Sug'urta faoliyati klassifikatorining tarkibi.

1. Jamiyatda fuqarolar va ularning jamoasi o'z faoliyatlari jarayonida birlari bilan tegishli ijtimoiy munosabatda bo'ladilar. Ushbu munosabatlarni bir

qolipga solish uchun ularni tartibga keltirish zarur, ya'ni fuqarolar va tashkilotlarning hatti-harakat qilish doirasini belgilash zarur. Bayon etilganlar to'raligacha sug'urtaga ham taalluqlidir. Sug'urta ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyat sifatida huquqiy tomondan mustahkamlanishni talab etadi. Sug'urta fondini tashkil etish va undan foydalanish jarayonida paydo bo'ladigan munosabatlar huquqiy tartibga solinadi.

Sug'urta sohasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar fuqarolik-huquqiy munosabatlar tarkibiga kiradi. Bunday munosabatlar fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, shartnoma majburiyatlarini, shuningdek mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

Sug'urta sohasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlar quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- fuqarolar va sug'urta tashkilotlari o'rtasida shakllanadigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar;
- sug'urta tashkilotlari o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar;
- fuqarolar va maxsus davlat organlari o'rtasida paydo bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar;
- sug'urta tashkilotlari va maxsus vakolatli davlat organi o'rtasida paydo bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar.

Fuqarolar va sug'urta tashkilotlari o'rtasida paydo bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar tegishli shartnoma qoidalariga asoslanadi. Bunda bir tomondan sug'urta tashkilotining fuqaro oldida, ikkinchi tomondan fuqaroning sug'urta tashkiloti oldidagi burch va majburiyatlari paydo bo'ladi. Ya'ni, tuzilgan shartnomaga ko'ra, fuqaro o'z vaqtida sug'urta mukofotini to'lashi shart. Sug'urta hodisasi ro'y berganda esa, sug'urta tashkiloti sug'urta shartnomasida qayd etilgan shart va muddatlarda sug'urta qoplamasi (summasini) fuqaroga to'lab berishi lozim. Ko'rinib turibdiki, shartnoma –fuqarolik-huquqiy hujjat sifatida taraflarning o'zaro munosabatini huquqiy tartibga solyapti.

Sug'urta tashkilotlarining bir-birlari o'rtasida paydo bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlari sug'urta pulini va qayta sug'urta qilish bilan bog'liq tuzilgan shartnomalar doirasida shakllanadi. Amaldagi qonun hujjatlariga ko'ra, sug'urta tashkiloti moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, binobarin, sug'urtalanuvchilar oldida o'z majburiyatini bajarishini ta'minlash maqsadida sug'urta pulida ishtirok etishi yoxud boshqa sug'urta tashkilotlari yoki ixtisoslashgan qayta sug'urta tashkilotlari bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishi mumkin. o'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 959-moddasida «sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi o'z zimmasiga olgan sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lash xavfi uning tomonidan to'liq yoki qisman boshqa sug'urtalovchida (sug'urtalovchilarda) u bilan tuzilgan qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalanishi mumkin» deb alohida qayd etilgan.

Qayta sug'urta qilish shartnomasiga nisbatan, agar qayta sug'urta qilish shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, Fuqarolik kodeksining tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish borasida qo'llanishi lozim bo'lgan qoidalari

tatbiq etiladi. Qayta sug'urta qilish shartnomasini tuzgan sug'urta shartnomasi (asosiy shartnoma) bo'yicha sug'urtalovchi keyingi shartnomada sug'urta qildiruvchi hisoblanadi.

Fuqarolar va maxsus davlat organlari o'rtasida paydo bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar maxsus vakolatli davlat organining sug'urtalanuvchilar bo'lgan – fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya etish bilan bog'liqdir. Amaliyotda shunday holatlar bo'ladiki, sug'urta tashkiloti sug'urtalanuvchiga sug'urta hodisasi tufayli ko'rilgan zararni qoplashdan asossiz voz kechishi mumkin. Bunday paytda o'z manfaatlarini huquqiy himoya etish maqsadida sug'urtalanuvchi maxsus vakolatli davlat organiga murojaat etishi mumkin.

Sug'urta tashkilotlari va maxsus vakolatli davlat organi o'rtasida paydo bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi. Maxsus vakolatli organning sug'urta tashkilotlariga nisbatan paydo bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlari o'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va «Sug'urta faoliyati» to'g'risidagi Qonunda o'z aksini topgan. Maxsus vakolatli davlat organi qonunda belgilangan tartibda sug'urta tashkilotlarining faoliyatini nazorat etib boradi. Zaruriyat bo'lganda esa, sug'urtalanuvchilarning manfaatini himoya etish maqsadida undan sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani chaqirib olish huquqiga ega.

Sug'urtani huquqiy tartibga solish davlat tomonidan sug'urta munosabati qatnashchilarining hatti-harakatini huquqiy normalar vositasida amalga oshiriladi. Jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy huquqlarini har xil oldindan ko'rib bo'lmaydigan sug'urtaviy himoya qilish uchun ko'pchilik shaxslar tomonidan tashkil etiladigan maxsus fond hisobidan amalga oshiriladigan sug'urta faoliyati jarayonida paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar mavjud. Ushbu munosabatlarni tartibga soladigan normalar yig'indisiga sug'urta huquqi deyiladi.

2. Sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini ikki turga bo'lish mumkin:

- sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonunlar;
- sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi umumiy qonunlar

Sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonunlarga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2002 yilning 5 aprelida qabul qilingan va shu yilning 28 mayida amaliyotga joriy etilgan «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonuni hamda 2008 yil 21 aprelda qabul qilingan «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risida»gi Qonuni sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonunlar hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, sug'urta munosabatlarida ishtirok etuvchi tomonlarning qonuniy manfaatlarini himoya etish maqsadida 1993 yili Oliy Majlis «Sug'urta to'g'risida» Qonun qabul qilgan edi. O'tgan yillar mobaynida mazkur qonunga ikki marta qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Tabiiyki, bu qonun o'sha paytda mavjud bo'lgan iqtisodiy jarayonlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Boshqacha so'z bilan aytganda, ushbu qonun sug'urta munosabatlari qatnashchilari uchun biroz yumshatilgan holatda amal qildi.

Jumladan, unda sug'urta tashkilotlari tugatilgan taqdirda ularning sug'urtalanuvchilar oldidagi majburiyatini bajarish tartibi to'liq yoritilmagan. Shuningdek, bu qonunda qonunchilik talablarini buzganlik uchun tomonlarning javobgarligi o'z aksini topmagan hamda davlat sug'urta nazorati organining sug'urta tashkilotlariga nisbatan ta'sir qilish imkoniyati keskin chegaralangan edi.

Bayon etilgan holatlar mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi bosqichi talablarini hisobga olgan holda, amaldagi "Sug'urta to'g'risida"gi Qonunni yangilash va takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqardi. Shuni e'tiborga olib, 2002 yilning 4-5 aprel kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning sakkizinchi sessiyasida "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi yangidan ishlab chiqilgan qonun loyihasi deputatlar tomonidan atroflicha muhokama qilindi va qabul qilindi.

Ma'lumki, sug'urta sohasini huquqiy tartibga soluvchi 2002 yil aprel oyigacha amalda bo'lgan qonun "Sug'urta to'g'risida" deb ataladi. holbuki, biz fikr-mulohaza yuritmoqchi bo'lgan qonunning nomi esa "Sug'urta faoliyati to'g'risida" deyiladi va shubhasiz, bu holat diqqatimizni o'ziga jalb etdi. Ko'pchilik muhtaram talabalarimizda haqli savol tug'ilishi mumkin: sug'urta va sug'urta faoliyati tushunchalari o'rtasida farq bormi? Savolga javoban biz mutaxassislar aytamizki: farq bor. Sug'urtaning mohiyatini oddiy til bilan ifodalaydigan bo'lsak, oldindan ko'rib bo'lmaydigan har xil hodisalar ro'y berishi oqibatida yuridik va jismoniy shaxslar ko'radigan zararlarni sug'urta tashkiloti tomonidan qoplash bilan bog'liq munosabat. Shuni esdan chiqarmaslik lozimki, sug'urta tashkiloti o'z xizmatini mijozlarga tegishli haq - sug'urta mukofoti to'lash evaziga ko'rsatadi. Sug'urtalovchi mijozlardan kelib tushgan sug'urta mukofotlari hisobidan maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etadi va bu jamg'arma mablag'lari faqat sug'urta hodisalari tufayli ko'rilgan zararlarni qoplaydi. E'tibor bergan bo'lsangiz, sug'urta munosabatlarida ikkita tomon ishtirok etyapdi: sug'urta tashkiloti (sug'urtalovchi) va yuridik hamda jismoniy shaxslar (sug'urtalanuvchilar). Endi, sug'urta faoliyati tushunchasiga kelsak, qonunda ta'kidlanishicha, u sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyati. Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari faqatgina sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchidan iborat emas. Unda qayta sug'urtalovchilar, qayta sug'urtalanuvchilar, sug'urta brokerlari va agentlari ham ishtirok etadi.

Yangi qonunning e'tiborga molik tomonlaridan biri, unda, aniqroq aytadigan bo'lsak, uning 4-moddasida sug'urtalovchilarning sug'urtani amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin emasligi qayd etilgan. Qayd etish joizki, sug'urta faoliyati ham tadbirkorlikning bir ko'rinishi. Mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlari kechayotgan va tadbirkorlik harakatlariga keng yo'l ochilayotgan bir paytda, tadbirkorlik tizimining muhim bo'g'inlaridan bo'lgan-sug'urtalovchilar uchun bunday cheklovning qonun yo'li bilan belgilanishiga sabab nima? o'tgan yillar tajribasi shundan dalolat beradiki, ko'pgina sug'urta tashkilotlari "sug'urtalovchi" niqobi ostida turli tijorat operatsiyalarini, xususan, savdo-vositachilik ishlarini amalga oshirdilar. Yuridik va jismoniy shaxslarni sug'urta qilish hisobiga kelib tushgan

sug'urta mukofotlari, qoidaga ko'ra, sug'urta qoplamalarini to'lashga mo'ljallangan zahira jamg'armalarini tashkil etishga sarflanmasdan, balki sug'urta faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga sarflangan holatlar ham bo'lgan. Sug'urtaning eng asosiy printsiplaridan biri-sug'urtalovchilarning o'z zimmalariga olgan majburiyatlarini bajarishni ta'minlaydigan sug'urta zahiralariga ega bo'lishidir. Taassufki, ba'zi sug'urtalovchilarimiz, bunday zahiralarini shakllantirmaganliklari oqibatida murakkab moliyaviy holatni boshidan kechirganligi sir emas. Ayniqsa, bu ko'p ming sonli sug'urtalanuvchilar uchun noqulay vaziyatni vujudga keltirishi mumkin.

«Sug'urta faoliyati to'g'risida» Qonunning diqqatga sazovor joylaridan yana biri, uning 10-moddasida sug'urta tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini aniq ko'rsatib qo'yilganligidir. Ma'lumki, qonun hujjatlariga muvofiq, aktsiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan sug'urta tashkilotlari o'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatiga olinganlar. Ammo, uzoq vaqt, aniqrog'i, 1998 yilning birinchi yarmigacha sug'urta faoliyatini tartibga solish vakolati berilgan davlat sug'urta nazorati organining tashkil etilmaganligi va ilgari Adliya vazirligida davlat ro'yxatiga olingan tashkilotlarning faoliyati hech kim tomonidan nazorat qilinmaganligi oqibatida yangi tashkil etilgan sug'urta tashkilotlarini davlat ro'yxatiga olishda muammolar paydo bo'lgan.

«Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonun 29 ta moddadan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 52-bobi sug'urtaviy huquqiy munosabatlarga bag'ishlangan. Unda jami 47 ta modda mavjud. Kodeks sug'urta tashkilotlari bilan sug'urtalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solsa, «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonun sug'urta tashkilotlari va davlat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

3. Qonun osti hujjatlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, vazirliklar va idoralarning normativ hujjatlari kiradi.

Mustaqillik davrida sug'urta faoliyati bilan bog'liq bir qancha Prezident farmonlari qabul qilingan. Ulardan biri 1995 yilning 26 iyulida tashkil etilgan «Madad» sug'urta agentligi faoliyati bilan bog'liq Prezident farmonidir. Ushbu farmonga ko'ra, agentlikning faoliyat yo'nalishlari ko'rsatilgan hamda uni 3 yil muddatga daromad (foyda) solig'i to'lashdan ozod etilganligi ta'kidlangan. Shu erda qayd etish kerakki, «Madad» sug'urta agentligini tashkil etish bilan bog'liq Prezident Farmonini ijrosini ta'minlash uchun Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qilgan.

Shu bilan bir qatorda 1997 yil 18 fevralda «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasini, 1997 yilning 25 fevralida esa «O'zagrosug'urta» davlat-aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasini tashkil etish bo'yicha Prezident farmonlari qabul qilingan. Bu farmonlarda qayd etilgan kompaniyalar 5 yil muddatga daromad (foyda) solig'i to'lashdan ozod etilgan.

o'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2002 yil 31 yanvarida «Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»

Farmon qabul qildi. Bu farmon sug'urta xizmatlari sohasidagi erkinlashtirish jarayonini yanada rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, respublikada sug'urta bozorini taraqqiy ettirishning iqtisodiy omillarini kuchaytirish, sug'urta tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida qabul qilinganligini alohida ta'kidlash joiz. Shuningdek, farmonda 2002 yilning 1 fevralidan boshlab, mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, sug'urta tashkilotlari 3 yil muddatga daromad (foyda) solig'i to'lashdan ozod qilinishi va buning natijasida bo'shaydigan mablag'lar aniq maqsadni ko'zlagan holda mazkur tashkilotlarning moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga, mintaqalarda keng tarmoqli agentlik shaxobchalarini tashkil etishga, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashga, shu jumladan, chet ellarda tayyorlash va qayta tayyorlashga yo'naltirilishi aniq belgilab qo'yilgan.

Shunisi e'tiborliki, soliq olishdan bo'shaydigan mablag'larni tarkibida davlat ulushi bo'lgan sug'urta tashkilotlari ustav jamg'armalarini ko'paytirishga yo'naltirish chog'ida mazkur mablag'lar davlatga tegishli ulush miqdoriga qo'shib hisoblaydi. 2002 yilning 1 fevralidan boshlab to'rt yil mobaynida sug'urta tashkiloti tugatilgan yoki u sug'urta faoliyatini to'xtatgan hollarda daromad (foyda) solig'ining summasi ushbu Farmonga muvofiq berilgan butun imtiyozli davr uchun to'liq miqdorda undirib olinadi.

Farmonda belgilab qo'yildiki, yuridik shaxslarning ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha sarf-xarajatlari daromad (foyda) solig'ini hisob-kitob qilish chog'ida qonunchilikda belgilangan me'yorlar doirasida soliqqa tortiladigan baza hisobidan chegirib tashlanadi. 2002 yilning 1 fevralidan boshlab xo'jalik yurituvchi sub'ektlar xaridorlarga xizmat qiladigan banklarning kafolatlari yoki eksport shartnomalarining siyosiy va tijorat tavakkalchiliklaridan sug'urta polisi mavjud bo'lgan taqdirda oldindan haq olmasdan va akkreditiv ochmasdan erkin almashtiriladigan valyutaga tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni eksport qilishlari mumkin.

4. Sug'urta faoliyati klassifikatori - sug'urtalovchilar hamda sug'urta brokerlari sug'urta faoliyatini litsenziyalash jarayonida ularning faoliyat yo'nalishlarini belgilashda huquqiy asos bo'lib xizmat qiladigan me'yoriy hujjatdir. Sug'urta faoliyati klassifikatorida keltirilgan klasslar yordamida sug'urtalovchilarning sug'urta xizmat turlari bo'yicha sug'urta shartnomalari tuziladi.

Sug'urta xizmatlarini ko'rsatish ikki xil yo'l bilan amalga oshiriladi:

- 1.1. ixtiyoriy;
- 1.2. majburiy.

Cug'urta faoliyati klassifikatorida ikkala turda amalga oshiriladigan sug'urta turlari ham mavjud bo'lib, ular: javobgarlik sug'urtasi, mulkiy sug'urta va hayot sug'urtasiga bo'linadi.

Mamlakatimiz sug'urta kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta turlari bo'yicha klassifikator ham 2002 yil 27 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 413-sonli Qarorining 1-ilovasi - "Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash

to'g'risida"gi Nizomga 1-ilova sifatida sug'urta faoliyati klassifikatori tasdiqlangan.

Mazkur sug'urta faoliyati klassifikatorining qabul qilinishi sug'urta kompaniyalari uchun sug'urta faoliyatini amalga oshirishda asos hisoblanadi. Sug'urta kompaniyalari sug'urta faoliyati uchun litsenziya olishda Moliya vazirligi tomonidan qo'yiladigan talablarda ham faoliyat yuritmoqchi bo'lgan sug'urta xizmatlari bo'yicha sug'urta shartomlaridan nusxa taqdim etildishi shart hamda arizada sug'urta klasslari nomlari ham keltiriladi. Keltirilgan sug'urta turlari bo'yicha boshqa talablar ham o'rnatilgan.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 413-sonli Qarorining 1-ilovasi - Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi Nizom haqida bo'lib, uning 1-ilovasida sug'urta faoliyati klassifikatorining tarkibi hamda tarmog'i kelirilgan.

Sug'urta faoliyati KLASSIFIKATORI

1. Hayotni sug'urta qilish tarmog'i

Klass tartib raqami	Klassning nomi	Mazmuni va sug'urta qilish shartlari bo'yicha talablar
I klass	Hayot va annuitetlar	Quyidagi hollarda sug'urta summolari to'lash bo'yicha sug'urtalovchining majburiyatlarini nazarda tutuvchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug'urta qilish turlari jami: - sug'urta qilinuvchining sug'urta muddati tamom bo'lgungacha yoki sug'urta shartnomasida belgilangan yoshgacha yashashi; - sug'urta qilinuvchining vafot etishi; shuningdek sug'urta shartnomasi amal qilishi davridagi joriy to'lovlar (annuitetlar), III klass bundan mustasno
II klass	Nikoh va tug'ilish	Nikohga kirishda yoki bola tug'ilganda sug'urta summasi to'lanishini ta'minlovchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug'urta qilish turlari jami
III klass	Hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish	Umrbod renta to'lanishi bilan birgalikda hayotni sug'urta qilish turlari jami
IV klass	Sog'liqni sug'urta qilish	Ko'rsatib o'tilgan sug'urta davri kamida besh yildan kam bo'lmagan muddatga yoki sug'urta qilinuvchining pensiya yoshiga etguniga qadar belgilanishi sharti bilan baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa yoki kasallik yoki kasallanish tufayli qattiq shikastlanish natijasida mehnatga layoqatlilikni yo'qotganda sug'urta summolari to'lanishini ta'minlovchi hayotni sug'urta qilish turlari jami. Bunda shartnomada ko'rsatilgan sug'urta davri sug'urtalovchi tomonidan bir tomonlama tartibda bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin emas

2. Umumiy sug'urta tarmog'i

Klass tartib raqami	Klassning nomi	Mazmuni va sug'urta qilish shartlari bo'yicha talablar
1-klass	Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilish	Quyidagi hollarda: a) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida sog'liqning qattiq shikastlanishi, yoxud; b) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida vafot etgan taqdirda, yoxud; v) kasallik yoki muayyan turdagi kasallik natijasida mehnat qobiliyatini yo'qotish, shu jumladan ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasb kasalliklari, biroq 2-klass va IV klass bo'yicha sug'urta shartnomalarini istisno qilgan holda, sug'urta qilingan shaxsga sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi yoki pul kompensatsiyasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
2-klass	Kasallikdan ehtiyot shart sug'urta qilish	Sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi to'lanishini yoki kasallik yoki sog'liqning izdan chiqishi munosabati bilan sug'urta qildiruvchining pul kompensatsiyasi (yoki uning ham, buning ham kombinatsiyasi)ni ta'minlovchi sug'urta turlari jami, biroq hayotni sug'urta qilish tarmoqlarining IV klassi bo'yicha shartnomalarni istisno qilgan holda
3-klass	Er usti transport vositalarini sug'urta qilish	Transport vositalari, o'zi yurar mashina va mexanizmlar, harakatlanadigan temir yo'l tarkibi bundan mustasno, yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
4-klass	Harakatlanadigan temir yo'l tarkibini sug'urta qilish	Harakatlanadigan temir yo'l tarkibi yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
5-klass	Aviatsiya sug'urtasi	Havo kemasi, havo kemasining mashina asbob-uskunolari, jihozlari, inventari, ehtiyot qismlari yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
6-klass	Dengiz sug'urtasi	Dengiz va ichki daryo kemalari, kemalarning mashina asbob-uskunolari, asbob-uskunolari, inventari, ehtiyot qismlari yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
7-klass	Yo'ldagi mol-mulkni sug'urta qilish	Transportning har xil turlari bilan tashishda yuklar, bagaj va boshqa mol-mulk yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
8-klass	Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish	Yong'in, portlash, bo'ron, dovul, jala, ko'chki, tuproqning cho'kishi, emirilish, er osti suvlari, sel, yashin urishi, zilzila, yadro energiyasi ta'siri natijasida mol-mulk (3 va 7- klasslarda ko'rsatilganlar bundan mustasno) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami

9-klass	Mol-mulkni zarardan sug'urta qilish	8-klassda ko'rsatilmagan do'l, qalin qor yog'ishi yoki qattiq sovuq tushishi, buzib kirib o'g'irlik qilish va boshqa voqealar natijasida mol-mulk (3 va 7-klasslarda ko'rsatilgandan boshqa) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
10-klass	Avtofuqarolik javobgarligini sug'urta qilish	Er usti transport vositalari va boshqa o'ziyurar mashinalar va mexanizmlardan foydalanish oqibatida, tashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlag kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar etkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
11-klass	Aviatsiya sug'urtasi doirasidagi javobgarlikni sug'urta qilish	Havo kemasidan foydalanish oqibatida, aviatashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlag kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar etkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
12-klass	Dengiz sug'urtasi doirasida javobgarlikni sug'urta qilish	Dengiz va ichki kemalardan foydalanish oqibatida, dengiz tashuvchisining javobgarligi ham shu jumlag kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar etkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
13-klass	Umumiy fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish	10, 11 va 12-klasslarda ko'rsatilmagan tavakkalchiliklar oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar) oldida fuqarolik javobgarligi paydo bo'lgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
14-klass	Kreditlarni sug'urta qilish	Sug'urta qildiruvchining debitori nochorligi (bankrotlik) yoki debitorning sug'urta qildiruvchi oldidagi qarzlarni qaytarish majburiyati bajarilmasligi (nochorlikdan tashqari) natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
15-klass	Kafillikni (kafolatlarni) sug'urta qilish	Sug'urta qildiruvchining o'ziga berilgan kafolatni bajarishi majburiyati natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
16-klass	Boshqa moliyaviy tavakkalchiliklardan sug'urta qilish	Quyidagi hollarda: a) sug'urta qildiruvchining biznesi (xo'jalik faoliyati) uzilib qolishi yoki sug'urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilayotgan biznes (xo'jalik faoliyati) ko'lami kamayishi natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda; b) oldindan nazarda tutilmagan xarajatlar natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda (17-klassda ko'rsatilgandan tashqari); v) shartnomalar tuzilishi va bajarilishi bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish natijasida mazkur darajaning a) va b) bandlarida ko'rsatilgandan boshqa nobudgarchiliklarga uchraganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
17-klass	Huquqiy himoya qilish bilan	Sud muhokamasi bilan bog'liq ko'rilgan xarajatlar natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta

	bog'liq xarajatlarni sug'urta qilish	qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
--	--	---

4-mavzu: Sug'urtada tarif siyosati

REJA:

1. Raqobat sharoitida sug'urta xizmatlariga narx-navoni shakllanish xususiyatlari va sug'urta tarifi tushunchasi.
2. Sug'urta tarif stavkasining tuzilishi va tarkibi. Brutto va netto-stavkani hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari va umumiy tamoyillari.

1. Risklar transferini funktsional mazmun-mohiyatiga ko'ra o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan sug'urta xizmatlarini tashkil etish hamda ularni ko'rsatish sa'y-harakatlari majmuasi, deb ta'kidlash mumkin. Mazkur faoliyatning asosiy maqsadi iqtisodiyot sub'ektlarining talablariga ko'ra, ularni sug'urta risklaridan himoyasini ta'minlashga qaratilgandir. Bu jarayonda risklar yuz berishi oqibatida ko'rilishi ehtimol bo'lgan zararlarni qoplashda sug'urta tizimi barqarorligini ta'minlashning ahamiyati ortmoqda.

Shunga ko'ra, risklar transferida tariflarni optimal darajada belgilash sug'urta tizimi barqarorligini ta'minlashning muhim omili sifatida qaralmoqda.

Risklar transferida tariflarni belgilash qator uslubiyatlarga, xususan, ehtimollik nazariyasiga binoan sug'urtachilarda shakllantirilgan ma'lumotlar bazasiga asoslangandir.

Xususan, tariflarni belgilashda har bir shartnoma bo'yicha quyidagi:

- sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimoli;
- sug'urta mukofotining o'rtacha kattaligi;
- to'lanishi ehtimol bo'lgan sug'urta qoplamasining o'rtacha summasi kabi omillar e'tiborga olinadi.

Risklar transferi bo'yicha tariflarni aniqlash uslubiyatlarida ob'ektlarning o'ziga xosligi to'liq aks etmagan. Shuni ta'kidlash kerakki, tariflarni belgilashda unga ta'sir etuvchi qator omillar qat'iy e'tiborga olingan uslubiyatning samarasi kutilgan darajada bo'lishi mumkin. Xususan, bunday uslubiyat:

- sug'urta ob'ektlarini tasniflash (guruhlash);
- har bir guruhning o'ziga xos tomonlarini aniqlashtirish;
- o'ziga xos xususiyatlarni son jihatdan baholash uslubiyatini ishlab chiqish;
- har bir guruh ob'ektlarining umumiy tomonlarini aks ettirgan ma'lumotlar bazasini shakllantirish;
- tariflarini hisoblashning dasturiy ta'minotini yo'lga qo'yish kabi bir qator sa'y-harakatlarni amalga oshirishni talab etadi.

Sug'urta faoliyatida zararlilik ko'rsatkichilari o'zgarishi sug'urtachining sug'urtalanuvchilardan undirgan mukofotlari summasi jamlashi va ularni

investitsiyalar bozorida joylashtirishi jarayonidagi vositachi sifatidagi roli bilan ham izohlanadi.

Investitsion faoliyatdan olingan foyda summasi sug'urta kompaniyasining tarif siyosatiga ta'sir etuvchi muhim omil sanaladi. Qayd etish lozimki, sug'urta operatsiyalaridan ko'rilgan zararni investitsiya faoliyatidan olingan foyda hisobidan subsidiya qilinishiga bo'lgan munosabat ham turlichadir. Xususan, bunday faoliyat, bir tomondan, mablag'lar taqchilligida raqobatga mos bo'lgan tarif siyosatini yuritish uchun aynan investitsiyalar bozorida qulay kon'yunkturaning yuzaga kelishi hisobiga zaxirani talab darajasida shakllantirish imkoniyatini yuzaga keltirsa, boshqa tomondan, aynan shunday faoliyatdan olingan daromad hisobiga texnik natijalarni tenglashtirish uchun sug'urta fondidan jalb etiladigan mablag'lar etarli darajada bo'lishini ta'minlovchi omil sifatida qaralayotganligini ham qayd etib o'tish lozimdir. Mazkur holat sug'urtachining o'z javobgarligiga qabul qilgan risk bo'yicha nazorati sustlashuvining omili bo'lmasligi lozim.

Hozirga qadar, sug'urta amaliyotida majburiyatlar hajmi, erkin aktivlarning tuzilishi va bahosi, moliyaviy kafillik ta'minlanganligi, sug'urta portfelining ratsional shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan risklar taqsimoti, sug'urta zaxiralari shakllantirilishi borasida yagona bir kontseptsiya ishlab chiqilmagan. Shu bois sug'urta tashkilotlari bu muammolarni empirik tarzda hal etishga majbur bo'lmoqda.

Har qanday sug'urta turi bo'yicha tariflar hisob-kitobi (aktuar hisob-kitoblar)da aniq sug'urta ob'ektining qiymati hisoblab chiqiladi. Umuman aktuar hisob-kitoblar yordamida sug'urta xizmatini hamda sug'urtachi tomonidan sug'urtalanuvchiga ko'rsatiladigan xizmatining qancha turishi aniqlanadi.

Sug'urtani amalga oshirish xarajatlarini hisoblash «aktuar kalkulyatsiya» (actuary) deb ataladi. Uning yordamida shartnoma bo'yicha sug'urta mukofotlari hamda sug'urtachining ish yuritish xarajatlari summasi, ya'ni mazkur xizmat tannarxi hisoblab chiqiladi. Sug'urta faoliyatida aktuar hisob-kitoblarning o'ziga xos tomonlari ham mavjud va ular quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi:

- baholanayotgan risk doimo ehtimollik xarakteriga ega bo'lishi;
- ayrim yillarda umumiy qonuniyatga zid turkum tasodifiy hodisalar yuz berishi, ularning ta'siri, o'z navbatida, sug'urta tashkilotidan talab etiladigan sug'urta qoplamasi to'lovi summasining sezilarli o'zgarishini taqozo etishi;
- sug'urtachi tomonidan ko'rsatilayotgan xizmat tannarxi sug'urta munosabatlari yig'indisidan keltirilib chiqarilishi;
- sug'urtachi ixtiyorida bo'ladigan maxsus zaxirani ajratish, uning optimal hajmini aniqlash talab etilishi;
- sug'urta shartnomalari ko'rsatkichlarini (inglizcha «storno») bashorat qilish hamda ular bo'yicha ekspert bahosi talab etilishi;
- qarz (ssuda) foizlari me'yorlarini va aniq vaqt oralig'ida ularning o'zgarish an'analarini tadqiq etish taqozo etilishi;
- sug'urta hodisasi bilan bog'liq holda to'liq yoki qisman zararlar yuzaga kelishi hamda ular kattaligining kenglik va vaqtda taqsimlanishiga maxsus jadvallar yordamida o'zgartirishlar kiritish talabi namoyon bo'lishi;

- ekvivalentlik tamoyiliga amal qilish, ya'ni sug'urta mukofotlari va sug'urta tashkiloti tomonidan tarif davrida ko'rsatilayotgan sug'urta ta'minoti o'rtasida o'zaro tenglik o'rnatilishi taqozo etilishi;

- umumiy sug'urta doirasida risklarni aniqlashtirish va ularni guruhlash talab etilishi kabilar.

Sug'urta to'lovlari hajmining hisob-kitoblari aynan bir mamlakat, alohida bir hududning o'ziga xos tomonlarini inobatga olgan holda, shuningdek risk yuz berishi ehtimolining vaqt va kenglikdagi xilma-xilligi asosida aniqlanadi. Masalan, sug'urtalangan ob'ektlar soni 100 ta, har bir ob'ekt bo'yicha sug'urta summasi 2 mln. so'm bo'lsa, risk ehtimoli 2 foiz darajasida ($0,02 \times 100 \times 2$ mln. so'm) hamda zarar sug'urta summasiga teng yoki undan katta bo'lganida, mazkur umumiy sug'urta doirasidagi bu sug'urta turi bo'yicha yillik sug'urta qoplamasi, ya'ni netto-stavka aynan 4 mln. so'mni tashkil etadi.

Aniqlangan sug'urta qoplamasini sug'urtalangan ob'ektlar soniga bo'lsak, umumiy sug'urta zaxirasiga har bir sug'urtalanuvchi tomonidan to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta mukofoti 40 ming so'm ($0,02 \times 2$ mln. so'm) ekanligi aniqlanadi. Har bir sug'urtalanuvchi aynan shuncha sug'urta mukofotini to'lashi kerak. Sug'urta summasining birligi sifatida 1000, 100 yoki 1 so'm olinishi mumkin.

Tarif stavkasi yordamida har bir sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta shartnomasi bo'yicha to'lashi kerak bo'lgan sug'urta mukofoti aniqlanadi. Buning uchun shartnomada qayd etilgan sug'urta summasi tarif stavkasiga ko'paytiriladi. Masalan, tarif stavkasi har 100 so'mdan 2 so'm darajasida belgilangan bo'lsa, shartnoma bo'yicha sug'urta summasi 5 mln. so'mga teng bo'lganda, sug'urta mukofotining kattaligi quyidagicha aniqlanadi:

$$(2 \text{ so'm} \times 5 \text{ mln. so'm}) : 100 \text{ so'm} = 100\,000 \text{ so'm.}$$

Sug'urta tarifi stavkasi sug'urta summasiga nisbatan foizlarda belgilanadi. Uning to'g'ri hisoblab chiqilganligi muhimdir. Sug'urtachi sug'urta tarifi asosida undirilgan sug'urta mukofotlari hisobidan o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini to'liq hajmda bajarilishini ta'minlaydi, ya'ni sug'urta faoliyatini amalga oshirish xarajatlarini qoplaydi.

Sug'urta risklari sezilarli darajada kam yuz bergan yoki sug'urta hodisasi oqibatida ko'rilgan zarar ko'lamiga katta bo'lmagan yillar hisobiga sug'urtachining daromad (foyda) olish ehtimoli ortadi. Shuni ham nazarda tutish lozimki, aniq natijalar hisob-kitobida hisobot davri davomida xabar qilingan, ammo sug'urta qoplamasi amalga oshirilmagan zarar sug'urta tashkiloti faoliyatining moliyaviy ko'rsatkichlariga ham sezilarli ta'sir etadi.

Sug'urta tarifining risk yuz berishi ehtimoliga nisbatan yuqori darajada ko'rsatilishi bir tomondan, mijoz bilan sug'urta shartnomasi tuzilmay qolishiga sabab bo'lsa, ikkinchi tomondan, sug'urtachining sug'urta bozoridagi raqobatbardoshligiga ham salbiy ta'sir etadi. Va, aksincha, tarif stavkasining past darajada belgilanishi sug'urtachi mablag'larining taqchilligini keltirib chiqarishi oqibatida, sug'urtalanuvchi ko'rgan zararining sug'urta qoplamasi amalga oshirilmay qolinishiga olib kelishi mumkin, ammo, bunday holat amaliyotda deyarli uchramaydi.

2. Sug'urta mukofotlarining stavkalari tarif davri uchun hisoblab chiqiladi, ya'ni tarif hisoblari asosida belgilangan davr uchun ekvivalentlik ta'minlanadi. Shunday qilib, har qanday sug'urta turi bo'yicha tarif stavkasi brutto-stavka sifatida qaraladi va u ikki qismdan: netto-stavka (sug'urta qoplamasi to'lovlari uchun zaxira summasi) va sug'urtachining faoliyat yuritish xarajatlaridan (odatda u «yuk» deb ataladi) iborat bo'ladi. Brutto-stavkada bu ikkala qismning nisbati, ularning mohiyatidan kelib chiqib, turlicha foizlarda belgilanishi mumkin. Netto-stavka brutto-stavkaning asosini tashkil etadi va uning hissasiga, sug'urta turiga qarab, 60-95 foizgacha ulush to'g'ri kelishi mumkin. «Yuk» hisobiga esa, shunga mos ravishda odatda 5-40 foiz ulush belgilanadi.

Sug'urta shartnomasi bo'yicha qancha sug'urta turi sug'urtalanayotgan bo'lsa, netto-stavka ham shuncha qismdan iborat bo'ladi. Masalan, hayotni aralash sug'urtalash bo'yicha netto-stavka belgilangan davrgacha yashaganligi uchun, o'lim holati yuz berganligi uchun, mehnat faoliyatini yo'qotish holati uchun kabi netto-stavkalardan tashkil topadi.

«Yuk»da sug'urta ishini olib borish xarajatlari aks etadi. U quyidagi qismlarni o'z ichiga oladi:

- ma'muriy-xo'jalik xarajatlari (uning asosini tashkilot shtatidagi xodimlarga to'lanadigan maoshlar summasi tashkil etadi);
- sug'urta polislarini joylashtirganligi uchun haqlar;
- sug'urta agentlari, menejerlar uchun haqlar.

To'lov shakllari, odatda brutto-stavka yoki «yuk»ka nisbatan foizlarda aniqlanadi. Foiz to'lovlaridan tashqari rag'batlantirishlar ham amalga oshirilishi mumkin.

Umumiy sug'urta qilish tarmog'i klasslari bo'yicha «yuk» sug'urta ishini yuritish xarajatlaridan tashqari ogohlantirish zaxirasiga ajratmalar qilish va rejalantirilgan foyda summalarini ham o'zida aks ettiradi. Brutto-stavkani hisoblashda, dastlab netto-stavka aniqlab olinadi, so'ngra unga «yuk» (odatda brutto-stavkaga nisbatan foizlarda) qo'shib hisoblanadi. Brutto-stavka qo'yidagicha aniqlanadi:

$$MS = \frac{HC}{100 - IO(\%)},$$

Bu erda, MS - brutto-stavka;

NS - netto-stavka;

Yu(%) - yuk (foizlarda ifodalanadi).

Majburiy sug'urta turlari bo'yicha tariflar me'yoriy hujjatlar bilan o'rnatilsa, ixtiyoriy sug'urtada esa, sug'urtachi tomonidan mustaqil ravishda aniqlanadi.

Tarifni aniqlash uslubiyati, tarif stavkasi va uning dastlabki ma'lumotlar manbasi, netto-stavka va «yuk» ulushlari ko'rsatilgan holda tarif hisob-kitoblari maxsus vakolatli Davlat organiga taqdim etiladi. Mazkur organ tomonidan ruxsat berilganidan so'ng sug'urta tashkiloti o'zi hisoblab chiqqan sug'urta tarifini qo'llash huquqiga ega bo'ladi. Har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta tarifining hajmi sug'urta ob'ektini tavsiflovchi qator holatlarni hisobga olgan holda

tomonlarning o'zaro kelishuviga ko'ra belgilanadi.

Umumiy sug'urta qilish tarmog'i klasslari bo'yicha tarif stavkasini aniqlashda netto-stavka hisob-kitobi muhim hisoblanadi. Aynan uning hisobidan sug'urtalanuvchilar ko'rgan zararining qoplama to'lovlari amalga oshirilishi nazarda tutiladi.

Sug'urta tashkiloti mukofot undirilishi hisobiga sug'urta hodisasi yuz berishi oqibatida sug'urtalanuvchi ko'rgan zararni qoplash uchun etarli miqdordagi summani jamlab olishi muhimdir. Masalan, har yili sug'urtaga qabul qilingan 1000 xonadondan 6 tasi butunlay yonib ketishi hodisasi ro'y beradi deb faraz qilsak, har bir xonadonning bahosi 1 mln. so'm bo'lsa, bu holatda sug'urtachi (1 mln. x 6) 6 mln. so'm miqdoridagi pul fondiga ega bo'lishi talab etiladi. Bu sug'urta qoplamasi summasini sug'urtalangan ob'ektlar soniga bo'lish orqali har bir sug'urtalanuvchiga to'g'ri keladigan ($6 \text{ mln. so'm} : 1000 = 6 \text{ ming so'm}$) sug'urta mukofoti aniqlanadi. Aynan shu summa aniq bir sug'urta ob'ekti uchun hisoblab chiqilgan netto-stavkadir.

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta tashkilotlari tomonidan netto-stavkani hisoblash amaliyotda birmuncha murakkabroqdir¹. Negaki, sug'urtalangan ob'ektning (bir qismi yoki batamom) zarar ko'rganligi darajasi, sug'urta hodisalari (yong'in, suv toshqini va boshqa) sonining yillar bo'yicha tafovuti, shuningdek, boshqa qator dalillarni ehtimollikka asoslanib, bashorat qilish va hisobga olish kerak bo'ladi. Mol-mulk (bino, uy xayvonlari, qishloq xo'jaligi ekinlari)ning turli sug'urta hodisalari (yong'in, kasalliklar, sovuq va shu kabilar) yuz berishi oqibatida, zarar ko'rish yoki halokatga uchrashi ehtimoli turlichadir. Shundan kelib chiqib, ob'ektlarning shartnomada qayd etilishi nazarda tutilayotgan sug'urta hodisalaridan sug'urtalash bo'yicha tarif stavkalari ham turlicha belgilanishi mumkin.

Netto-stavka ikki qismdan - sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi va risk «yuki»dan shakllantiriladi. Sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi - eng katta ehtimollikka ko'ra, sug'urtalangan ob'ektlar summasining to'langan sug'urta qoplamasi summasi nisbatidan kelib chiqadi. Masalan, bir avtomobilning narxi 10 mln. so'm, uni ta'mirlash 3 mln. so'm, yo'l halokati hodisasi doimiylik koeffitsienti (DAN ma'lumotiga ko'ra) 0,2 bo'lsa, sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi ($SS3K = 3 \text{ mln. so'm} : 10 \text{ mln.} \times 0,2 \times 100 = 6 \text{ so'm yoki } 6 \%$) 6 foizni tashkil etadi.

Risk qoplamasi to'lovining kattaligi sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolligi darajasiga bog'liq bo'ladi. Risk bo'yicha sug'urta mukofoti uning yuz berish ehtimolligining vaqt va kenglikdagi holatidan keltirib chiqariladi. Hayot sug'urtasi tarmog'ida risk ehtimoli mijozlar jinsi va yoshiga ko'p jihatdan aloqador bo'lsa, umumiy sug'urta tarmog'ida esa, nisbatan doimiy risk mavjuddir. Ammo ma'lum vaqt oralig'ida risk kattaligi o'zgarishi ham kuzatiladi.

¹Худди Европа мамлакатларидаги каби суғуртачилар иштирокидаги суғурта компаниялари ассоциациялари ва маҳсус (масалан, «Assamlee Pleniére des Sociétés d'Assurances Dommages» каби) техник ташкилотлар томонидан суғурта «маҳсулот»ларини қўрилиши эҳтимол бўлган зарарлар бўйича ишончли даражада тарификациялаш сингари фаолият Ўзбекистонда йўлга қўйилганича йўқ.

5-mavzu: Sug'urta bozori va uni davlat tomonidan tartibga solish

REJA:

1. Sug'urta bozori tushunchasi va uning ishtirokchilari.
2. Sug'urta bozorining turlari va ularga umumiy tavsifnoma.
3. Sug'urta bozori infratuzilmasining sug'urta bozori rivojlanishidagi ahamiyati.
4. Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning ob'ektiv zarurligi va shakllari.
5. Davlat sug'urta nazorati: uning funktsiya va vazifalari.
6. Sug'urta faoliyatini litsenziyalash tartibi.

1. Ma'lumki, har qanday bozorda sotuvchi va xaridor bo'ladi hamda ular o'rtasida tegishli tovarlar (xizmatlar) ayirboshlanadi. Xuddi shunday, sug'urta bozorida ham sotuvchi (sug'urtalovchi) va xaridor (potentsial sug'urtalanuvchi) ishtirok etadi. Bu erda potentsial sug'urtalanuvchi tushunchasini qanday izohlash mumkin, degan o'rinli savol tug'ilishi mumkin. Gap shundaki, basharti, potentsial sug'urtalanuvchini to'g'ridan to'g'ri sug'urtalanuvchi, deb atasak katta xatoga yo'l qo'yg'an bo'lamiz. Negaki, amaldagi qonunlarga muvofiq, sug'urta kompaniyalari bilan bevosita shartnoma tuzgan, fuqarolik salohiyatiga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarga sug'urtalanuvchilar deyiladi. Aksincha, sug'urta "mahsulotini" sotib olishga ehtiyoji bor, ammo hali sug'urtalovchilar bilan tegishli sug'urta munosabatlariga kirishmagan shaxslar potentsial sug'urtalanuvchilar deb ataladi. Endi, sug'urtalovchilar haqida gapiradigan bo'lsak, sug'urtalovchi - bu mamlakat xududida sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqi berilgan hamda sug'urtalash o'zi uchun asosiy faoliyat turi hisoblangan yuridik shaxslardir. Ko'rinib turibdiki, sug'urta kompaniyasi tegishli faoliyat yuritishi uchun vakolatli davlat organining litsenziyasiga ega bo'lishi va sug'urtaga bog'liq bo'lmagan operatsiyalar bilan shug'ullanmasligi zarur.


Sug'urtalovchilar bozorga o'zlarini ishlab chiqargan o'ziga xos mahsuloti - sug'urta xizmatini taklif etadilar. Ushbu xizmatlar yuzlab, minglab sug'urta kompaniyalari tomonidan sotilishi mumkin. O'z-o'zidan, bu holat sug'urta bozorida potentsial mijozlarni jalb etish uchun sug'urta kompaniyalari o'rtasida raqobatning kuchayishiga olib keladi va "mahsulot"ning sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Eng asosiysi, potentsial sug'urtalanuvchi har tomonlama o'zining talabini qondiradigan "mahsulot"ga ega bo'ladi. Bayon etilganlar quruq gap emas, balki bugungi kunda iqtisodi taraqqiy etgan mamlakatlar bozorida ruy berayotgan oddiy haqiqatdir. Yuqorida zikr etilgan fikrlarni quyidagi chizmada yaqqol ko'rish mumkin.

Sug'urta bozorining mohiyatini chuqurroq anglab olish uchun kundalik xayotimizdan oddiy bir misol keltirsak maqsadga muvofiqdir.

O'zimiz yoki bolalarimizga kiyim-kechak sotib olish uchun buyum bozoriga boramiz. Aytaylik, birorta kiyim, aniqrog'i, kuylak sotib olmoqchimiz. Bozorda kuylakning har xili mavjud, baholari xam, narxi xam turlicha. Biz, albatta,

sifati yaxshisini va bahosi arzonini sotib olamiz. Sug'urta bozorida ham aynan shu jarayon yuz beradi.

1-chizma



Sug'urta kompaniyasi o'z mahsulotini bozorda sotar ekan, zimmasiga katta mas'uliyat olganligini unutmasligi kerak. Chunki, sug'urtalovchi ozgina sug'urta mukofoti evaziga yirik mikdordagi riskni qabul qilib oladi va sug'urta hodisasi ruy berganda zimmasidagi sug'urta qoplamasini to'lashi shart. Shu o'rinda, biz sug'urta kompaniyasiga murojaat qilishni istagan yoki muayyan sug'urta xizmatiga ehtiyoj sezgan shaxslarga sug'urta shartnomasini tuzishdan oldin sug'urta kompaniyasining moliyaviy axvoli, balansi bilan albatta tanishib chiqishlarini maslahat qilamiz.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshqa tovarlar va xizmatlar kabi, sug'urta xizmatining ham bahosi talab va taklif asosida paydo bo'ladi hamda bu baho o'zining pastki va yuqori chegaralariga ega. Sug'urta tushumlarining miqdori sug'urta to'lovlari va sug'urta tashkilotlari xarajatlari miqdoriga teng bo'lishi sug'urta baxosining pastki chegarasini bildiradi. Bunday sharoitda sug'urta kompaniyasi asosiy faoliyatdan foyda ololmaydi. Ko'p hollarda sug'urta bozoridagi keskin raqobat, sug'urta tashkilotlarining potentsial mijozlarni jalb etish maqsadida tarif stavkalarini kamaytirishga majbur etadi. Chet mamlakatlarda, sug'urtalovchilar sug'urta faoliyatidan zarar ko'rganda, bu zarar investitsiyadan keladigan daromad hisobidan qoplanadi.

Sug'urta xizmati bahosining yuqori chegarasi talab hajmi va bank foizining miqdori bilan aniqlanadi. Sug'urta xizmatining ma'lum bir turiga etarli darajada talab mavjud bo'lganda, sug'urta tashkiloti mazkur xizmat bahosini yuqori darajada saqlab turishi mumkin. Lekin, vaqt o'tishi bilan bozorda sug'urta xizmati ko'rsatish turlarining ko'payishi bilan, o'z-o'zidan tarif stavkalari kamayadi.

2. Sug'urta bozori hududiy joylashuviga qarab xalqaro, mintaqaviy va milliy sug'urta bozorlariga bo'linadi. Milliy sug'urta bozori biron-bir mamlakat hududidagi sug'urta muassasalarini va ularni faoliyatini o'z tarkibiga oladi. Jahondagi eng yirik milliy sug'urta bozori Amerika Qo'shma shtatlaridir. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda yig'iladigan sug'urta tushumlarining 43

foizdan ortig'ri AQSh hissasiga to'g'ri keladi. Bu erda hayotni sug'urta qiluvchi 2600 dan ortiq va boshqa umumiy turdagi sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi 3800 ta kompaniya faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan ba'zi birlari dunyo sug'urta bozorida ham oldingi o'rinlardadir. Masalan, "Prudenshial of Amerika" kompaniyasi mamlakat ichki bozorida birinchi va 1992 yil boshida mavjud aktivlari, to'plagan sug'urta mukofotlari bo'yicha uchinchi o'rinni egalladi.

Mintaqaviy sug'urta bozori deganda savdo, iqtisodiy va boshqa jihatlardan o'zaro yaqin munosabatda bo'lgan bir nechta mamlakatlarning ichki bozori tushuniladi. Evropa Ittifoqining sug'urta bozori yirik mintaqaviy bozordir.

Xalqaro sug'urta bozori sifatida dunyo miqyosida sug'urta faoliyatini olib boruvchi alohida mamlakatlarning ichki bozori tushuniladi. Jumladan, hozirgi vaqtda Yaponiya sug'urta bozorining xalqaro darajada muxim o'rni bor va keyingi o'n yillikda Yaponiya sug'urtachilari dunyo bozorida etakchilik qilib kelishmoqda. Ma'lumotlarga qaraganda, 1992 yili jahondagi eng yirik 20 ta hayotni sug'urta qiluvchi kompaniyalar ichida 9 tasi yoki 45 foizi Yaponiyaga tegishlidir. Bu kompaniyalarning moliyaviy salohiyati 869 mlrd. doll. miqdorida baholangan.

Sug'urta bozorlari hududiy bo'linish bilan bir qatorda sug'urta turlariga qarab ham xilma-xil bo'lishi mumkin. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar amaliyotida sug'urta bozori ikkiga bo'linadi: 1) Hayotni sug'urta qilish bilan bog'liq sug'urta xizmatlari bozori; 2) Umumiy sug'urta xizmatlari bozori.

3. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu jarayonda sug'urta faoliyati ham rivojlanib, ravnaq topmoqda. Sug'urta instituti bozor infratuzilmasining tarkibiy qismi sifatida uning rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, sug'urta faoliyatida risklar transferi ham o'z navbatida, bozor infratuzilmasining rivojlanganlik darajasiga bog'liqdir.

Shu o'rinda, «infratuzilma» tushunchasi iqtisodiy ilmiy lug'atlarda turlicha: masalan, «asosiy ishlab chiqarish sohalari va aholiga xizmat ko'rsatuvchi iqtisodiy tarmoqlar yig'indisi» yoki «ma'lum tarmoqqa xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqaruvchi va noishlab chiqaruvchi tarmoqlar majmuasi» kabi ma'nolarda qo'llanilishini qayd etish mumkin. Xususan, sug'urta bozori infratuzilmasining mazmun-mohiyatini ochib berishda, iqtisodiyot sub'ektlarining samarali faoliyat yuritishi uchun kafolatli shart-sharoit yaratuvchi faoliyat turlari majmuasi nazarda tutiladi. Ma'lumki, sug'urta mahsuloti sotilishining o'ziga xos jihatlari mavjud va bu jarayon:

- sug'urta riski haqida axborot to'plash va uni aniqlashtirish;
- sug'urta shartnomasini imzolash va uning amal qilishini ta'minlash kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Sug'urta faoliyatida risklar transferining mazkur bosqichlari o'ziga xos bilimni talab etadi. Ayni vaqtda ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra, ma'lum qisqa davr oralig'ida talab etilayotgan mutaxassis kompaniyaning shtatlar birligiga kiritilishi iqtisodiy jihatdan samarasiz hisoblanishi ham mumkin. Shuning uchun kompaniya o'z faoliyatida, odatda boshqa soha mutaxassislari xizmatidan foydalanadi. Demak, ta'kidlash mumkinki, sug'urta bozori infratuzilmasi uning

professional ishtirokchilari va boshqa soha mutaxassislari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar sifatida sug'urta faoliyatida risklar transferining samaradorligini ta'minlovchi omil sanaladi.

Sug'urta bozori infratuzilmasining o'ziga xosligidan kelib chiqib, shuni qayd etish mumkinki, uning tarkibiga sug'urta vositachilari, sug'urtachilar uyushmasi, avariya komissari, syurveyer, aktuariy, sug'urta auditori, maxsus ixtisoslashgan maslahatchilar hamda baholovchi firmalar kabi sub'ektlar kiradi (1-chizma). Shu o'rinda, London sug'urta bozori infratuzilmasi tarkibiga sug'urta anderrayterlari ham kiritilganligini qayd etish mumkin.

1-chizma

Sug'urta bozori infratuzilmasining sub'ektlari



O'zbekiston sug'urta bozorida o'ziga xos o'ringa egadir. Masalan, aktuariy sug'urta xizmatlari narxini aniqlashda qatnashuvchi sub'ekt sanaladi. Bunda, u katta sonlar va ehtimollik qonunlari, shuningdek, statistik ma'lumotlardan foydalanadi. Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta tashkilotlari aktuariy faoliyatisiz sug'urta xizmatlariga iqtisodiy asoslangan narxlarning belgilanishini ta'minlay olmaydi. Aktuariy sug'urta faoliyatini strategik rejalashtirish, sug'urta sohalari, klass(tur)lari, shuningdek, kompaniya bo'yicha sug'urta portfeli tarkibi va sifatining tahlili kabi jarayonlarda ishtirok etadi. Ayrim davlatlarda sug'urta tashkilotining hisoboti uning vakolatli shaxslaridan tashqari aktuariy tomonidan ham tasdiqlanishi talab etiladi.

Sug'urta bozori infratuzilmasining yana bir asosiy sub'ekti bu avariya komissaridir. U sug'urta hodisasi yuz berganidan so'ng shartnoma shartlariga muvofiq amalga oshiriladigan faoliyatda ishtirok etadi. Ta'kidlash mumkinki, avariya komissari sug'urta tashkiloti bilan tuzgan shartnomasi asosida faoliyat yuritadi. U sug'urta tashkilotining vakili sifatida sug'urta hodisasi oqibatida zarar ko'rgan mulkni ko'rikdan o'tkazadi, uning ko'lamini va sabablarini aniqlaydi hamda avariya sertifikatini tuzadi. Ba'zi mamlakatlarda sug'urta tashkiloti tomonidan avariya komissariga ma'lum limit doirasida yo'qolgan mulkni qidirish xarajatlarini amalga oshirish huquqi ham berilishi mumkin.

Mamlakatimizda aksariyat hollarda sug'urta tashkilotining o'zi yoki hodisaning turiga qarab tegishli tashkilot (yo'l patrul xizmati, baholovchi tashkilot va boshqa)lar tomonidan avariya komissarining vazifasi bajarilmoqda. Bu holat, albatta sug'urta xizmatining sifatiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Keyingi yillarda O'zbekiston sug'urta bozori jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Mazkur jarayonda avariya komissari faoliyatining yo'lga qo'yilishi va rivojlantirilishi turli sub'ektlarning sug'urtaga bo'lgan ishonchlari ortishiga omil bo'ladi.

Sug'urta bozori infratuzilmasida avariya komissari bilan «yonma-yon» syurveyer va dispasherlar kabi sub'ektlar ham faoliyat ko'rsatadi. Syurveyer - bu maxsus ekspert bo'lib, u sug'urta ob'ektlarini sug'urta tashkiloti so'roviga asosan ko'rikdan o'tkazuvchi sub'ekt sanaladi. U sug'urtalanuvchi tomonidan ob'ektni ko'rikdan o'tkazish uchun jalb etilishi ham mumkin. Ta'kidlash lozimki, uning avariya komissari bilan o'zaro o'xshash hamda o'ziga xos farqli tomonlari ham mavjud. Bundan tashqari syurveyerining ixtisoslashganlik darajasi odatda avariya komissariga nisbatan yuqori sanaladi. Shuning uchun avariya komissari ham ba'zan syurveyer xizmatidan foydalanadi.

Sug'urta bozorida avariya komissari va syurveyer bilan birgalikda dispasher ham faoliyat ko'rsatishi mumkin. Mazkur faoliyat dengiz sug'urtasi bilan bog'liqligi sababli asosan dengiz bo'yi davlatlarida rivojlangan. Mol-mulk yoki boshqa ob'ektlar dengiz orqali manzilga etkazilish jarayonida yuz berishi ehtimol bo'lgan, turli risklardan sug'urtalanadi. Ma'lumki, dengiz transportida bir necha sub'ektlarning mol-mulki yuklangan hamda ular sug'urtalangan bo'lishi mumkin. Dengizda sug'urta xodisasi yuz berishi oqibatida mulklarning zararlanishi umumiy avariya deb nomlanadi.

Umumiy avariya holatida har bir mulk egasi qancha zarar ko'rganligini aniqlash lozim bo'ladi. Aynan shunday faoliyatni dispasher amalga oshiradi, hamda u ko'rilgan zararni hisoblash va uni xolisona taqsimlash bilan shug'ullanuvchi mutaxassis hisoblanadi. Zararning hisobi bo'yicha tuzilgan xujjat dispasha deb nomlanadi.

Sug'urta bozori infratuzilmasida sug'urta vositachilari professional ishtirokchilar sifatida o'ziga xos o'rinni egallaydi. Ular sug'urtachi va sug'urtalanuvchi o'rtasida vositachilik faoliyatini amalga oshirish borasida muhim sub'ektlar hisoblanadi. Sug'urta vositachilarining tarkibiga sug'urta agentlari, sug'urta va qayta sug'urta brokerlari kabi sub'ektlar kiradi. Xususan, sug'urta agenti bu sug'urta tashkilotining nomidan yoki uning topshirig'iga binoan sug'urta

shartnomasining tuzilishi va uning ijro etilishini tashkil etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir. Sug'urta brokeri esa sug'urtalanuvchining nomidan yoki uning topshirig'iga asosan shartnomani tuzish va uning amal qilishi bilan bog'liq faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs hisoblanadi. Sug'urta vositachilari sug'urta mahsulotini sotish bo'yicha maxsus tizimga ega bo'lib, sug'urta bozorining o'ziga xos infrastrukturasini tashkil etadi.

Sug'urtachilar uyushmasi unga a'zo bo'lgan sub'ektlarning manfaatlariga xizmat qilish maqsadida (masalan, 1985 yildan boshlab faoliyat ko'rsatayotgan Britaniya sug'urtachilar assotsiatsiyasi singari) tashkil etilishi mumkin bo'lgan sug'urta bozori infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi sanaladi. Mazkur uyushma (assotsiatsiya) ning vazifasi keng ko'lamli bo'lib, u sug'urta sohasiga oid bilimlarni ommalashtirish, maxsus bukletlar, statistik ma'lumotlarni nashr etish kabi yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadi.

Sug'urta bozori infratuzilmasida auditorlik tashkilotlari ham o'ziga xos o'ringa ega. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 mayda qabul qilingan «Auditorlik faoliyati to'g'risida» gi Qonuniga muvofiq sug'urta tashkilotlari ham auditorlik tekshiruvdan o'tishlari majburiy qilib belgilab qo'yilgan. Auditorlik tekshiruvi sug'urta tashkilotining so'roviga asosan amalga oshiriladi. Uning natijasiga ko'ra, auditor sug'urta tashkilotining moliyaviy ahvoli yuzasidan o'z xulosasini beradi. Mazkur xulosada sug'urta tashkilotining moliyaviy holati aks ettiriladi. Sug'urta tashkiloti auditor taqdim etgan xulosadan kelib chiqib, o'zining moliyaviy holatini yaxshilash strategiyasini ishlab chiqadi hamda uni amalga oshiradi.

Sug'urta faoliyati o'ziga xos xususiyatlarga ham ega bo'lib, maxsus (masalan, tijorat banklari buxgalteriyasi kabi) buxgalteriya hisobini yuritish tartibini ishlab chiqishni talab etadi.

Shuni qayd etish lozimki, sug'urta faoliyatini tekshiruvchi auditor bu soha yuzasidan maxsus bilimga ega bo'lmasa, tomonlar o'rtasida kelishmovchilik yuzaga kelishi mumkin. Shu sababdan, sug'urta faoliyatini rivojlantirishda uning o'ziga xos bo'lgan buxgalteriya hisobini yuritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan tashqari maxsus ixtisoslashgan maslahatchilar ham sug'urta bozori infratuzilmasining sub'ekti sifatida faoliyat yuritishlari mumkin. Mazkur sub'ektlar jumlasiga ixtisoslashgan va keng qamrovli maslahat byurolari, advokatlik hamda baholovchi firmalarni kiritish mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash mumkinki, mamlakatimizda maslahatchilik xizmatining rivojlanganlik darajasi hozirda yuqori emas va mazkur mutaxassislar sug'urta faoliyatida deyarli ishtirok etishmayapti.

O'zbekistonda 2004 yilning yakuniga ko'ra, sug'urta mukofotlari 32,9 mlrd. so'mga yaqin summani tashkil etdi. 2005 yil bu ko'rsatkichning yanada ortishi kutilmoqda. Bu ko'rsatkichlar O'zbekiston sug'urta bozorining jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotganidan dalolat beradi. Mamlakatimizda sug'urta bozorini yanada rivojlantirish uning xizmatlari ko'lamini kengaytirishni hamda ularning sifatini oshirishni taqozo etadi.

Xalqaro tajribani o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, bozor infratuzilmasi sug'urta bozori infratuzilmasini shakllantirish bilan bir butunlikda kechadigan

jarayondir. O'zbekistonda sug'urta bozori infratuzilmasining shakllantirilishi birmuncha o'zgacha tarzda kechmoqda.

Sug'urta bozori infratuzilmasida alohida mustaqil faoliyat ko'rsatishi lozim bo'lgan sug'urta vositachilari, auditorlari, sug'urta ob'ektlarini baholovchi(ekspert)lar hamda boshqa sub'ektlar, xorijiy amaliyotdagidan farqli ravishda, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlarining o'ziga birlashtirilgan. Garchi, sug'urta bozori infratuzilmasining rivojlanishi sust kechayotgan bo'lsada, sug'urta tashkilotlarining o'z infratuzilmasini rivojlantirishga bo'lgan harakatlari ko'zga tashlanmoqda. Xususan, bu borada «O'zbekinvest» EIMSKning etakchi bo'layotganini, uning qoshida «Sug'urta olami» nomli sug'urta biznesini o'qitish va «Innovatsiya va sug'urta xizmatlarini rivojlantirish» markazlari, «O'zbekinvest Eksinform» marketing hamda «O'zbekinvest Assistans» servis agentliklari «O'zbekinvest Sarmoyalari» investitsion kompaniya shuningdek, boshqa sho'ba korxonalar samarali faoliyat ko'rsatayotganligini qayd etish mumkin.

Sug'urta bozori infratuzilmasini shakllantirish va uning sub'ektlari faoliyatining me'yoriy-xuquqiy bazasini takomillashtirish O'zbekistonda sug'urta bozori taraqqiyotini yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqadi. Xususan, mamlakatimizda sug'urtachilar uyushmasini tashkil etish, aktuariy, syurveyer kabi sub'ektlarning faoliyatini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'kidlash joizki, bu jarayon sug'urta bozori infratuzilmasi sub'ektlarining alohida ixtisoslashuvini hamda ularning faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirishni taqozo etadi.


4. Sug'urta tashkilotlarining faoliyati boshqa turdagi xujalik sub'ektlari faoliyatidan keskin farq qiladi. Chunki, ular ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlashda va sug'urta hodisalari ro'y berganda etkazilgan zararni qoplash uchun xizmat qiladilar. Bu holat, sug'urtachilar zimmasiga alohida mas'uliyat yuklaydi va shuning uchun, ular davlat tomonidan nazorat ostiga olinmog'i zarurdir.

Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish shakllari. Sugurta faoliyatini davlat tomonidan nazoratga olishni shartli ravishda uchga bulish mumkin (1-chizmaga qarang).

Xorijiy mamlakatlar tajribasining ko'rsatishicha, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarning barchasida sug'urta bozori davlatning vakolatli idoralari tomonidan tartibga solib boriladi.

1-chizma

Sug'urta faoliyatini nazorat qilish shakllari



Masalan, Buyuk britaniyada sug'urta ishini Savdo va sanoat departamenti, Yaponiyada Moliya vazirligining sug'urta bulimi, AQShda esa maxsus sug'urta komissariatlari nazorat qilib boradi. Davlat, bunday nazorat ishini olib borar ekan, avvalo, mamlakatning sug'urta sohasiga taalluqli qonunlariga hamda boshqa me'yoriy hujjatlariga asoslanadi. Sug'urta va qayta sug'urtalash kompaniyalari, sug'urtaga ixtisoslashgan vositachilar davlat sug'urta nazoratining ob'ektlari hisoblanadi.

5. Sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solish turli shakllarda, xususan, maxsus qonunlar qabul qilish, soliq solish, alohida hukumat qarorlari bilan majburiy sug'urtalashni joriy qilish va vakolatli sug'urta nazorati xizmatini tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Sug'urta bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga litsenziyalar (ruxsatnomalar) berish sug'urta nazorati xizmatining eng asosiy vazifalaridan biridir. Litsenziya (ruxsatnoma) berish jarayonida sug'urta nazorati sug'urtachining bo'lajak faoliyatini dastlabki tekshiruvdan o'tkazadi. Ya'ni, nizom jamg'armasi va o'z mablag'larining holati hamda bu mablag'larning tashkilot zimmasidagi majburiyatlariga o'zaro munosabati ko'rib chiqiladi. Sug'urta faoliyatiga litsenziya (ruxsatnoma) berishning zaruriyati sug'urtaning o'z mohiyatidan kelib chiqishini unutmaslik kerak. Chunki, sug'urta tashkiloti sug'urta hodisasi yuz bergan vaqtda sug'urtalanuvchiga shartnomada ko'rsatilgan mablag'ni o'z vaqtida to'lashi lozim. Sug'urta faoliyatini nazorat qiluvchi organning bu boradagi ishlari nafaqat sug'urtalanuvchilar manfaatiga mos tushadi, balki butun davlatning manfaatlari yo'lida ham xizmat qiladi.

E'tirof etish lozimki, bugungi kunda mamlakatda sug'urta faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziya (ruxsatnoma) berish tartibi ishlab chiqilgan. Sug'urta tashkilotiga beriladigan litsenziya (ruxsatnoma) sug'urtalashning har bir turi yoki bir-biriga yaqin bo'lgan sug'urta turlari guruhlar uchun beriladi. Chunki, ba'zi sug'urta turlari bo'yicha operatsiyani amalga oshirish sug'urtalovchida etarli darajada moliyaviy mablag'lar bo'lishini talab etadi. Bundan tashqari, sug'urta kompaniyasi ishlab chiqqan biznes-rejada sug'urta tarifi stavkalarini to'g'ri hisoblanishiga alohida e'tiborni qaratish zarur. Negaki, noto'g'ri hisob-kitob qilingan tarif, pirovard natijada, sug'urta tashkilotini moliyaviy barqarorliksizga yoki to'lov qobiliyatini yomonlashuviga olib keladi. Nazarimizda, faqat sug'urta kompaniyalarini emas, balki, qayta sug'urtalashga ixtisoslashgan tashkilotlar va vositachilik idoralarini ham faoliyatini litsenziyalashni kiritilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Biz mamlakatimizda sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solishni tashkil etish va uni takomillashtirish yo'llari haqida o'ylar ekanmiz, yaqin qo'shni mamlakatlar, xususan, Rossiya Federatsiyasida bu sohada olib borilayotgan ishlar haqida biroz to'xtasak, foydadan xoli bo'lmaydi.

Bugungi kunda, Rossiya Federatsiyasida 1500 dan ortiq sug'urta tashkiloti faoliyat ko'rsatmoqda va ularning aksariyati sug'urta faoliyatini nazorat qiluvchi Federal xizmatning litsenziyalariga ega. Sug'urta faoliyatini nazorat qiluvchi bu tashkilot 1992 yilda tashkil etilgan bo'lib, u Rossiya sug'urta bozorini tartibga keltirish bo'yicha etarli tajribaga ega bo'ldi, o'nlab me'yoriy hujjatlar ishlab chiqdi. Ulardan eng muhimlari "Rossiya xududida faoliyat ko'rsatuvchi sug'urta tashkilotlariga litsenziyalar berish tartibi", "Sug'urta zahiralarini joylashtirish tartibi" va hokazolardir. Mazkur tashkilot o'zini qattiqqo'lligi va boshqa harakatlari tufayli Rossiya ijtimoiy-iqtisodiy hayotida katta nufuzga egadir. Eng asosiysi, sug'urta nazorati xizmati har yili Rossiya hududida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalarining etarli darajada kuchlilarini reyting asosida aniqlab, keng xalq ommasiga ma'lum qilib boradi.

O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, sug'urta tashkilotlari sug'urtalanuvchi oldidagi majburiyatini bajara olmay qolganda, davlat sug'urta nazorati xizmati, mijozlarning manfaatini ko'zda tutadigan choralar ko'rishi kerak. Bozorda ko'plab sug'urta tashkilotlari faoliyat ko'rsatadi, tabiiyki, bu holat potentsial mijozlarni jalb qilish uchun ular o'rtasidagi raqobatni ham kuchayishiga olib keladi. Natijada, raqobatga bardosh bermagan ba'zi sug'urta kompaniyalari "sug'urta maydonidan" chiqib ketadi. Bunga jahon tajribasidan ham misollar keltirish mumkin. Jumladan, 1993 yil boshida AQShda 103 ta fuqarolar hayotini sug'urtalashga ixtisoslashgan kompaniyalar to'lov qobiliyatini yo'qotgan, deb e'lon qilindi. Qizig'i shundaki, bu kompaniyalar ichida moliyaviy jihatdan ishonchli bo'lgan "Ekzekyutiv Layf Inshuerans" kompaniyasi ham bor. Mutaxassislar tomonidan uning aktivi bir necha milliard AQSh dollariga baholangan. Bu erda, shunday o'rinli savol tug'ilishi mumkin. Xo'sh, xalqaro sug'urta bozorida kuzatilgan yuqoridagidek holat ro'y bermasligi uchun, davlat qanday chora-tadbirlar ko'rishi mumkin?

Birinchidan hukumat o'zining tegishli nazorat organi orqali, sug'urta kompaniyalari tomonidan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablarini qat'iy bajarilishini, shu jumladan, sug'urta zahiralarini to'g'ri joylanishini nazorat qilib borish muhimdir. Ikkinchidan, endi shakllanayotgan O'zbekiston sug'urta bozoriga moliyaviy jihatdan mustahkam xorijiy sug'urta kompaniyalarining kirib kelishini tartibga solish kerak. Negaki, bu holat mahalliy sug'urta kompaniyalarining raqobat bardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularni bankrot bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Sug'urta tashkilotlari o'z zimmasiga olgan majburiyatlari hajmiga qarab, ma'lum foiz ajratish yo'li bilan markazlashgan sug'urta jamg'armasini tashkil etsalar, maqsadga muvofiqdir. Ushbu jamg'arma mablag'lari qiyin holatga tushib qolgan sug'urta tashkilotlariga beriladigan yoki ular bankrot deb e'lon qilinganda majburiyatlarini bajarishi uchun xizmat qiladi. Bizningcha, bu jamg'arma tashkil etilajak davlat sug'urta nazorati xizmati tomonidan, sug'urtalovchilar uyushmasi vakillarini jalb qilgan holda boshqarilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 15-moddasida sug'urta faoliyatini litsenziyalash masalalari ko'rsatib

o'tilgan. Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda maxsus vakolatli davlat organi beradigan litsenziyalar asosida amalga oshiriladi.

Litsenziya sug'urtalovchiga hayotni sug'urta qilish sohasida yoxud umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun beriladi. Hayotni sug'urta qilish sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug'urtalovchi umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas, umumiy sug'urta sohasining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan ayrim turlari (klasslari) bundan mustasnodir. Umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug'urtalovchi hayotni sug'urta qilish sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas.

Litsenziyada sug'urtalovchi amalga oshirishni nazarda tutayotgan sug'urta turlari (klasslari) ko'rsatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlanlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaroriga asosan sug'urta faoliyati klassifikatori tasdiqlangan. Unda hayotni sug'urta qilish tarmog'i 4 ta klassdan, umumiy sug'urta tarmog'i 17 ta klassdan iborat ekanligi ko'rsatilgan.

Sug'urtalovchining litsenziyasi amal qilishining to'xtatib turilishi uning yangi sug'urta shartnomalari tuzishi taqiqlanishiga, shu jumladan amaldagi sug'urta shartnomalari uzaytirilishining taqiqlanishiga sabab bo'ladi. Bunda sug'urtalovchi ilgari tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini belgilangan tartibda bajarishga majburdir. Litsenziyaning amal qilishi tugatilgan kundan e'tiboran besh kun ichida maxsus vakolatli davlat organi sug'urtalovchini tugatish to'g'risidagi ariza bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga murojaat etishi shart.

Sug'urtalovchining ilgari amal qilgan boshqaruv organlarining vakolatlari to'xtatib turiladi va maxsus vakolatli davlat organi tomonidan tayinlagan sug'urtalovchining muvaqqat ma'muriyatiga o'tadi. Muvaqqat ma'muriyat sud qaror chiqargunga qadar bo'lgan davrda o'z faoliyatini amalga oshiradi. Sug'urtalovchi muvaqqat ma'muriyatining hisoboti maxsus vakolatli davlat organiga hamda sug'urtalovchini tugatish to'g'risida maxsus vakolatli davlat organining arizasi yo'llangan sudga taqdim etiladi. Sug'urtalovchining muvaqqat ma'muriyati o'z faoliyati davrida xarajat operatsiyalarini amalga oshirishga haqli emas, sug'urtalovchining boshqaruv xarajatlari (ma'muriy xarajatlari), sug'urtalovchiga tushayotgan pullarni hisobga yozish va ilgari tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta hodisalari yuz berganda sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash bilan bog'liq hollar bundan mustasnodir. Sug'urtalovchi muvaqqat ma'muriyatining ishlash tartibi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi. Ushbu moddaning qoidalari sug'urtalovchining arizasiga binoan litsenziya bekor qilingan hollarga, shuningdek uning muassislari (ishtirokchilari)ning yoki ta'sis hujjatlarida shunday vakolat berilgan sug'urtalovchining boshqaruv organi qaroriga binoan qayta tashkil etilishi yoxud tugatilishiga taalluqli emas.

Sug'urtalovchi ustav fondining kamida to'qson foizi muassislarning pul mablag'laridan shakllantiriladi. Sug'urtalovchining ustav fondini shakllantirish

uchun kreditga, garovga olingan mablag'lardan va boshqa jalb qilingan mablag'lardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Sug'urtalovchining ustav fondi litsenziya olinadigan paytga qadar sug'urtalovchining muassislari tomonidan to'langan bo'lishi kerak.

6. Vazirlar Mahkamasining "Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash to'g'risida Nizom tasdiqlandi. Unga ko'ra, sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya talabgorlari bo'lishlari mumkin. Sug'urtalovchi va sug'urta brokerining sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaning amal qilish muddati, qoidaga ko'ra, cheklanmaydi. Litsenziyaning amal qilishi litsenziya berilgan kundan boshlanadi.

Sug'urta tashkilotlari litsenziya olishlari uchun quyidagi talab va shartlarga javob berishlari zarur:

- O'zbekiston Respublikasining sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilish;

- sug'urta faoliyatini amalga oshirishda olingan axborotlarning qonun hujjatlari talablariga muvofiq maxfiylikini ta'minlash;

- litsenziyalovchi organ talabiga ko'ra sug'urta faoliyatini amalga oshirishga doir qonun hujjatlarida belgilangan axborotlarni taqdim etish;

- litsenziya talabgori rahbari oliy ma'lumotga hamda sug'urta sohasida kamida ikki yillik ish stajiga ega bo'lishi kerak;

- litsenziya talabgori (litsenziat) rahbari boshqa sug'urta tashkilotlarida rahbar lavozimini egallashga haqli emas.

a) sug'urtalovchilar uchun:

ustav fondining qonun hujjatlarida belgilangan eng kam miqdorining mavjud bo'lishi;

b) sug'urta brokerlari uchun:

sug'urta brokerining sug'urta faoliyatini amalga oshirishda shartnoma majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlash;

sug'urta shartnomasining litsenziat mijozi uchun qulay shartlarda tuzilishi va bajarilishi;

sug'urtalashga doir vositachilik faoliyatini asosiy faoliyat turi sifatida amalga oshirish.

Litsenziya olish uchun sug'urta kompaniyasi litsenziyalovchi organga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

a) sug'urtalovchilar uchun:

yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, uning joylashgan joyi (pochta manzili), bank muassasasining nomi va bankdagi hisob raqami, yuridik shaxs amalga oshirishni mo'ljallayotgan litsenziyalanadigan faoliyat turi hamda ko'rsatib o'tilgan faoliyat turi amalga oshiriladigan muddat ko'rsatilgan litsenziya berish to'g'risida ariza;

yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi;

rahbar to'g'risidagi ma'lumotlar (oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom nusxasi va mehnat daftarchasidan ko'chirma);

litsenziya talabgori tomonidan litsenziya talabgorining arizasi litsenziyalovchi organ tomonidan ko'rib chiqilganligi uchun yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjat;

ustav fondining belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan ustav kapitali to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar (bank ma'lumotnomasi, mol-mulkni qabul qilish-topshirish dalolatnomalari va boshqa hujjatlar);

sug'urta faoliyatining iqtisodiy asoslanishi, unga sug'urtalash operatsiyalarini rivojlantirish prognozini, ehtimol tutilgan qayta sug'urtalash bitishuvlari rejasini, sug'urta zahiralarning hisob-kitob rejasini o'z ichiga oluvchi litsenziyalanayotgan sug'urta klassi bo'yicha biznes-reja kiradi;

sug'urtalashning litsenziya talab qilinadigan turlari bo'yicha qoidalar (shartlar), litsenziyada quyidagilar bo'ladi: sug'urtalash sub'ektlari doirasini belgilash va sug'urta shartnomasi tuzish bo'yicha cheklashlar, sug'urta ob'ektlarini belgilash, sug'urta hodisalari ro'yxatini belgilash - ushbu holatlar ro'y berganda sug'urtalovchining sug'urta to'lovlari bo'yicha majburiyatlari paydo bo'ladi, (asosiy va qo'shimcha shartlar), olib qo'yish (tavakkalchilarning yoki mol-muklarni) bunda sug'urtalovchi majburiyatlarni bajarmasdan ozod bo'ladi, sug'urta mukofotlari tariflari (stavkalari), sug'urtalashning eng ko'p (eng kam) muddati, sug'urta shartnomalarini tuzish va sug'urta mukofotlarini to'lash tartibi, tomonlarning sug'urta shartnomasi bo'yicha o'zaro majburiyatlari va sug'urta shartnomalari bo'yicha to'lovni rad etishning mumkin bo'lgan holatlari sug'urta shartnomasi bo'yicha e'tirozlarni ko'rib chiqish tartibi. Qoidalarga sug'urta shartnomalari namunalari ilova qilinishi kerak. Litsenziya talabgori rahbari tomonidan tasdiqlangan sug'urtalash qoidalari (shartlari) ikki nusxada taqdim etiladi, ularning betlari tikilgan va raqamlangan bo'lishi kerak. Faoliyat turi faqat qayta sug'urta qilishdan iborat bo'lgan litsenziya talabgorlari mazkur bandda ko'rsatib o'tilgan hujjatlarni taqdim etadilar, sug'urtalash qoidalari (shartlari)ga oid xat boshi bundan mustasno.

b) sug'urta brokerlari uchun:

yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, uning joylashgan joyi (pochta manzili), bank muassasasining nomi va bankdagi hisob raqami, yuridik shaxs amalga oshirishni mo'ljallayotgan litsenziyalanadigan faoliyat turi (uning bir qismi) hamda ko'rsatib o'tilgan faoliyat turi amalga oshiriladigan muddat ko'rsatilgan litsenziya berish to'g'risida ariza;

yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi;

litsenziya talabgori tomonidan litsenziya talabgorining arizasi litsenziyalovchi organ tomonidan ko'rib chiqilganligi uchun yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjat;

ustav kapitali to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar (bank ma'lumotnomasi, mol-mulkni qabul qilish-topshirish dalolatnomalari va boshqa hujjatlar).

Ko'rsatib o'tilgan hujjatlar bir nusxada taqdim etiladi.

Litsenziya talabgorining arizasi ko'rib chiqilganligi uchun O'zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam oylik ish haqining besh baravari miqdorida yig'im undiriladi. Ariza ko'rib chiqilganligi uchun yig'im summasi litsenziyalovchi organning maxsus hisob raqamiga o'tkaziladi. Litsenziya talabgori berilgan arizadan voz kechgan taqdirda to'langan yig'im summasi qaytarilmaydi.

Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi (1-ilovaga qarang). Ilova keltirilgan sxemadan ko'rinib turibdiki, sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash jarayoni 6 ta bosqichni o'z ichiga olib, dastlab litsenziya talabgori zarur hujjatlarni tayyorlaydi va uni ko'rib chiqish uchun Moliya vazirligiga taqdim etadi. Keyingi bosqichda hujjatlar Moliya vazirligi tomonidan qabul qilinadi va ko'rib chiqish uchun ekspert komissiyaga beriladi. Ekspert komissiyasi taqdim etilgan hujjatlarni batafsil o'rganib chiqib, sug'urtalovchiga yoki sug'urta brokeriga litsenziya berish yoxud litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Shunday qilib xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda sug'urta nazorati davlat organiga yuklatilgan sug'urta faoliyatini litsenziyalash vakolati, pirovardida, barcha sug'urtalanuvchilarning, ya'ni sug'urta kompaniyalari mijozlarining qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Bunday tizimining yaratilganligi nafaqat sug'urtalanuvchilarning, balki davlatning manfaatlariga mos keladi.

6-mavzu: Sug'urta tashkiloti moliyasi

REJA:

1. Sug'urta tashkilotining daromadlari va ularning guruhlanishi.
2. Sug'urta tashkilotining xarajatlari va ularning tarkibi.
3. Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy natijani shakllanishi.
4. Sug'urta tashkilotlarini investitsion faoliyati va uning mazmun-mohiyati.
5. Investitsion faoliyatda mavjud risklar haqida tushuncha va unga noqulay omillarning ta'siri.

1. Sug'urta tashkiloti hayotni sug'urta qilish borasida tuzilgan har bir shartnomada turli darajadagi sug'urta tarifini qo'llashi yoki daromadlilik me'yorini har bir shartnoma bo'yicha mustaqil ravishda hisoblab chiqishi va belgilashi mumkin. Hayotni sug'urta qilish klasslari bo'yicha daromadlilik me'yorlari qat'iy belgilangan bo'lishi, uning tarif stavkalariga o'zgarishlar kiritish esa, davlatning vakolatli organi bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi lozim.

Sug'urta tashkilotlarida asosiy daromad va xarajatlari hisobi o'ziga xosligi bilan farq qiladi. Sug'urtani amalga oshirish, qonunchilikda man etilmagan boshqa faoliyat bilan shug'ullanish natijasida hisob raqamiga kelib tushgan pul


mablag'larining jami uning daromadi hisoblanadi.

Sug'urta tashkiloti daromadlarini guruhlashning turli variantlari mavjud. Ular ichida manbalarga ko'ra, olingan daromadlarni uch guruhga bo'lishga asoslangan variant keng qo'llaniladi (1-chizma):

a) sug'urta faoliyatidan olingan daromadlar. Sug'urta operatsiyalarini amalga oshirishdan olingan daromadlar sug'urtachi daromadlarining asosiy manbai hisoblanadi.

Bu daromadlarning asosiy qismi sug'urta shartnomalari bo'yicha undirilgan mukofotlar hisobiga shakllantiriladi. Sug'urta tashkilotining mukofot tushumlari hajmiga sug'urta majburiyatlari portfelining tarkibi va tuzilishi, tarif siyosati, marketing strategiyasi hamda boshqa qator omillar o'zaro bog'liqlikda ta'sir etadi. Masalan, ishlab chiqilgan marketing strategiyasini unga mos bo'lgan tarif siyosatisiz amalga oshirib bo'lmaydi, o'z navbatida, muvaffaqiyatli amalga oshirilgan marketing strategiyasi sug'urta portfeli balanslashuvini ta'minlaydi va aksincha.

Sug'urta tashkilotlari daromadlarining manbalari va tarkibi



Sug'urta tashkilotining mukofot tushumlariga bozor kon'yunkturasi, inflyatsiya sur'ati, me'yoriy qonunchilik bazasi, amaldagi soliqqa tortish tizimi, sug'urta bozorining monopollashganlik darajasi, kredit foizi dinamikasi, mamlakatdagi ijtimoiy himoyaning holati va boshqa qator omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Yuqorida sanab o'tilgan omillar ta'sirining qandayligidan qat'iy nazar amaliyotda sug'urta tashkilotining mukofot tushumlari oqimi ortishi yoki kamayishi hodisasi kuzatiladi.

O'zaro kelishuv shartnomasiga muvofiq sug'urta tashkiloti sug'urta riskining ma'lum ulushi bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Bu jarayonda u sug'urta operatsiyalarini birgalikda sug'urtalash mexanizmi orqali sug'urta mukofotining mos bo'lgan qismi o'z hisobiga o'tkazilishidan ham daromad olishi mumkin.

Sug'urta tashkilotining yana bir daromad manbai qayta sug'urta tizimida qatnashish orqali mukofotlar ulushini undirishdir. Bu ulushning qanday kattalikda bo'lishi qayta sug'urtalashning rivojlanganlik darajasi, unga bo'lgan talab, qayta sug'urtalovchilarning kasbiy etukligi kabi omillar hamda birlamchi sug'urta bozori ko'lami, sug'urta risklarining hajmi kabilarning ta'siriga bog'liqlikda kechadi.

Sug'urta tashkiloti qayta sug'urtalashni amalga oshirish huquqiga ega bo'lsa, u sug'urta hodisasi yuz berganda shartnoma shartlariga binoan qayta sug'urtalashga o'tkazilgan risklar bo'yicha zarar qoplamasidagi ulushini ham

undirib oladi.

Sug'urta tashkiloti vositachilik vazifasini ham bajarishi mumkin. Masalan, riskni qayta sug'urtalashga o'tkazish jarayonida sug'urtachi vositachilik haqini undirib oladi. Sug'urta tashkiloti ayrim holatlarga ko'ra, riskni boshqa sug'urtachiga siylov etishi orqali vositachilik va brokerlik rag'batlantirishlarini olishdan ham daromad ko'rishi mumkin.

Teng ulushdagi qayta sug'urtalash shartnomasida qayta sug'urtachiga tantem to'lovlari ham nazarda tutilishi sug'urtachining qayta sug'urtalovchining foydasida o'z ulushiga ega bo'lishi shaklidir.

B) investitsiya joylashtiriluvidan olingan daromadlar. Sug'urta tashkilotining ushbu faoliyati to'g'ridan-to'g'ri sug'urta faoliyati bilan bog'liq emas. Sug'urtachining investitsiya joylashtirish imkoniyati sug'urta mukofotlari hisobidan yuzaga keladi. Odatda, sug'urta mukofotlari ma'lum vaqt oralig'ida sug'urtachi ixtiyorida bo'lishi davrida amaldagi me'yoriy qoidalarga asoslanib, daromad aktivlariga joylashtirilishi unga investitsiya daromadlarini keltiradi. Investitsiya imkoniyatlari bo'yicha uzoq muddatga hayotni sug'urtalash zaxiralari ko'proq manfaatlidir.

Sug'urta tashkilotining investitsiya faoliyatidan oladigan daromatlari tarkibi:

- bank jamg'armalari foizlari;
- aktsiyalardan dividend foizlari;
- qimmatli qog'ozlardan daromadlar;
- ko'chmas mulkdan olingan daromadlar kabilardan iborat bo'ladi.

Bu faoliyatning ahamiyatli jihati shundaki, sug'urtachi o'z mijozlariga bonus to'lovlarini aynan investitsiya joylashtiriluvidan oladigan manbalari hisobidan to'laydi.

Investitsiya bozorlari rivojlangan mamlakatlarda ushbu faoliyatdan sug'urtachining olgan daromatlari ayrim sug'urtalash turlari bo'yicha sug'urta operatsiyalarini amalga oshirishda yuzaga kelgan zararlarni qoplash imkoniyatini bermoqda.

Shu nuqtai nazardan sug'urta tashkiloti investitsiya faoliyatini samarali olib borishi uning daromad manbalari tarkibida muhim ahamiyat kasb etadi.

V) sug'urta tashkilotining boshqa daromatlari. Sug'urtachi sug'urta operatsiyalarini amalga oshirishi va investitsiya joylashtiriluvidan tashqari boshqa faoliyatdan ham daromad olishi mumkin.

Bunday daromadning manbalari:

- depo mukofotlar hisobiga o'tkazilgan foiz summalari;
- regress tartibida olingan summalar;
- asosiy fondlar, moddiy boyliklar va boshqa aktivlarni sotishdan olingan foyda;
- ijarachilik faoliyatidan olingan daromadlar;
- sug'urta zaxiralarining qaytim summalari;
- o'qitish, maslahat ishlarini olib borish bo'yicha undirilgan to'lovlar hisoblanadi.

Sug'urtachining sug'urta xizmatlarini sotuvdan tashqari olgan daromadlari asosan o'z filiallariga ish qog'ozlarini (hisobot blanklari va shu kabilarni) tayyorlab berish, ularning yangi «mahsulot»ini reklama qilish kabilar hisobiga olinadi. Ayrim hollarda ular ijara munosabatlari orqali ham shakllantiriladi. Sug'urtachining sotuvdan tashqari daromadlarini hajmi sug'urta tashkilotining kattaligiga bog'liqdir.

Sotuvdan tashqari daromadlarni olish uchun amalga oshirilgan xarajatlarni sug'urta faoliyatiga yoki sug'urtadan boshqa faoliyatga taalluqli ekanligini aniqlash murakkab kechadi. Shuningdek, sug'urta tashkiloti ma'lum bir sug'urta turi bo'yicha sug'urtalashni amalga oshirmayotgan bo'lsa-da, uni yo'lga qo'yish yuzasidan xarajatlarni sotuvdan tashqari daromadlari hisobiga bajaradi.

Ma'lumki, sug'urtada risklar transformatsiyasi jarayonida hamda bosh tashkilot va filiallar (yakuniy moliyaviy natija balansi yoki hisob raqamiga egaligiga ko'ra) o'rtasida mas'uliyat taqsimotining mexanizmi turlichadir.

Sug'urta faoliyati – sug'urta hodisasi yuz berishi oqibatida sug'urtalanuvchining zararini qoplash bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos iqtisodiy faoliyat turidir. Sug'urta hodisasi yuz berishi yoki bermasligiga ko'ra qoplama to'lashning ilmiy asoslanganlik (o'rganilgan, hisoblangan, aniqlangan) me'yorini belgilash va ko'rilgan zararni sug'urta tashkilotining zaxira fondidan to'lash maqsadga muvofiqdir.

Sug'urta hodisasining yillar bo'yicha yuz berishi ehtimolligi turlichadir. Ayrim aniq bir yilda bu hodisalarning soni ko'p bo'lishi ham mumkin. Aynan shu yil bo'yicha sug'urta tashkilotining faoliyati zarar bilan tugashi mumkin. Zaxira fondining mablag'i etishmasligi holatida sug'urta tashkilotida qolgan daromad hisobidan uning har yilgi zaxira fondiga ajratma me'yorini qayta ko'rib chiqish zarur. Statistik ma'lumotlarga asoslanib, qayd etish kerakki, sug'urtaning ko'p turlari bo'yicha amalga oshirilgan sug'urta qoplamasi undirilgan mukofotlari summasiga nisbatan past foizlarni tashkil etadi. Shunga asoslanib, tariflarni oshirish emas, balki uning tarkibini o'zgartirish mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Qayta sug'urtalash shartnomasini tuzishda qayta sug'urtalovchi (xalqaro terminda «tsedent») qayta sug'urtalash mukofotining ma'lum qismini yoki hammasini deponentga o'tkazishi nazarda tutilishi mumkin. U shartnoma davri tugashi hamda sug'urta hodisasi yuz bermagan taqdirda mazkur mukofotlar hisobidan olingan depo foizlari bilan birgalikda qayta sug'urtalovchi hisobiga o'tkaziladi. Uning hajmi (foizda) shartnomada qayd etilgan bo'ladi.

Shunday kafolat berilishi qayta sug'urtalash mukofotlarini moliyaviy zaxira sifatida ishlatish imkoniyatini oshiradi.

Fuqarolik qonunchiligiga binoan sug'urta tashkiloti o'z mijozi manfaatlarini himoya qiluvchi vakil sifatida sug'urta hodisasiga sababchi bo'lgan aybdor shaxsga regress da'vo qilish huquqiga ham egadir. Odatda regress tartibidagi summa sug'urtachi o'z kafilligini bajarib bo'lganidan keyin undiriladi. Bunday faoliyat natijasida undirilgan summa sug'urta tashkilotining sug'urta ta'minoti to'lovlari bo'yicha xarajatlarini qoplash uchun manba hisoblanadi.

Sug'urta tashkiloti xo'jalik yurituvchi sub'ekt sifatida o'z faoliyatida

foydalanilayotgan asosiy fondlarini sotish huquqiga egadir. Shunda faoliyat bo'yicha sug'urtachining foydasi asosiy fondni sotishdan olgan tushum summasi bilan mulkning balans (qoldiq) bahosida hisobdan chiqarish summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Sug'urta tashkilotining mulki ijaraga berilishi mumkin. Masalan, ko'chmas mulk ob'ektlari hamda asosiy fondlardan ayrim hollarda ijara ob'ekti sifatida foydalaniladi. Bu faoliyat natijasida undirilgan ijara to'lovi ham sug'urtachining daromadi hisoblanadi.

Sug'urta tashkilotining yana bir daromad manbai o'qitish, maslahat ishlari uchun undirilgan to'lovlar summasi, shuningdek, risk-menejment bo'yicha xizmatlar ko'rsatishi, dastur «mahsulot»larini o'rnatib berishi kabilar hisoblanadi. Bu daromadlar sug'urtaga to'g'ridan-to'g'ri daxldor bo'lmasa-da, ammo u bilan uzviy bog'liqlikda shakllanadi.

Sug'urta tashkiloti daromadining shakllanish mexanizmi, tarkibi va tuzilishini o'rganish uning o'ziga xos faoliyat turi ekanligini namoyon etadi.

2. Sug'urtachining jami mablag'lar sarfi sug'urta «mahsulot»i tannarxini tashkil etadi. U amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi hamda sug'urtachi xarajatlarning tarkibini belgilashi uchun asos hisoblanadi. Soliqqa tortish bazasini aniqlashda sug'urtachining jami xarajatlari va ularning tarkibini aniqlashtirish ham talab etiladi.

Sug'urta tashkiloti xarajatlarining tarkibi ham xilma-xildir (2-chizma). Sug'urta tashkilotining xarajatlari sakkiz turdan iborat bo'lib, har bir tur o'z navbatida, asosiy va maqsadli faoliyat hamda xarajatlarning amalga oshirilishi vaqtiga qarab guruhlanadi. Sug'urta tashkiloti xarajatlarining turlariga to'xtaladigan bo'lsak, ular o'z ahamiyatiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi:

a) sug'urtani amalga oshirish xarajatlari. Bu xarajatlar sug'urtachi faoliyatini moliyalashtirish uchun amalga oshiriladi. Sug'urta tashkiloti faoliyatini tahlil etishda mazkur xarajatlar tarkibini ma'lum belgilariga ko'ra guruhlash maqsadga muvofiqdir.

Sug'urtachining faoliyati jarayonida mablag'lar sarf etilishi yuzasidan belgilangan vazifalarga ko'ra, sug'urta tashkiloti daromadi va zararlari haqidagi hisobotiga mos ravishda sug'urta ishini yuritish xarajatlari tarkibini quyidagicha guruhlash mumkin:

- shartnomalarni tuzish va bajarish xarajatlari;
- investitsiya faoliyati bo'yicha xarajatlar;
- boshqaruv xarajatlari.

B) sug'urta ishini yuritish xarajatlari sarflanishiga ko'ra quyidagicha bo'lish mumkin:

- ish haqi to'lovlari;
- davlat fondlariga ajratmalar, xodimlarni tayyorlash xarajatlari, reklama hamda marketing xarajatlari, xo'jalik xarajatlari va boshqalar;

Sug'urta ishini yuritish xarajatlarining yuzaga kelishi davriga ko'ra, ularni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

Sug'urta tashkiloti xarajatlarning turlari va ularning tasniflanishi

t/r	Xarajat turlari	Xarajatlarning tasnifi		
		Asosiy faoliyat bo'yicha	Maqsadli faoliyat bo'yicha	Amalga oshirilish vaqtiga ko'ra
1	Ma'muriy-xo'jalik yuritish xarajatlari	Sug'urtalash bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'lmagan xarajatlar	Shartnomani amalga oshirish xarajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
2	Vositachilik taqdirlashlari ni undirish xarajatlari	Sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish xarajatlari	Shartnomani tayyorlash va tuzish xarajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
3	Reklama va marketing xizmati xarajatlari	Sug'urtalash bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan xarajatlar	Shartnomani tayyorlash va tuzish xarajatlari	Shartnomani tuzishga qadar
4	Maxsus ish qog'ozlarini tayyorlash xarajatlari	Sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish xarajatlari	Shartnomani tayyorlash va tuzish xarajatlari	Shartnomani tuzishga qadar
5	Sug'urta zaxiralariga ajratmalar	Sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish xarajatlari	Shartnomani bajarish xarajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
6	Qayta sug'urtalash xarajatlari	Sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish xarajatlari	Shartnomani bajarish xarajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
7	Investitsiya joylashtiriluv xarajatlari	Sug'urtalash bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan xarajatlar	Shartnomani bajarish xarajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
8	Sug'urta qoplamasi xarajatlari	Sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish xarajatlari	Shartnomani bajarish xarajatlari	Sug'urta hodisasi yuz berganda

- sug'urta shartnomasini tuzish uchun oldindan qilingan (ish qog'ozlarini tayyorlash, statistik ma'lumotlarni yig'ish, tarif hisob-kitoblari va shu kabi) xarajatlar;

- sug'urta shartnomasi tuzish davrida qilingan (xalqaro terminda

«acquisition») xarajatlar;

- sug'urta shartnomasi amal qilish davrida qilingan (masalan, riskni qayta sug'urtalashga o'tkazish bo'yicha) xarajatlar;

- sug'urta hodisasi yuz berganda (sabablarini o'rganish va uning oqibatlarini tugatish uchun) qilinadigan xarajatlar.

Sug'urta ishini yuritish xarajatlarini, shuningdek, ayrim sug'urta turi yoki shartnomasiga daxldor bo'lgan o'zgaruvchan va barcha tuzilgan sug'urta shartnomalari portfeliga aloqador bo'lgan doimiy kabi guruhlariga ham bo'lish mumkin.

Xalqaro amaliyotda sug'urta tashkilotining xarajatlari akvizitsiya (ommaviy-tashkiliy kompleks tadbirlar), inkassatsiya (sug'urtaning ayrim turlari bo'yicha mukofotlarning naqd pullarda qabul qilinishi), likvidatsiya (sug'urta hodisasi yuz berganligi yuzasidan sug'urtalanuvchi arizasida bayon qilingan talablarning qondirilishi) va boshqaruvga oid kabi turlardan iboratdir.

Sug'urta tashkiloti daromad va xarajatlarini sug'urta faoliyatini amalga oshirish jarayonidagi o'rni va rolga qarab tasniflash ko'proq maqsadga muvofiqdir. Ular quyidagichadir:

- sug'urta himoyasini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan (sug'urta operatsiyalari hamda investitsiya joylashtiriluvchi bo'yicha) daromad va xarajatlar;

- sug'urta himoyasi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan boshqa daromad va xarajatlar.

Sug'urta tashkilotining daromad va xarajatlari tarkibi hamda ularni hisoblash ko'p jihatdan milliy sug'urta qonunchiligi me'yorlariga ham bog'liqdir. Shuningdek, sug'urta tashkilotining daromad va xarajatlari amalidagi soliq qonunchiligiga binoan to'lanadigan daromad(foyda) solig'ining soliq bazasini aniqlash uslubiyati hamda stavkalari darajasi ham ta'sir etadi.

3. Sug'urta tashkilotining daromad va xarajatlari tarkibi bo'yicha yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalarga asoslanib, uni aniqlash bo'yicha quyidagi uslubiyatni taklif etamiz:

$$SM = SMs + SMqs + O'MZo' \quad (1),$$

Bu erda: SM- ishlab topilgan sug'urta mukofotlari summasi;

SMs – bevosita sug'urtalash bo'yicha sug'urta mukofotlari summasi;

SMqs – qayta sug'urtalash bo'yicha sug'urta mukofotlari summasi;

O'MZo' – o'zlashtirilmagan mukofotlar zaxirasining o'zgarishi.

$$UNz = Nz + Nvt \quad (2),$$

Bu erda: UNz – ko'rilgan zararning umumiy netto qismi;

Nz – ko'rilgan zararning netto qismi;

Nvt – qayta sug'urtalash bo'yicha vositachilik to'lovlarining netto qismi.

$$Nz = SM - SQs - (SQqs - SQqsq) \quad (2.1),$$

Bu erda: SQs – to'langan sug'urta qoplamalari;

SQqs – qayta sug'urtalash bo'yicha to'langan sug'urta qoplamalari;

TSQqsq – qayta sug'urtalash shartnomalariga ko'ra, qayta sug'urtalovchilar

tomonidan to'langan sug'urta qoplamalari.

$$Nvt = VTqs + VSqs \quad (2.2),$$

Bu erda: $VTqs$ – qayta sug'urtalash bo'yicha vositachilik to'lovlari;

$VSqs$ – qayta sug'urtalash bo'yicha vositachilik siylovlari.

$$Tsx = UNz - (Yuk + SMqsrr + SQs + VTqs + Zm + SQqs) \quad (3)$$

Bu erda: Tsx – sug'urta xizmatlarining tannarxi.

Yuk – sug'urta ishini yuritish xarajatlari;

$SMqsrr$ – qayta sug'urtalash va retrotsessiyaga o'tkazilgan risklar bo'yicha hisoblangan sug'urta mukofotlari;

$VTqs$ – vositachilik to'lovlari va brokerlik siylovlari, qayta sug'urtalash tantemlari va yig'implari;

Zm – zaxira fondiga o'tkazilgan mablag'lar.

$$YaD(Z) = D(Z)_{af} \pm D(Z)_{bf} \quad (4),$$

Bu erda: $YaD(Z)$ – yalpi daromad yoki zarar (soliq to'langunga qadar bo'lgan daromad yoki zarar);

$D(Z)_{af}$ – asosiy faoliyatdan olingan daromad yoki zarar;

$D(Z)_{bf}$ – boshqa faoliyatdan daromad yoki zarar.

$$D(Z)_{af} = Ns \pm Nz \pm Nvt \pm Yuk - DX \quad (4.1),$$

Bu erda: Ns – sug'urta mukofotlarining netto qismi;

DX – davr xarajatlari.

$$D(Z)_{bf} = Dbf - Xbf \quad (4.2),$$

Bu erda: Dbf – boshqa faoliyatdan daromadlar;

Xbf – boshqa faoliyatni amalga oshirish uchun qilingan xarajatlar.

Sug'urta tashkiloti daromadi(foydasi)ni aniqlashning keltirilgan uslubiyatini joriy etish masalasiga (7-jadval) to'xtaladigan bo'lsak, bu borada sug'urta ishini amalga oshirish xarajatlariga kiritilgan sug'urta xizmatlarni tashkil etish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi yangi Nizomni ishlab chiqish zaruriyati yuzaga keladi.

Taklif etilayotgan uslubiyatga ko'ra, keltirilgan ma'lumotlarda ishlab topilgan sug'urta mukofotlari summasi 1232223,0 bo'lgan bo'lsa, shundan 910786,8 bevosita sug'urtalash mukofotlari, 6741,1 qayta sug'urtalash bo'yicha mukofotlari va nihoyat, 314695,1 so'mini o'zlashtirilmagan mukofotlar summasi tashkil etgan.

To'langan sug'urta qoplamalari 1188750,1 qayta sug'urtalash shartnomalariga binoan qoplama to'lovlari bo'yicha zararlar 506,3; ko'rilgan zararlarining netto qismi 1189256,4; qayta sug'urtalashga qabul qilingan

shartnomalar bo'yicha hisoblangan vositachilik to'lovlari 840,8; qayta sug'urtalash bo'yicha vositachilik to'lovlarning netto qismi 840,8; sug'urta ishini yuritish xarajatlari 5136,5; hisoblangan vositachilik hamda brokerlar siylovlari, qayta sug'urtalash tantemlari va yig'implari 321,4; zararlarni qoplash zaxirasiga o'tkazilgan mablag'lar 1153961,8 ming so'mni tashkil qilgan.

Keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda sug'urta xizmatini ko'rsatishdan tushgan yalpi foydani aniqlash uchun ishlab topilgan mukofotlarning netto qismi (1232223), ko'rilgan zararlarning netto qismi (1189256,4), qayta sug'urtalash bo'yicha vositachilik to'lovlarning

1-jadval

Sug'urta tashkilotlari daromad va xarajatlarini hisoblash:

	(so'm hisobida)
(+) Bevosita sug'urtalash bo'yicha hisoblangan sug'urta mukofotlari	910786.8
(+) Qayta sug'urtalash shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari	6741.1
(+) O'zlashtirilmagan mukofotlari zaxirasini o'zgartirish	314695.1
(=) Ishlab topilgan mukofotlar	1232223
(-) To'langan sug'urtaviy qoplamalar	1188750.1
(-) Qayta sug'urtalash shartnomalariga binoan qilingan qoplama to'lovlari bo'yicha zararlar	506.3
(+) Qayta sug'urtalashga taqdim etilgan shartnomalarga ko'ra, qayta sug'urtalovchilar tomonidan qilingan qoplamalar bo'yicha zararlar	-
(=) Ko'rilgan zararlarning netto qismi	1189256.4
(+) Qayta sug'urtalashga taqdim etilgan shartnomalarga ko'ra hisoblangan qayta sug'urtalash bo'yicha vositachilik to'lovlari	-
(+) Qayta sug'urtalashga qabul qilingan shartnomalar bo'yicha hisoblangan vositachilik to'lovlari	840.8
(=) Qayta sug'urtalash bo'yicha vositachilik to'lovlarning netto qismi	840.8
(-) Sug'urta ishini yuritish xarajatlari	5136.5
(-) Qayta sug'urtalash va retrotsessiyaga o'tkazilgan risklar bo'yicha hisoblangan sug'urta mukofotlari	-
(-) Bevosita sug'urtalash bo'yicha sug'urtaviy to'lovlari (sug'urta qoplamalari)	-
(-) Hisoblangan vositachilik va brokerlar siylovlari. Qayta sug'urtalash tantemlari va yig'implari	321.4
(-) Zararlarni qoplash zaxirasiga o'tkazilgan mablag'lar	1153961.8
(-) Qayta sug'urtalashga qabul qilingan risklar bo'yicha qilingan qoplama to'lovlarning ulushi	-

Bunda sug'urta xizmatini ko'rsatish(sotish)dan tushgan yalpi foyda quyidagicha hisoblanadi:

(=) Ishlab topilgan mukofotlarining netto qismi	1232223
(+) Ko'rilgan zararlarning netto qismi	1189256.4
(+) Qayta sug'urtalash bo'yicha vositachilik to'lovlarning netto qismi	840.8
(-) Sug'urta ishini yuritish xarajatlari	5136.5
(-) Davr xarajatlari	226235.7
(-) Xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish va xo'jalik xarajatlari	-
(=) Asosiy faoliyatdan olingan foyda	189246.4
(+) Operatsion. Investitsion va moliyaviy faoliyatdan olingan daromad	214343.3

(+) Operatsion. Investitsion va moliyaviy faoliyat uchun qilingan xarajat	-
(-) Soliq to'langunga qadar bo'lgan daromad(foyda) yoki zarar	25096.9
Manba: «O'zagrosug'urta» DASKning 2002 yil ko'rsatkichlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.	

netto qismi (840,8) yig'indisidan sug'urta ishini yuritish xarajatlari (5136,5), davr xarajatlari (226235,7), xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish va xo'jalik xarajatlari jamisini ayirish orqali asosiy faoliyatdan olingan foyda (189246,4 ming so'm) hisoblab topiladi. Shundan so'ng, investitsion-moliyaviy faoliyatdan olingan daromad va xarajatlari yig'indisini qo'shish orqali balansdagi (25096,9 ming so'm) foyda summasi aniqlanadi.

1. Sug'urta tashkilotlarini investitsion faoliyati va uning mazmun-mohiyati.

O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrda "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qayta tahrirdagi Qonunida investitsiyaga quyidagicha ta'rif berilgan: "investitsiya - iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar"⁴, sifatida ta'riflanadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni tahlil qilish orqali shunday xulosaga kelish mumkinki, "investitsiyalar" tushunchasi "kapital qo'yilmalar", "investitsiyalarning mulkiy shakli", "kapital", "kredit" va boshqa tushunchalarga qaraganda kengroq, "sig'imliroq" tushuncha hisoblanadi⁵. Kapital qo'yilmalar investitsiyalarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuning bilan birgalikda investitsiyalarning tarkibida kapital qo'yilmalardan tashqari aylanma mablag' (vosita)lar ham mavjud. Demak, ko'rinib turibdiki, kapital qo'yilmalar tushunchasi aynan investitsiyalar tushunchasini anglatmaydi.⁶ Umumlashtiradigan bo'lsak, investitsiyalar bu faqat uzoq muddatli kapital qo'yilmalar bo'libgina qolmasdan, balki qisqa muddatli qo'yilmalarni ham o'z ichiga oladi. Demak, investitsiyalar - mulkchilikning barcha ko'rinishlaridagi moddiy va nomoddiy boyliklarni iqtisodiy-ijtimoiy daromad olish maqsadida muomalaga kiritishdir.

"Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasiga ko'ra "chet el investorlari asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob'ektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka doir huquqlar, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari"⁷, deb e'tirof etiladi.

⁴ Ўзбекистон Республикасининг "Инвестиция фаолияти тўғрисида"ги Қонуни, 1998. 24 декабр. //Солиқлар ва божхона хабарлари. 4-сон, 1999. 3-б.

⁵ Ғозиев Д.Ғ. Инвестицияларни молиялаштириш масалалари. Т.: "Молия" нашриёти, 2003. 28-б.

⁶ Инвестиции: Учебное пособие /Г.П. Подшиваленко, Н.И. Лахметкина, М.В. Макарова и др. –М.: КНОРУС, 2004. С.7. (Финансовая академия при Правительстве РФ).

⁷ Ўзбекистон Республикасининг "Чет эл инвестициялари тўғрисида"ги Қонуни, 1998. 30 апрел. //Халқ сўзи. 1999. 12 январ. 7-сон. 1-б.

Sug'urta kompaniyalari asosiy faoliyati Bilan bir qatorda investtsiya faoliyatini xam amalga oshirish imkoniyatiga egadir. Odatda, sug'urta kompaniyalarining sug'urtaviy xizmat ko'rsatish o'ziga xos xususiyatga ega ya'ni, mijoz dastlab sug'urtalovchiga sug'urta badalini shartnoma tuzilishi Bilan to'laydi. Sug'urta shartnomasi muddatining tugashi xizmat to'liq ko'rsatilganligini bildiradi. Demak, sug'urta kompaniyalarida moliya resurslarining xarakati xususiyatlari shunga olib boradiki, sug'urta kompaniyalari ixtiyorida shartnomani amal qilish mobaynida qo'shimcha daromad olish maqsadida investitsiyalash mumkin bo'lgan vaqtinchalik majburiyatdan xoli bo'lgan katta miqdorda vaqtincha bo'sh mablag'lar to'planadi. Sug'urtalovchilar bu mablag'larni qo'shimcha daromad olish maqsadida turli ob'ektlarga investitsiya qilishlari mumkin.

Sug'urta tashkilotlari tasarrufida kata miqdordagi moliyaviy resurslarni to'planishi, ularni iqtisodiyotni rivojlanishida muxim rol o'ynashini ko'rsatadi. Sug'urta qiluvchilar tomonidan moliya resurslarining to'planishi sug'urtani faol investitsion siyosat yo'li Bilan iqtisodiyotning asosiy omiliga aylantiradi. Boshqacha so'z Bilan aytganda, sug'urtalovchilar turli polis egalaridan olingan passiv pul mablag'larni moliya bozorida xarakat qiluvchi aktiv kapitaliga aylantirishadi.

Sug'urta ompaniyasi investitsion imkoniyatlarini quyidagi omillar belgilaydi:

3. yig'iladigan sug'urta mukofotlari xajmi;
4. sug'urta portfeli xajmi;
5. amalga oshirilayotgan sug'urta xizmatining foydaliligi yoki zararliligi;
6. sug'urta rezervlarini shakllantirishga davlat tomonidan qo'yiladigan talablar;
7. tuzilgan sug'urta shartnomalari muddati;
8. o'zlik mablag'lari xajmi.

Cug'urta kompaniyasining investitsion imkoniyatlari taxminan shunday deyarli shakllanib boradi. Investitsion imkoniyat asosiy qismi «O'zlik mablag'lar»ga to'g'ri keladi. Sug'urta rezervi esa domiy ravishda sug'urta qoplamalari to'lanishiga qarab o'zgarib turadi.

Sug'urta kompaniyasining investitsion portfeli tizimi, uning moliyaviy barqarorligini ta'minlashi lozim va u odatda sug'urta nazorati me'yorlari bilan belgilanadi. Unda sug'urta zaxiralarining vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larini joylashtirish tartibi belgilanadi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng, sug'urta kompaniyalari bo'sh mablag'larini turli ob'ektlarga investitsiya qilish imkoniyati tug'ildi. 1993 yilning 6 mayida qabul qilingan "Sug'urta to'g'risda"gi Qonunning 25-moddasida "Sug'urta tashilotlari o'z moliyaiy manbalarini boshqa yo'l bilan foydalanishga xaqlidir", deb ko'rsatilgan edi. Ammo 2002 yilning 5 apreldagi ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining VIII-sessiyasida qabul qilingan «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonunning 6-moddasiga muvofiq "sug'urtalovchilar sug'urtani amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin emas" deb belgilangan. Demak, sug'urtalovchilarning investitsiya faoliyati qat'iy cheklangan. Shuningdek, Ushbu qonunning yuqorida ko'rsatib o'tilgan moddasida sug'urtalovchilar maxsus

vakolatli davlat organi belgilaydigan tartib va shartlardagi investitsiya faoliyati bilan shug'ullanishlariga ruxsat berilgan. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2006 yil 6 mayda tasdiqlangan, №1571 raqam Bilan davlat ro'yxatidan va 2006 yil 22 aprelda tasdiqlangan, №1565 raqami bilan davlat ro'yxatidan o'tgan buyruqlariga asosan, sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urta rezervlarini tashkil qilish va investitsiyalashning tartiblari belgilangandir.

Jumladan, unda respublika sug'urta kompaniyalarining sug'urta aktivlarini joylashtirish tartiblari, investitsiyalashning qonunchilikda belgilangan quyidagi asosiy talablarga javob berishi lozim:

- (1) Diversifikatsiya;
- (2) Qaytishlilik;
- (3) Likvidlilik;
- (4) Foydaliligi.⁸

Investitsion faoliyatning diversifikatsiyasi birinchi navbatda sug'urta kompaniyasi investitsion portfelining barqarorligini ko'zda tutadi. Ma'lumki, sug'urta kompaniyalari ularga o'z mablag'larini qo'yishi mumin bo'lgan investitsion loyixalar tshplami sarmoya bozorining rivojlanish darajasiga bog'liq. Xozirgi paytda sug'urtalovchilarning vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'lari tijorat banklari depozitlariga, qimmatli qog'ozlarga joylashtirilishi, korxona va ko'chmas mulklarga investitsiya qilinishi mumkin. Investitsiya portfel tarkibi va tizimini tartibga solish odatda kiritilgan mablag'larning turlari bo'yicha minimum va maksimumni belgilash yo'llari orqali amalga oshiriladi. Shu Bilan birga, dunyoning etakchi kompaniyalarining tajribasiga ko'ra, kompaniya investitsion portfelining korxonap va ko'chmas mulklar ustav fondiga investitsiyalari 15%, qimmatli qog'ozlarga investitsiyalari 25-60%, tijorat banklari depozitlariga mablag'lari 15-30%, investitsiyaning boshqa tutsrlariga 1-12% dan oshmaydigan miqdorlarda joylashtiradilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar mablag'lar yalanishini to'g'ri tashil etish muxim ahamiyatga ega. Chunki, mablag'lar aylanishi eng ma'qul variantini topish pirovard natijada korxona faoliyatini foyda bilan yakunlashiga olib keladi.

Sug'urta faoliyatida joriy natijalar sug'urta badallari ko'rinishida sug'urta kompaniyalari xisob – raqamiga kelib tushgan pul mablag'lari aylanishi xisobidan daromad kelish imkoniyati yuzaga keladi.

Ushbu daromadlar sug'urta kompaniyalarini sug'urta zaxiralarini shakllantirish orqali xarajatlar qismini qoplash va foyda olish manbai bo'lib xizmat qiladi.

Sug'urta faoliyatining joriy taxlil pul mablag'lari tushumi orqali o'ziga olyotgan majburiyatlar adektivlilikini belgilaydi.

5. Investitsion faoliyatda mavjud risklar haqida tushuncha va unga noqulay omillarning ta'siri.

⁸ Приказ Министерства Финансов Республики Узбекистан, зарегистрирован №1565 от 22.04.2006 «Об утверждении положения о порядке определения предельно допустимого размера обязательств по отдельным рискам, совокупного размера обязательств и нормативов платежеспособности страховщиков»

Har qanday investitsion loyixani amalga oshirishda asosiy risk sifatida xizmatlar bozorda kuchli raqobatchining bo'lishidir. Umuman olganda kompaniya uchun quyidagi turdagi risklar mavjud bo'lib ular loyixani amaliyotga joriy etishda o'z ta'sir doiralarini o'tkazishlari mumkin.

Siyosiy risklar –bu turdagi risklar davlatdagi siyosiy jarayon bilan bevosita bog'liq bo'lib o'z ichiga quyidagilarni oladi;

2. xarbiy xarakatlar natijasida faoliyat ko'rsata olmaslik;
3. kutilmagan xodisalarining ro'y berishi natijasida vaqtinchalik faoliyatni yurita olmaslik.
4. soliq qonunchiligida o'zgarishlar.

O'zbekiston Respublikasi siyosiy axvolning tinchligiga qaramasdan ko'rinishdagi risklar davlatimizga chegaradosh bo'lgan davlatlardagi notinch axvol sababli mavjud bo'lib qoldi.

Risk darajasini kamaytirish tadbirlari.

- davlat organlari bilan kompaniya aktsiyadorlari o'rtasidagi aloqani mustaxkamlash.
- ishbilarmon muxitini yaratishuqiy risklar – bu risklar qonunchilik bazasining nomukammalligi, xujjatlarni to'g'ri tuzish, rasmiylashtirilmasligi bilan bevosita bog'liq.

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik sub'ektlari uchun barcha qonunchilik bazasi mukammal ishlab chiqilganligiga qaramasdan bu turdagi riskni inobatga olmaslik mumkin emas. Buning asosiy sababi byurokratiyaning mavjudligi.

Ammo kompaniya faoliyatini Davlat qo'llab quvvatlayotgani bu turdagi risk darajasini pasayishga olib keladi.

Risk darajasini kamaytirish chora tadbirlari bo'lib;

- ✚ xujjatlarni aniq shakllarini yuritish;
- ✚ xujjatlarni rasmiylashtirishda bu soxa mutaxasislarini jalb etish;
- ✚ yukori malakali yurist va tarjimonlar uchun qo'yshimcha moliyaviy resurslarni ajratish.

Texnik risklar - bu turdagi risklar ishlarni amalga oshirishdagi qiyinchiliklar va texnik loyixaning mavjud emasligidan vujudga keladi.

Asbob uskunalarga tender e'lon qilingandan boshlab, tovar etkazib beruvchining texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha yuqori malakali mutaxasislar mavjudligiga xam inobatga olinadi. Bu sezilarli ravishda texnik risk darajasini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin. Ishlab chiqarish riski – bu turdagi risk taklif etilayotgan xizmatning sifati pastligi, yuqori malakali mutaxasislarning mavjud emasligi bo'lishi mumkin. Shuni ta'kidlash lozimki, kompaniya loyixasini amaliyotga joriy etish uchun etarli darajada yuqori malakali mutaxasislarga ega bo'lsa, bu turdagi risk darajasini kamaytirishga xizmat qiladi.

Riskni kamaytirish darajasini bo'yicha chora tadbirlari:

1. Loyixani amalga oshirishda aniq qalendar rejalashtirish va boshqarishni yo'lga qo'yish;
2. Taklif etilayotgan xizmatlar ustidan doimiy nazoratni o'rnatish;
3. Yuqori malakali kadrlarni tayyorlab borish.

Ekologik risklar – bu turdagi risklar atrof muxitni ifloslanishi, atmosfera va suvga xar xil chiqindilarning chiqishi natijasida yuzaga keladi. Biz shug'urlanayotgan soxa uchun bu turdagi risk darajasi ancha pastdir. Marketing riski – bu turdagi risklar bozorni yaxshi o'rganilmaganligi, baxo siyosatining to'g'ri yuritilmaganligi marketing strategiyasini noto'g'ri ekanligi bilan bog'liq.

Risk darajasini kamaytirish;

1. Kuchli marketing xizmatini joriy etish;
2. Marketing strategiyasini ishlab chiqish;
3. Marketing tadqiqotlarini o'tkazish;
4. Egiluvchan tarif siyosatini ishlab chiqish.

Moliyaviy risklar – bu turdagi risklar moliyaviy natijalarini yo'qotilgan, istemolchining to'lovga layoqatsizligidan, talabning qat'yemasligidan, raqobatchilar tomonidan narxni kamaytirishlar, oborot mabag'larining etishmasligini kelib chiqishni mumkin.

Riskni darajasini kamaytirish chora-tadbirlari.

1. Istemolchilar talabini o'rganish;
2. Sifat ustida to'liq nazoratni o'rnatish;
3. Investitsion va kredit resurslarini yangi yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish;
4. Investitsion – moliyaviy strategiyani ishlab chiqarish.

Tabiiy risklar – bu turdagi risklar tabiatda xar xil baxtsiz xodisalarning ro'y berishi, er qimirlashi, suv toshishi sel kelishi, yong'in chiqishi, epidemiya tarqalishi bilan bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrda qabul qilingan «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonunida investitsiya faoliyati xamda investitsiya faoliyati bilan shug'ullanish tartiblari ko'rsatib o'tilgan. Ushbu qonunning 4-moddasida investitsiyalarni amalga oshirish shakllari xaqida to'xtalib o'tilgan, ya'ni investorlar investitsiyalarni quyidagi yo'llar bilan amalga oshirishlari mumkin:

- yuridik shaxs tuzish yoi ularning ustav jamg'armalarida (kapitallarida) ulushli ishtirok etish, jumladan mol-mulkni yoki aktsiyalarni olish;

- qimmatli qog'ozlar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz majburiyatlarini olish;

- kontsessiyalari, shu jumladan tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo'lgan kontsessiyalarni olish;

- mulk xuquqini, shu jumladan ular joylashgan er uchastkalari bilan birgalikda savdo va xizmat ko'rsatish soxalari ob'ektlariga, turar joylarga mulk xuquqini, shuningdek erga xamda boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish xuquqini qonun xujjatlariga muvofiq olish.

Investorlar investitsiyalarni qonun xujjatlariga zid bo'lmagan boshqa shakllarda xam amalga oshirishlari mumkin.

Investor investitsiyalash maqsadi, yo'nalishi, turi va xajmini mustaqil ravishda belgilaydi, buni amalga oshirish uchun shartnoma asosida, qoida tariqasida,

tanlov savdosini o'tkazish yo'li bilan yuridik va jismoniy shaxslarni investitsiya faoliyati ishtirokchilari sifatida jalb etadi.

Agar qonun xujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, investor, o'ziga zarur bo'lgan mol-mulkni yuridik va jismoniy shaxslardan o'zaro kelishuv asosida belgilanadigan shartlarda xajmi va nomenlaturasini cheklamagan tarzda olishga xaqli.

Investor qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa xuquqlarga xam ega bo'lishi mumkin.

Qonunning 14-moddasiga asosan investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- investitsiya faoliyatining qonunchili negizi takomillashtirish;
- soliq to'lovchilar va soliq solish ob'ektlarini, soliq stavkalari va ularga doir imtiyozlarni tabaqalashtiruvchi soliq tizimini qo'llash;
- asosiy fondlarni jadal amortizatsiya qilish;
- normalar, qoidalar va standartlarni belgilash;
- monopoliyaga qarshi choralarni qo'llash;
- kredit siyosati va narx belgilash siyosatini o'tkazish;
- erga va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish shartlarini belgilash;
- investitsiya loyixalarini ekspertiza qilish mexanizmlarini belgilash;
- O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyixalarining amalga oshirilishi monitoringini yuritish;
- investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda xam amalga oshiriladi.

2002 yilning 5 aprelidagi Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VIII-sessiyasida qabul qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunning 6-moddasida - sug'urtalovchilar maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartib va shartlarda investitsiya faoliyati bilan shug'ullanishlariga ruxsat berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan 2000 yilning 28 iyunida 66-sonli buyruq bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi xududida sug'urta tashkilotlarining zaxiralarini joylashtirish to'g'risidagi vaqtinchalik nizomi"ni 952-raqam bilan davlat ro'yxatiga olingan edi. Ushbu nizom 2000 yilning 5 avgustidan yuridik kuchga kiritilgan bo'lib 2005 yil 31 deabrgacha amal qildi.

Bu nizomning o'z kuchini yo'qotish Moliya Vazirligi tomonidan zamon talablariga javob beradigan, rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqqan xolda yangi nizomni ishlab chiqilishini talab etdi. 2006 yilda sug'urta kompaniyalarining o'z rezervlarini tashkil etish va investitsiyalash, kompaniyalarning tshlov qobiliyatini aniqlash bo'yicha ikkita nizom qabul qilindi:

- O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan, 2006 yil 22 aprelida №1565-raqam bilan davlat ro'yxatidan o'tgan "Aloxida sug'urta tavakkalchiliklari bo'yicha majburiyatlar, jami majburiyatlarning yo'l qo'yiladigan eng ko'p xajmini va sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati me'yorlarini aniqlash tartibi to'g'risida nizom", 2006 yil 2 maydan kuchga kirgan;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan, 2006 yil 6 mayda №1571-raqam bilan davlat ro'yxatidan o'tgan "Sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta zaxiralarini shakllantirish xamda joylashtirish tartibi va shartlari to'g'risida nizom", 2006 yil 16 maydan kuchga kirgan.

Ushbu nizomda sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyati davlat tomonidan tartibga solingan. Jumladan, unda Respublika iqtisodiyotida ustav va sug'urta mablag'lari qismini investitsiyalash qonunchilik yo'li bilan belgilanishi va quyidagi asosiy talablarga javob berishi lozimligi ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi sug'urta kompaniyalari yuqoridagi №1565 nizomga o'z mablag'larini diversifikatsiya, qaytuvchanlik. Foydalilik va likvidlilik printsiplari asosida joylashtiradilar.

2006 iyil 22 aprelda qabul qilingan №1565 nizom sug'urta kompaniyalari tomonidan olinishi mumkin bo'lgan majburiyatlarining chegaralari, sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati masalalarini o'z ichiga qamrab olgan. Ushbu nizomda keltirilgan ayrim muxim masalalarga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq xisoblanadi.

Nizomga ko'ra aloxida sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi majburiyatlarining yo'l qo'yiladigan eng ko'p xajmi o'z mablag'lari va sug'urta zaxiralarining 10%dan oshmasligi lozim. Sug'urtalovchi ushbu me'yordan ortiq majburiyatni, qabul qilingan majburiyat bo'yicha ortiqcha tavakkalchilikni mazur Nizomga muvofiq ravishda qayta sug'urtalangan xolda qabul qilishi mumkin. Aloxida tavakkalchilik bo'yicha sug'urtalovchining majburiyatlari to'langan sug'urta muhofotiga proportsional tarzda aniqlanadi, agarda sug'urta shartnomasida aloxida tavakkalchiliklar bo'yicha sug'urtalovchining majburiyatlari xajmi ko'rsatilmagan bo'lgan taqdirda.

Mazkur Nizom maqsadida sug'urtalovchining jami majburiyatlari deganda biz, 5 ta eng katta tavakkalchiliklar bo'yicha sug'urtalovchi majburiyatlarining eng ko'p xajmi tushiniladi. Umumiy sug'urta tarmog'ida sug'urtalovchining jami majburiyatlari xajmi o'zlik mablag'lari miqdorining ikki barobaridan oshmasligi shart.

Sug'urtalovchining to'lov qobiliyatini aniqlash uchun oxirgi xisob sanasiga sug'urtalovchining balans ma'lumotlari, shuningdek, xisob-kitob asosida aniqlanadigan ma'lumotlardan foydalaniladi. Sug'urtalovchining to'lov qobiliyati ko'rsatkichi mazkur Nizom asosida o'rnatilgan sug'urtalovchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va likvidligi xisobiga olingan aktivlar o'rtasidagi nisbat me'yorlarining bajarilishi xisoblanadi. To'lov qobiliyatini sug'urta faoliyati xajmlariga muvofiq ravishda ta'minlash uchun sug'urtalovchilar yo'l qo'yiladigan aktivlarning xaqiqiy xajmi darajasini belgilangan tartibda muvofiqlashtirib borishi zarur.

Respublika sug'urta kompaniyalarida sug'urta zaxiralarni shakllantirish O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan, 2006 yil 6 mayda №1571-raqam bilan davlat ro'yxatidan o'tgan « Sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta zaxiralarini shakllantirish xamda joylashtirish tartibi va shartlari to'g'risida nizomi»ga asosan amalga oshiriladi.

Sug'urta zaxiralarining shakllanishi bo'yicha quyidagi qonun-qoidalar mavjud:

- xamma zaxiralar maxsus xisob-kitoblar asosida shakllanadi;
- zaxiralar sug'urta olib borayotgan valyutada shakllanadi;
- sug'urta zaxiralari xar bir aniq to'lash muddatiga shakllanadi;
- zaxiralar faqat sug'urta shartnomasi bo'yicha emas, qayta sug'urtalashda qabul qilingan shartnomalar bo'yicha xam shakllanishi mumkin.

Sug'urtalovchilar o'ziga qabul qilgan sug'urta majburiyatlarini bajarish uchun yig'ilgan sug'urta mukofotlaridan kelgusida sug'urta to'lovlari uchun barcha sug'urta turlari bo'yicha kerakli sug'urta zaxiralarini shakllantirishadi. Sug'urta zaxiralari sug'urtalovchining sug'urtalanovchilar bilan tuzgan sug'urta shartnomalari bo'yicha shu vaqtdagi bajarilmagan majburiyatlarining xajmini ko'rsatib turadi.

Xorij mamlakatlarida qabul qilingan sug'urta zaxiralarining shakllanishi texnikasiga ko'ra, sug'urta qiluvchi bo'yniga olgan xar bir majburiyat turi sug'urta zaxirasiga mos keladigan turi bilan qoplanadi. Xayot sug'urtasi bo'yicha amaldagi shartnomalar sharoitiga bog'liq xolda matematik zaxiralar, yillik renta zaxiralari, fond zaxiralari va ishtirok etish zaxiralari shakllanadi. Sug'urtaning boshqa turlari bo'yicha -mukofot zaxiralari va zarar zaxiralari shakllanadi. Sug'urta zaxiralari xajmi amaldagi shartnoma bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan summani butun xolda qoplashi zarur. Shuning uchun ularning xajmini aniqlash uchun sug'urta qiluvchining operatsiyalarini chuqur taxlili va matematik xisob kitoblar zarur.

Texnik mablag'lar sug'urta qiluvchi tomonidan aloxida sug'urta shartnomasi va butun sug'urta portfeli bo'yicha bir muddatga xisob-kitob qilingan sug'urta to'lovlari bo'yicha moliyaviy majburiyatlarni bajarish kerak bo'lgan mablag'lar yig'indisi. Ular sug'urta zaxiralarining qismi bo'lib xayot sug'urtasidan tashqari sug'urta turlari buyicha xisob-kitob qilinadi.

«Sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta zaxiralarini shakllantirish xamda joylashtirish tartibi va shartlari to'g'risida nizomi»ga muvofiq sug'urtalovchi o'zining balansida majburiyat yoki aktiv(sharoitdan kelib chiqib) sifatida aks ettiriladigan quyidagi texnik zaxiralarni shakllantirishga majburdir:

3. ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi (umumiy sug'urta soxasida faoliyat amalga oshirilganda);

- mukofotlar zaxirasi (xayot sug'urtasi soxasida faoliyat amalga oshirilganda);
 - zararlar zaxirasi. Sug'urta xodisasi oqibatida yuzaga kelgan va sug'urta shartnomasining shartlari bo'yicha qoplanishi lozim bo'lgan zararlar xajmiga muvofiq ravishda aniqlanadi va quyidagilardan tashkil topadi:

- xabar qilingan lekin, bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi;
- sodir bo'lgan lekin, xabar qilinmagan zararlar zaxirasi;
- Sug'urtalovchi Davsug'urtanazorat bilan kelishgan xolda qo'shimcha ravishda, quyidagi zaxiralarni tashkil etishi mumkin:
- oldini-olish chora-tadbirlari zaxirasi;

- xalokatlar zaxirasi;
- zararlilikning tebranishi zaxirasi ;
- aktivlarning nomuvofiqlik zaxirasi ;
- boshqa zaxira turlari.

Investitsiyalarni ularni turli xil belgilari bo'yicha turkumlash yoki tasniflash mumkin. Ularni tasniflashda turli maqsadlar qo'yiladi. Masalan, investitsiyalarni kelajak natijalarini baholashda, ular bo'yicha kutiladigan samaralarni aniqlashda, ularni ishlab chiqarishda ishtirokida, ularni soha va yo'nalishlarini aniqlashda va h.k. shunga o'xshash belgilari bo'yicha ularni batafsil turkimini belgilash amalda qo'laniladi.

Ko'pgina hollarda investitsiyalar quydagi tasnifiy belgilar bo'yicha turkumlanadi.

3. Investitsiyalarni kiritish ob'ektlari bo'yicha.
4. Investitsiyalarni band qilish muddatlari bo'yicha.
5. Real sektorni qayta ishlab chiqarish bo'yicha.
6. Investitsiyalarni yakuniy natijalari bo'yicha.
7. Mulkchilik shakllari bo'yicha.
8. Maqsadlar bo'yicha.
9. Risklar darajalari bo'yicha.
10. Investitsiyalarni kiritish sub'ektlari bo'yicha.
11. Moliyaviy vositalar turlari bo'yicha.
12. Moliyaviy ta'minlash jihatlari bo'yicha.
13. Moliyalashtirish manbalari, usullari va mexanizmlari bo'yicha.
14. Moliyalashtirish manbalari , mexanizmlari va usullari bo'yicha.
15. Investitsiya jarayonini ishtirokchilari va ularni hissalari bo'yicha investitsiyalar tasniflanadi.

7-mavzu: Shaxsiy sug'urtaning mazmuni va turlari

REJA:

1. Shaxsiy sug'urtaning mohiyati va rivojlanish tarixi.
2. Shaxsiy sug'urtaning turlari.
3. Fuqarolarni baxtsiz hodisadan sug'urta qilish.

1. Shaxsiy sug'urta – baxtsiz hodisalar yoxud tabiiy hodisalar ro'y berishi oqibatida fuqarolarning hayoti va sog'ligiga shikast etkazilishi bilan bog'liq ularning mulkiy manfaatlarini himoyalashga qaratilgan sug'urtaning mustaqil tarmog'i. Shaxsiy sug'urta fuqarolar boshiga kulfat tushganda ularni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashning muhim vositasi hisoblanadi. Shu ma'noda, shaxsiy sug'urta ijtimoiy himoyaning hayotiy tajribada sinalgan ishonchli shaklidir.

Shaxsiy sug'urtaning, xususan uning ajralmas bo'g'ini bo'lgan fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtasining joriy etilishi bir necha asrlik tarixga ega. 1541 yilda Evropada mavjud bo'lgan dengiz huquqi qoidalariga ko'ra, kema egalari shu kema kapitanlarini baxtsiz hodisalardan sug'urtalashlari shart bo'lgan.

Shaxsiy sug'urtaning ba'zi belgilari qadimgi rimliklarga ham ma'lum bo'lgan. O'sha paytda Diana va Antoni muxlislarining diniy jamiyati bo'lgan. Unga a'zo bo'lib kirgan shaxslar a'zolik badalini to'lashgan. Jamiyat a'zolaridan vafot etganda uni ko'mish bilan bog'liq xarajatlar jamiyat hisobidan amalga oshirilgan va hatto, pul mablag'larining muayyan qismi vafot etgan shaxsning merosxo'rlariga berilgan.

1699 yil Angliyada shaxsiy sug'urta bilan shug'ullanadigan dastlabki sug'urta tashkiloti barpo etilgan va u avvalo beva ayollar hamda etim bolalarni sug'urtasini amalga oshirgan. Bu jamiyatning nomi "Ekvatebl" deb atalgan. XVIII asrda esa Germaniyada suyak sinishi holatlaridan himoyalash bo'yicha o'zaro yordam uyushmalari tashkil etilgan. 1849 yili Angliyada temir yo'llarda baxtsiz hodisalardan sug'urtalash bo'yicha dastlabki «Railway Death Rassengers Company» nomli sug'urta kompaniyasi tuzildi.

Shaxsiy sug'urta bo'yicha sug'urtalanuvchi sifatida har qanday yuridik va jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

Shaxsiy sug'urta – bu inson hayotiga, uning mehnat qobiliyati va salomatligiga tahdid soladigan turli xavf-xatarlardan himoyalanişning muhim shakli.

Hozirgi paytda shaxsiy sug'urta sug'urta faoliyatining yirik tarmog'i sifatida jahon amaliyotida keng qo'llaniladi. Rivojlangan xorijiy davlatlarda shaxsiy sug'urta turlari bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlari boshqa sug'urta turlari bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlariga nisbatan yuqori salmoqqa ega. Masalan, AQShda jami yig'ilgan sug'urta mukofotlari hajmida shaxsiy sug'urtaning hissasi 50,0 foizdan yuqoridir.

O'tgan asrning boshlarida hozirgi O'zbekiston hududida Rossiya sug'urta tashkilotlarining vakolatxonalari faoliyat ko'rsatgan va ular aholiga shaxsiy sug'urta xizmatlarini ko'rsatishgan.

1917 yildan 1990 yilgacha mamlakatimizda shaxsiy sug'urtalash ishlari davlat sug'urta organlari (Gosstrax) tomonidan amalga oshirilgan. Ana shu davrda sug'urta shartlari, qoidolari va tariflari markazda-Moskvada ishlab chiqilar va aksariyat hollarda mahalliy shart-sharoitlar va xususiyatlar hisobga olinmas edi.

1991 yilda O'zbekistonning o'z siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini qo'lga kiritishi hayotimizning barcha jabhalari qatorida sug'urta sohasini ham bozor munosabatlari tamoyillariga mos ravishda rivojlanishi uchun sharoit yaratdi. To'g'ri, mustaqillikning dastlabki yillarida iqtisodiyotda ro'y bergan keskin o'zgarishlar qisqa muddat bo'lsada pulning qadrsizlanishiga, pirovardida, aholi turmush darajasining pasayib ketishiga olib keldi. Shubhasiz, bu holat shaxsiy sug'urtaning aholi o'rtasidagi ommaviyligiga putur etkazdi. Natijada, bu sug'urta turlari bo'yicha sug'urta shartnomalari soni va sug'urta mukofotlari miqdori kamaydi. Masalan, 1993 yilda shaxsiy sug'urtaning alohida turi bo'lgan hayot sug'urtasi bo'yicha jami 1770356 dona shartnoma tuzilgan holda bu ko'rsatkich 1994 yilda 406864 donaga kamaygan.

Bunday salbiy vaziyatni oldini olish va aholining shaxsiy sug'urtaga bo'lgan ishonchini tiklash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholining

omonotlardagi va davlat sug'urtasi bo'yicha pul mablag'larini indeksatsiya qilish to'g'risida" 1995 yilning 20 dekabrda PF № 1327-son Farmoni qabul qilindi.

Ushbu Farmonga muvofiq, 1996 yildan boshlab aholining 1992 yil 1 yanvargacha bo'lgan holatiga ko'ra va 1996 yil 1 yanvargacha amalda bo'lgan Davlat sug'urta bosh boshqarmasi muassasalarida turgan hayotni, bolalarni sug'urta qilish, nikoh kunida beriladigan uzoq muddatli sug'urta shartnomalari to'lovlarini bosqichma-bosqich indeksatsiya qilish maqsadga muvofiq deb topildi. Davlat sug'urta muassasalari tomonidan 1996 yilning 1 yanvaridan 1 iyuligacha bo'lgan muddatda fuqarolarning 400,0 mingdan ziyod shartnomalari indeksatsiya qilindi.

O'zbekiston Respublikasida shaxsiy sug'urtani amalga oshirishning huquqiy asoslari Fuqarolik kodeksining 921-moddasida aks ettirilgan. Unga ko'ra, shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha bir taraf (sug'urtalovchi) boshqa taraf (sug'urta qildiruvchi) to'laydigan, shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga sug'urta qildiruvchining o'zining yoxud shartnomada ko'rsatilgan boshqa fuqaro (sug'urtalangan shaxs)ning hayoti yoki sog'ligiga zarar etkazilgan, u muayyan yoshga to'lgan yoki uning hayotida shartnomada nazarda tutilgan boshqa voqea (sug'urta hodisasi) yuz bergan hollarda shartnomada shartlashilgan pulni (sug'urta pulini) bir yo'la yoki vaqt-vaqti bilan to'lab turish majburiyatini oladi. Shuningdek, kodeksda shaxsiy sug'urta shartnomasi kimning foydasini ko'zlab tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxs sug'urta pulini olish huquqiga ega bo'ladi, deb ko'rsatilgan.

Shaxsiy sug'urta shartnomasi tuzishda sug'urta qildiruvchi bilan sug'urtalovchi o'rtasida quyidagilar to'g'risida kelishuvga erishilishi lozim:

- sug'urtalangan shaxs to'g'risida;
- sug'urtalangan shaxs hayotida yuz berishi ehtimol tutilib sug'urta amalga oshirilayotgan voqea (sug'urta hodisasi)ning xususiyati to'g'risida;
- sug'urta puli miqdori to'g'risida;
- sug'urta mukofotining miqdori va uni to'lash muddati (muddatlari) to'g'risida;
- shartnomaning amal qilish muddati to'g'risida.

Taraflarning kelishuviga binoan shartnomaga boshqa shartlar ham kiritilishi mumkin. Agar sug'urta shartnomasi sug'urta qildiruvchi, sug'urtalangan shaxs yoki naf oluvchi hisoblangan fuqaroning ahvolini qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarga nisbatan yomonlashtiradigan shartlarni o'z ichiga olsa, shartnomaning ana shu shartlari o'rniga qonun hujjatlarining tegishli qoidalari qo'llaniladi.

2. Sug'urtalanuvchining hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati bilan bog'liq mulkiy manfaatlari shaxsiy sug'urtaning ob'ekti hisoblanadi. Sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilar hamda sug'urtalangan shaxslar shaxsiy sug'urta sub'ektlaridir.

Shaxsiy sug'urta, odatda, fuqarolarni quyidagi xavf-xatarlardan himoyalashini nazarda tutadi:

- sug'urtalanuvchining yoki sug'urtalangan shaxsning vafot etishi;
- mehnat qobiliyatini vaqtinchalik yo'qotishi;

- nafaqa yoshiga etishi bilan fuqaroning faol mehnat faoliyatini tugashi.

Yuqorida qayd etilgan hamma holatlarda sug'urta hodisasini ro'y berishi sug'urtalanuvchining yoki sug'urtalangan shaxsning daromadini kamayishiga sabab bo'ladi.

Ilmiy-iqtisodiy adabiyotlarda shaxsiy sug'urta turlicha tasniflanadi. Mutaxassislar o'rtasida keng tarqalgan fikrlarga ko'ra, shaxsiy sug'urta 2 ta kichik tarmoqqa bo'linadi:

- hayot sug'urtasi;
- sog'liqni sug'urtalash;

Sog'liqni sug'urtalash, o'z navbatida, 2 ta guruhga bo'linadi:

- baxtsiz hodisalardan sug'urtalash;
- tibbiy sug'urta.

Shaxsiy sug'urtani hayot sug'urtasiga va sog'liqni sug'urtasiga bo'linishiga asosiy sabab sug'urta summalarini jamg'arilib borilishidir. Hayot sug'urtasi uzoq muddatli bo'lib, unda shartnoma bo'yicha belgilangan sug'urta summasi har yili jamg'arilib boradi.

Fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashda sug'urta summolari jamg'arilmaydi, muddati 1 yildan oshmaydi.

2002 yilning 28 mayidan e'tiboran "Sug'urta faoliyati to'g'risida" qonunning qabul qilinishi bilan sug'urta 2 ta tarmoqqa bo'lindi:

- hayot sug'urtasi;
- umumiy sug'urta.

Qonunga asosan sug'urtalovchilarning faoliyati sug'urtaning qaysi tarmog'iga ixtisoslashganligiga qarab alohida litsenziyalanadigan bo'ldi. Hayot sug'urtasini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan sug'urtalovchilar umumiy sug'urta turlarini o'tkazishga haqli emas yoki aksincha.

Shaxsiy sug'urta ixtiyoriy va majburiy shakllarda amalga oshiriladi.

Ixtiyoriy shaxsiy sug'urta turlariga quyidagilar kiradi:

- hayot sug'urtasi;
- fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash;
- fuqarolarning sog'lig'ini va kasalliklardan sug'urtalash;
- fuqaroni ma'lum yoshgacha etishish sug'urtasi;
- vafot etish holatidan uzoq muddatli sug'urta;
- tibbiy sug'urta;
- chet elga ketuvchilarni kasalliklardan sug'urta;
- maktab o'quvchilarini baxtsiz hodisalardan sug'urtalash.

Majburiy tarzda amalga oshiriladigan shaxsiy sug'urta turlariga quyidagilar kiradi:

- yo'lovchilarni baxtsiz hodisalardan majburiy sug'urtalash;
- soliq organlari xodimlarini baxtsiz hodisalardan majburiy davlat sug'urtasi;
- O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Davlat bojxona qo'mitasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlarini baxtsiz hodisalardan majburiy davlat sug'urtasi.

Majburiy davlat sug'urtasini 2003 yil 1 yanvardan boshlab "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi o'tkazib kelmoqda. Ushbu sug'urta turlari bo'yicha sug'urta tarifi bir sug'urtalanuvchiga bir yilga eng kam oylik ish haqining 20 foizi miqdorida belgilangan. 2005 yil 1 fevral holatiga bu summa 1306 so'mni tashkil etadi (2004 yil 1 avgustdan eng kam ish haqi 6530,0 so'm miqdorida belgilangan). Sug'urta mukofotlari sug'urtalanuvchi uchun respublika byudjeti mablag'lari hisobidan to'lanadi.

Hozirgi paytda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta tashkilotlari, asosan, quyidagi sug'urta turlarini amalga oshirishadi:

- baxtsiz hodisalardan sug'urtalash;
- ixtiyoriy tibbiy sug'urta va kasal bo'lish holatidan sug'urta;
- chet elga ketayotgan shaxslarni sug'urtasi;
- hayot sug'urtasi.

Yuqorida qayd etilgan sug'urta turlari ichida baxtsiz hodisalardan sug'urtalash keng tarqalgan bo'lib, ular "O'zbekinvest" EIMSK, "O'zagrosug'urta" va "Kafolat" davlat-aktsiyadorlik sug'urta kompaniyalari, "Madad" sug'urta agentligi kabi bir qator sug'urta tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

20012 yil 1 iyun holatiga mamlakatimizda 37 ta sug'urta tashkiloti faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, ularning aksariyati baxtsiz hodisalardan sug'urtalash, va faqat 2 tasi hayot sug'urtasi bo'yicha tegishli litsenziyalarga ega.

Sug'urta bozorida mijozlarni jalb etish bo'yicha raqobat bo'lganligi tufayli ixtiyoriy shaxsiy sug'urta turlari bo'yicha tarif stavkalari turlichadir. Masalan, "O'zbekinvest" kompaniyasida 20-25 yoshlardagi shaxslarni 100,0 ming so'mga sug'urtalash uchun tarif stavkasi ana shu sug'urta summasiga nisbatan 1,125 foizni, yoshi 55-60 da bo'lgan fuqarolar uchun esa tarif stavkasi 1,575 foizni tashkil etadi. "O'zagrosug'urta" sug'urta kompaniyasida maktab o'quvchilarini baxtsiz hodisalardan ixtiyoriy sug'urtalash bo'yicha tarif stavkasi sug'urta summasiga nisbatan 0,2 foiz miqdorida belgilangan.

"Kafolat" sug'urta kompaniyasida talabalarni baxtsiz hodisalardan ixtiyoriy sug'urtasi bo'yicha tarif stavkasi sug'urta summasiga nisbatan 0,5 foizni tashkil etadi.

3. Shaxsiy sug'urta turlari tarkibida fuqarolarni baxtsiz hodisalardan ixtiyoriy sug'urtalash alohida o'ringa ega. Shu bois, biz ushbu sug'urta turi bilan yaqindan tanishamiz. Fuqarolarni baxtsiz hodisalardan ixtiyoriy sug'urtalash bo'yicha shartnoma qonunga ko'ra yuridik va jismoniy shaxslarni yozma arizasi asosida tuziladi. Shartnoma tuzishdan oldin sug'urta tashkiloti o'z mijozlariga sug'urta xizmatini taklif etadi. Yuridik va jismoniy shaxslar sug'urta shartnomasi tuzishdan oldin albatta sug'urtalovchining moliyaviy holati, litsenziyasi mavjudligi bilan qiziqishi lozim.

Sug'urta shartnomasi tuzishdan oldin sug'urta tashkiloti vakili sug'urtalayotgan shaxslarni fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash qoidalar bilan tanishtirishi lozim. Mazkur sug'urta turi bo'yicha fuqarolarni baxtsiz hodisa ro'y berish natijasida sog'lig'i va hayotini saqlash bilan bog'liq manfaat sug'urta ob'ekti hisoblanadi. Sug'urtalovchi, odatda, asab va ruxiy kasallikka duchor

bo'lgan, falaj, ko'zi ojiz shaxslar, eshitish qobiliyati zaif bo'lgan va nogiron shaxslar bilan sug'urta shartnomasini tuzmaydi.

Sug'urtalangan shaxsning hayotiga va sog'lig'iga quyidagi baxtsiz hodisalarni ro'y berishi natijasida shikast etganda va tasdiqlanganda sug'urta summalari berilishi mumkin:

- jarohat olganda;
- suyaklarni sinishi, chiqishi;
- ichki organlarni zararlanishi;
- kuyishi;
- teri qatlamlarini sovuq urishi;
- elekt toki ta'sirida jarohatlanishi;
- kimyoviy moddalar va zararli o'simlik ta'sirida zararlanishi;
- tish sinishi.

Bundan tashqari yuqorida qayd etilgan holatlar natijasida o'lim xolati yuz berganda xam sug'urta summasi to'lanadi.

Quyidagi hodisalarni ro'y berishi oqibatida sug'urtalangan shaxsning hayoti va sog'lig'iga shikast etkazilsa yoxud o'limga olib kelsa sug'urta summasi to'lanmaydi:

- yadro portlashi;
- radiatsiya va nurlanish;

- sug'urtalangan shaxsning atayin hatti-harakati natijasida baxtsiz hodisalar yuz berganda, o'z joniga qasd qilganda va jinoiy harakatlar natijasida ro'y berishi.

Sug'urta mukofoti sug'urta tashkilotining hisob-kitob raqamiga kelib tushgandan so'ng u shartnomada ko'rsatilgan muddat ichida fuqarolarga sug'urta polisini berishi shart. Agar sug'urta polisi yo'qotilgan taqdirda sug'urta tashkiloti sug'urtalagan shaxsga uning dublikatini beradi.

Sug'urtalanuvchilarning huquqlari:

- sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan davrda sug'urtalangan shaxs sug'urta tashkilotidan sug'urta masalalari bo'yicha maslahatlar olishi;

- sug'urta polisi yo'qotilganda uning dublikatini olish.

Fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashda sug'urtalangan shaxslar yana quyidagi huquqlarga ega bo'lishi mumkin:

- sug'urta summasini olishda nizolar paydo bo'lganda mustaqil ekspertni jalb etish;

- sug'urtalanuvchi bilan kelishilgan holda amaldagi sug'urta shartnomasiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish;

- sug'urtalovchi bilan kelishgan holda sug'urta shartnomasini muddatdan oldin bekor qilish.

Sug'urtalanuvchi majburiyatlari:

- sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan muddat va shartlarda sug'urta mukofotlarini to'lash;

- sug'urtalangan shaxslarga sug'urta shartnomasi shartlari to'g'risida ma'lumotlar berish.

Sug'urtalovchining huquqlari:

-sug'urta hodisalari sug'urtalovchi tomonidan tan olinmaganda sug'urta summalarini to'lamaslik;

- sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan muddatda sug'urta mukofoti to'lanmasa sug'urta shartnomasini bekor qilish.

Sug'urtalovchining majburiyatlari:

- fuqarolarni baxtsiz hodisalardan ixtiyoriy sug'urtalash qoidalarini va sug'urta shartnomasi shartlari bilan sug'urtalanuvchini tanishtirish;

- sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan muddatda sug'urta polisini berish;

- sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urta summasini to'lash;

- sug'urta summasini to'lashdan voz kechilganda, u holda 10 kun muddatda sug'urtalanuvchiga yozma ravishda xabar berish.

Sug'urta hodisasi ro'y berganda bu haqida sug'urtalangan shaxslar qisqa muddatda sug'urtalovchiga xabar berishi lozim. Baxtsiz hodisa ro'y berganda sug'urtalangan shaxslar sug'urtalovchiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

- sug'urta polisi;

- davolash profilaktika muassasidan baxtsiz hodisa natijasida sug'urtalangan shaxsning davolanganligini tasdiqlovchi ma'lumotnoma.

Zaruriyat bo'lganda sug'urtalovchi sug'urta summasini to'lash masalasini hal etish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlarni so'rashga ham haqli.

Baxtsiz hodisalar ro'y berish natijasida o'lim hodisasi ro'y berganda quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- sug'urta polisi;

- FXDYo bo'limidan o'lim holati ro'y bergani to'g'risida ma'lumotnoma;

- merosxurlik huquqini tasdiqlovchi hujjat;

agar o'lim hodisasi yo'l-transporti natijasida ro'y bergan bo'lsa, yo'l harakati xavfsizligi organidan olingan ma'lumotnoma

- shaxsni tasdiqlovchi hujjat.

8-mavzu: Mol-mulk sug'urtasi

REJA:

1. Umumiy sug'urta tarmog'ining mol-mulklarni sug'urtalashga oid klasslari.
2. Yuridik shaxslar mol-mulkini sug'urtasida ishtirok etayotgan tomonlarning huquq va majburiyatlari.
3. Sug'urta hodisasi yuz berganda tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish.

1. Yuridik shaxslarning mol-mulkini sug'urtalash sug'urta tashkilotlari tomonidan "Sug'urta faoliyati klassifikatori"ga muvofiq, umumiy sug'urta tarmog'ining 8-klassi - "Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish"da qayd etilgan shartlarda, ya'ni yong'in, portlash, bo'ron, dovul, jala, ko'chki, tuproqning cho'kishi, emirilish, er osti suvlari, sel, yashin urishi, zilzila, yadro energiyasi ta'siri natijasida mol-mulk yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari asosida amalga

oshiriladi. Shuningdek, mazkur klassifikatorning 9-klassi ham mol-mulklarni sug'urta qilishga oid bo'lib, u "Mol-mulkni zarardan sug'urta qilish" deb ataladi. 9-klassning mazmuni 8-klassda ko'rsatilmagan do'l, qalin qor yog'ishi yoki qattiq sovuq tushishi, buzib kirib o'g'irlik qilish va boshqa voqealar natijasida mol-mulk yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jamidan iborat.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, yuridik shaxslarning mol-mulkini sug'urta qilish huquqiga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 8 va 9-klasslar bo'yicha litsenziya olgan barcha sug'urta tashkilotlari haqlidir.

Yuridik shaxslarning mol-mulkini sug'urta qilish sug'urtalovchilar bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

Sug'urta shartnomasi - tomonlarning aniq yuridik va moliyaviy munosabatlarini belgilab beruvchi xujjatdir. Shartnomada franshiza qo'llanilishi mumkin. Franshiza-yuridik shaxslar ko'rgan zararning muayyan qismi bo'lib, sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta tashkiloti ana shu qism doirasida javobgar bo'lmaydi va u to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta qoplamasidan chegirib tashlanadi.

Sug'urtalovchi yuridik shaxslarga tegishli mol-mulklarni yong'in, zilzila, toshqin, suv bosishi, ko'chki, bo'ron, er cho'kishi, ichki sanitariya texnikasi tizimlari buzilishi natijasida to'liq yoki qisman nobud bo'lganda sug'urta qoplamasini, sug'urtalanuvchi bo'lgan yuridik shaxslar esa sug'urta mukofotini o'z vaqtida to'lash va shartnomaning boshqa shartlarini bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Mana shu qayd etilgan holatlar sug'urta tashkiloti va yuridik shaxslar o'rtasida mol-mulkni sug'urtalash bo'yicha tuzilgan shartnomaning predmetini tashkil etadi.

Suturtalovchining majburiyatlari sug'urta mukofoti suturtalovchining hisob-kitob raqamiga kelib tushgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi. So'ng sug'urta polisi sug'urtalanuvchiga shartnomada ko'rsatilgan muddat ichida beriladi.

2. Yuridik shaxslarning hamda sug'urtalovchi o'rtasida tuzilgan sug'urta shartnomasida tomonlarning huquq va majburiyatlari aks ettiriladi.

Sug'urtalanuvchi bo'lgan yuridik shaxslarning majburiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Sug'urta ob'ektini ko'zdan kechirish uchun imkoniyat yaratib berish;
- Sug'urta mukofotlarini o'z vaqtida to'lash;
- Shartnoma tuzilayotganda sug'urtalovchiga sug'urta tavakkalchiligini baholash uchun ahamiyat kasb etuvchi o'ziga ma'lum barcha holatlar haqida, shuningdek mazkur sug'urta ob'ekti bo'yicha tuzilgan yoki tuzilajak hamma sug'urta shartnomalari to'g'risida ma'lumot berish;
- Sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urtalangan mulkiga zarar etkazilishining oldini olish va zararni kamaytirish uchun zarur choralarni ko'rish va sug'urtalovchiga sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi haqida sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan muddatlarda xabar berish.

Yuridik shaxslar sug'urtalangan mulkini ko'zdan kechirish uchun sug'urtalovchiga taqdim qilishi yoki mulkning barcha zararlangan qismlarining

fotosurati yoki video suratini oldirishi va tiklash ishlari boshlangunga qadar o'zi qiladigan ishlarni sug'urtalovchi bilan kelishib olishi kerak.

Yuridik shaxslar quyidagi huquqlarga ega bo'lishi mumkin:

- butun mulkni va ayrim ob'ektlarni tomonlarning qo'shimcha kelishuvi yoki yangi sug'urta shartnomasi shartlari asosida qo'shimcha sug'urtalash;

- sug'urta hodisasi sodir bo'lganda mustaqil ekspertiza o'tkazilishini talab qilish;

- sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan davrda sug'urtalovchidan sug'urta masalalari borasida maslahatlar olish;

- sug'urtalovchi bilan kelishgan holda sug'urta shartnomasiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish.

Yuridik shaxslar oldida sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tashkiloti quyidagi majburiyatlarga ega bo'ladi:

- shartnomada belgilangan muddatlarda sug'urta polisini berish va shartnoma tuzishda asoslanilgan sug'urtalash qoidalari bilan tanishtirish;

- sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan sug'urta hodisalari yuz berganda sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi haqidagi dalolatnoma asosida sug'urta qoplamasi to'lash;

- sug'urtalanuvchi bilan bo'ladigan munosabatlarda mahfiylikni ta'minlash.

Shu bilan bir qatorda sug'urta tashkilotining huquqlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- agar sug'urta hodisasi:

- a) sug'urtalovchining sug'urta hodisasini keltirib chiqarish uchun ataylab qilgan hatti-harakatlari natijasida yuz bergan bo'lsa;

- b) sug'urtalanuvchi tavakkalchilikdagi jiddiy o'zgarishlar haqida sug'urtalovchini boxabar qilgan bo'lmasa;

- v) sug'urtalanuvchi sug'urta hodisasi to'g'risida sug'urtalovchiga xabar bermagan yoki etkazilgan zarar tafsilotlari, turi va miqdorini aniqlashda sug'urtalovchi yoxud uning vakili ishtirok etishiga to'sqinlik qilgan bo'lsa;

- g) sug'urtalanuvchi zararni aniqlash uchun zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim etmagan bo'lsa, sug'urta to'voni to'lashni rad etish;

- sug'urta shartnomasining muddati mobaynida sug'urtalangan mulkning ahvoli va qiymatini, shuningdek sug'urtalanuvchi o'z mulki haqida ma'lum qilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish;

- sug'urtalanuvchidan sug'urta hodisasi haqida xabar kelishini kutib o'tirmasdan, sug'urta hodisasi etkazgan zararni ko'zdan kechirish va baholashga kirishish;

- sug'urta hodisasi yuz berish xavfining darajasini ifodalovchi qo'shimcha hujjatlarni talab qilib olish.

Sug'urtalanuvchi bo'lgan yuridik shaxslar sug'urta mukofotini shartnomada ko'rsatilgan muddatda to'lamaganda shartnoma yuridik kuchini yo'qotishi mumkin.

Agar sug'urtalangan mulkning yo'qolishi yoki zararlanishiga quyidagilar sabab bo'lsa sug'urta tashkiloti sug'urta javobgarligidan ozod etilishi mumkin:

a) sug'urtalanuvchining majburiyatlari kuchga kirgunga qadar mulkda mavjud bo'lgan hamda sug'urtalanuvchi yoki uning vakillariga ma'lum bo'lgan kamchilik va nuqsonlar;

b) sug'urtalangan mulkdan foydalanish qoidalarining sug'urtalanuvchi yoki uning vakillari tomonidan buzilishi natijasida zarar etkazilishi;

v) sug'urtalanuvchining yoki uning shartnoma bo'yicha sug'urtalangan mulk ishonib topshirilishi mumkin bo'lgan xodimlaridan, vakillaridan yoki boshqa shaxslardan birining ehtiyotsizligi, vijdotsizligi, nosamimiyligi, shuningdek mulkka mulkdorlik yoxud egalik huquqining qalloblik yo'li bilan boshqa shaxsga o'tkazilishi;

g) doimiy ta'sir ko'rsatuvchi foydalanish omillari (eskirish, zanglab chirish) va ob-havo omillari ta'sirida yoxud sug'urtalangan narsalardan foydalanmaslik oqibatida asta-sekin zararlanish;

d) sug'urtalanuvchi yoki uning vakillari tomonidan yong'in xavfsizligi qoidalarining buzilishi;

e) engil alanganadigan modda va materiallarni saqlash yoki ulardan foydalanish qoidalarining buzilishi;

z) sug'urtalanuvchi zararlangan narsalarni yoki ularning qoldiqlarini sug'urtalovchiga ko'rsatishdan bosh tortgan taqdirda, butunlay yo'q bo'lib ketishi mumkin bo'lgan narsalar bundan mustasnodir;

i) urush yoki urush harakatlari (urush e'lon qilingani-qilinmaganidan qati nazar), g'alayon, inqilob, qo'zg'olon, isyon, fitna, ish tashlash, noqonuniy yo'l bilan hokimiyatni qo'lga olish, suiqasd, qo'poruvchilik harakati, amalda yoki qonuniy mavjud bo'lgan hukumatning yoki biror hokimiyat organining farmoyishi bilan musodara qilish, rekvizitsiya, buzish yoki zararlantirish, yadro reaksiyasi, yadro nurlanishi yoxud radioaktiv zararlanish.

Ichki sanitariya texnikasi tizimlari buzilganda quyidagi:

a) agar falokat sug'urtalanuvchining ehtiyotsizligi yoki noshud hatti-harakatlari tufayli yuz bergan;

b) basharti falokat uchinchi shaxslarning ataylab qilgan yoki ataylab qilmagan xatti-harakatlari oqibatida yuz bergan hollarda sug'urta tashkiloti etkazilgan zarar uchun javob bermaydi.

3. Sug'urta qoplamasi sug'urta-lanuvchining zararni qoplash to'g'risidagi yozma arizasi, shuningdek, vakolatli organlardan olingan tegishli hujjatlar asosida to'lanadi. Bunday hujjatlarning taqdim etilmasligi sug'urtalovchiga ushbu hujjatlar bilan tasdiqlanmagan zarar uchun tovon to'lashni rad etish huquqini beradi.

Sug'urtalanuvchi sug'urta hodisasi sodir bo'lgani haqida ariza bergach, komissiya tuzilib, uning tarkibiga sug'urtalanuvchining, sug'urtalovchining, zarur hollarda esa vakolatli tashkilotlarning ham vakillari kiritiladi.

Komissiya muayyan muhlat ichida zararlanish sabablari va mikdori aniklaydi. Komissiya sug'urta hodisasini e'tirof ettan taqdirda yo'qotish va zararlar mikdori, shuningdek to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta qoplamasining mikdori aniqlanadi. Tomonlar buni dalolatnomada qayd etadilar.

Mazkur dalolatnoma sug'urtalanuvchiga sug'urtalovchi tomonidan suturta to'loni to'lanishi uchun asos bo'ladi.

Zarar sabablari va miqdori xususida tomonlar o'rtasida nizolar paydo bo'lgan hollarda mustaqil ekspertiza o'tkazilishi mumkin.

Sug'urtalanuvchi zararni qoplash haqidagi arizasida quyidagilarni ko'rsatishi shart:

- sug'urta hodisasi yuz bergan sana va uning tavsifi;
- sug'urta hodisasi sodir bo'lganda sug'urtalanuvchi qilgan ishlar;
- zarar miqdori va sug'urtalanuvchi da'vo qilayotgan sug'urta tovonining miqdori. Bunda tegishli ro'yxat va summa ko'rsatilishi kerak;
- zararni qoplash uchun uchinchi shaxslardan olingan tovon miqdori.

Mabodo zarar to'liq qoplangan bo'lsa yoki sud qaroriga ko'ra zarar aybdor shaxs tomonidan qoplanadigan bo'lsa sug'urtalanuvchi sug'urta to'loni olish huquqidan mahrum bo'ladi.

Quyidagi hollarda sug'urta to'loni to'lanmaydi:

-agar sug'urtalanuvchi zarar etkazilishiga olib keluvchi hatti-harakatlarni ataylab yoki qo'pol ehtiyotsizligi tufayli sodir etgan yoki ularga yo'l qo'ygan bo'lsa;

-basharti zarar kelib chiqishiga olib kelgan holatlar huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan tekshirilayotgan bo'lsa, tekshiruv tamom bo'lgunga qadar.

Mabodo sug'urtalanuvchi yoki naf oluvchi shaxs zarar uchun aybdor yoki uchinchi shaxslardan tovon olgan bo'lsa, sug'urtalovchi sug'urta shartlariga ko'ra to'lanishi lozim bo'lgan pul bilan aybdor yoxud uchinchi shaxslardan olingan pul o'rtasidagi farqning o'zini to'laydi.

Shartnoma imzolagandan so'ng tavakkalchilik darajasida ro'y bergan va sug'urta hodisasi yuz berish ehtimolini oshiradigan barcha o'zgarishlar sug'urtalovchiga sug'urta shartlarini o'zgartirish hamda qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lanishi talab qilish huquqini beradi. Sug'urtalanuvchi qo'shimcha sug'urta mukofotini to'lashdan bosh tortgan taqdirda mazkur shartnoma yuridik kuchini yo'qotadi, to'langan sug'urta mukofoti esa qaytarib berilmaydi.

Shartnomada kelishilgan zararlarni qoplash uchun sug'urtalovchi tomonidan amalga oshirilgan har bir to'lov majburiyatlar chegarasini ana shu to'lov miqdorida, ammo agar mas'uliyat chegarasini qayta tiklash uchun qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lanmasa, dalolatnomada qayd etilgan zarar miqdoridan ko'p bo'lmagan hajmda kamaytiradi.

Shartnoma tomonlar unda kursatilgan majburiyatlarini bajarmay qo'ygunlariga qadar kuchda bo'ladi.

Tomonlardan birining kamida 30 kun oldin beriladigan yozma arizasiga binoan shartnoma istalgan vaqtda bekor qilinishi mumkin.

Agar sug'urtalanuvchi shartnomani muddatidan oldin bekor qilishini ma'lum qilsa, sug'urta mukofoti unga qaytarilmaydi.

Sug'urta shartnomasi bekor qilinishini sug'urtalovchi talab etgan taqdirda:

a) sug'urtalanuvchiga sug'urta mukofoti muddati tamom bo'lmagan davrga mutanosib miqdorda qaytariladi, bunda o'tgan davrda qilingan xarajatlar sug'urta mukofotidan ushlab qolinadi;

b) basharti sug'urta shartnomasi bekor qilinishining talab etilishiga ushbu shartnomada kelishilgan shartlarning sug'urtalanuvchi tomonidan buzilishi sabab bo'lsa, faqat sug'urta mukofoti muddati tamom bo'lmagan davrga mutanosib miqdorda qaytariladi.

Sug'urta to'voni to'lash haqida dalolatnoma tuzilgandan keyin sug'urtalanuvchining zarar etkazilishi uchun javobgar shaxslarga nisbatan bo'lgan huquqlari to'langan pul miqdorida sug'urtalovchiga o'tadi. Sug'urtalanuvchi zarar etkazgan shaxsga bo'lgan da'vosidan yoki unga nisbatan bo'lgan talablarning amalga oshirilishini ta'minlovchi huquqlaridan voz kechganda, shuningdek regress talabni qo'yish uchun zarur bo'ladigan hujjatlarni sug'urtalovchiga berishdan bosh tortganda sug'urtalovchi sug'urta to'voni to'lashdan ozod bo'ladi.

Shartnomaga kiritiladigan hamma qo'shimcha va o'zgartirishlar, shuningdek prolongatsiya, bekor qilish yoki to'xtatish tomonlarning roziligi bilan o'zaro xabar berilgan holda yozma ravishda amalga oshirilmog'i darkor.

Sug'urta shartnomasidan kelib chiquvchi barcha nizo va kelishmovchiliklar tomonlarning muzokara olib borishi yo'li bilan hal etiladi, kelishuvga erishib bo'lmagan taqdirda esa tegishli muddat ichida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda qarab chiqish uchun xo'jalik sudiga oshiriladi.

9-Mavzu: Javobgarlik sug'urtasi va uni o'tkazish tartibi

REJA:

1. Javobgarlik sug'urtasida sug'urta ob'ekti va sub'ekti. Avtotransport vositalari egalarining uchinchi shaxslar oldidagi fuqarolik javobgarligini sug'urtalashning zarurligi va asosiy shartlari va sug'urta tarifi.
2. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashning moxiyati va uni amalga oshirish tartibi.
3. Kasbiy javobgarlikni sug'urtasi haqida tushuncha. Notariuslarning kasbiy javobgarligini sug'urtalash bo'yicha shartnoma tuzish.
4. Notariuslarning kasbiy javobgarligini sug'urtasi bo'yicha sug'urta tarifini aniqlash va sug'urta da'volarini ko'rib chiqilishi.
5. Auditorning kasbiy javobgarligini sug'urtasi bo'yicha sug'urta tariflarini aniqlash va sug'urta da'volarini ko'rib chiqilishi.

1. Bozor munosabatlari sharoitida yuridik va jismoniy shaxslarning uchinchi shaxslar manfaatiga zarar etkazish xavfi kuchayadi. Bu xavfning ro'y berishi natijasida etkazilgan zararni qoplash yuzasidan zarar etkazgan shaxslarning javobgarligini sug'urta qilish mamlakatimizda o'z rivojini topmoqda. Ana shunday javobgarlikni sug'urta qilishning keng tarqalgan turlaridan biri – transport vositalari egalarining uchinchi shaxslarga zarar etkazish fuqarolik javobgarligini sug'urtalashdir.

Ma'lumki transport yuqori xavfni keltirib chiqaruvchi manbalardan biri hisoblanadi.

Transport haydovchisi transport vositasini boshqarish jarayonida uchinchi shaxslarning muayyan manfaatlariga, sog'lig'iga zarar etkazishi mumkin.

Yo'l transport hodisasi natijasida zarar ko'rgan shaxslar, ko'p holatlarda aybdorlardan zararni undirib ololmaydilar. G'ayri qonuniy harakat tufayli yuridik yoki jismoniy shaxslarning sog'lig'i, hayoti yoki mol-mulkiga etkazilgan aybdor shaxs tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim. Qonun hujjatlarida zararni to'lash majburiyati zarar etkazuvchi bo'lmagan shaxsga yuklatilishi mumkin. Zarar etkazgan shaxs agar zarar o'z aybi bilan etkazilmaganligini isbotlasa zararni to'lashdan ozod etilishi mumkin.

Bugungi kunda aholi turmush darajasining doimo oshib borishi transport vositalarining yanada takomillashishi jahonda avtomobillar sonining muntazam o'sishiga olib kelayapti.

Afsuski transport vositalari sonining ko'payishi salbiy oqibatlarga olib keladi. Ya'ni, yo'l-transport hodisasi bilan bog'liq/

Hozirgi sharoitda yuridik va jismoniy shaxslarning uchinchi shaxslar manfaatiga zarar etkazish xavfi kuchaymoqda. Bu xavfning ro'y berishi natijasida etkazilgan zararni qoplash yuzasidan zarar etkazgan shaxslarning javobgarligini sug'urta qilish mamlakatimizda o'z rivojini topmoqda. Ana shunday javobgarlikni sug'urta qilishning keng tarqalgan turlaridan biri – transport vositalari egalarining uchinchi shaxslarga zarar etkazish fuqarolik javobgarligini sug'urtalashdir.

Ma'lumki transport yuqori xavfni keltirib chiqaruvchi manbalardan biri hisoblanadi.

Transport haydovchisi transport vositasini boshqarish jarayonida uchinchi shaxslarning muayyan manfaatlariga, sog'lig'iga zarar etkazishi mumkin.

Yo'l transport hodisasi natijasida zarar ko'rgan shaxslar, ko'p holatlarda aybdorlardan zararni undirib ololmaydilar. G'ayri qonuniy harakat tufayli yuridik yoki jismoniy shaxslarning sog'lig'i, hayoti yoki mol-mulkiga etkazilgan aybdor shaxs tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim. Qonun hujjatlarida zararni to'lash majburiyati zarar etkazuvchi bo'lmagan shaxsga yuklatilishi mumkin. Zarar etkazgan shaxs agar zarar o'z aybi bilan etkazilmaganligini isbotlasa zararni to'lashdan ozod etilishi mumkin.

Bugungi kunda aholi turmush darajasining doimo oshib borishi transport vositalarining yanada takomillashishi jahonda avtomobillar sonining muntazam o'sishiga olib kelayapti.

O'zbekiston Respublikasida engil avtobil ishlab chiqarish sanoatining sanoatining rivojlanishi ma'lum bir ma'noda transport vositalari sug'urtasini hamda transport vositalari egalarini fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasini rivojlanishiga va sug'urta kompaniyalariga ma'lum bir ma'noda aniq vazifalarni yuklashi tabiiy albatta. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, Respublikamiz xududida engil avtomobillar sonining keskin ravishda o'sib borishi jamiyatimiz va uning vakillari uchun foydali hisoblanadi. Lekin shu bilan bir qatorda shuni unutmaslik kerakki, avtotransport soning keskin ravishda ortib borishi o'z-o'zidan yo'llarimiz hududida hunuk va noxush xodisalarni yuzaga keltirishi mumkin.

Barchamizga ma'lumki 2008 yil 22 oktyabrda O'zbekistonda "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risida"gi Qonun kuchga kirdi. 2009 yilning 22 yanvaridan boshlab transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash (FJMS) polisiga ega bo'lmaganlar, eng kam ish haqi miqdorida, mansabdor shaxslar esa eng kam ish haqining uch barobari miqdorida jarima to'ladilar.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda jabrlanuvchining mulkiga zarar etganda eng ko'pi bilan \$1050, jabrlanuvchining sog'lig'i yoki hayotiga zarar etganda esa eng ko'pi bilan \$1950 miqdordagi mablag'ni ko'zda tutadi. Sug'urta qoplamasi sug'urtalovchi tomonidan bevosita jabrlanuvchiga etkazilgan zarar miqdorida, lekin yuqorida qayd etilgan qiymatdan ortiq bo'lmagan miqdorda to'lanadi.

Bunda o'z-o'zidan nega zararning barchasi to'lanmaydi degan savol tug'iladi? Zararning hammasi ham qoplanishi mumkin, lekin buning uchun sug'urtalanuvchi majburiy sug'urtadan tashqari fuqarolik javobgarligini ixtiyoriy sug'urtalash polisiga ega bo'lishi kerak. Chunki etkazilgan zarar o'rnatilgan limitdan yuqori bo'lish holatlari ham kam emas.

Masalan, sug'urtalanuvchi fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash polisiga ega bo'lsa, Qonunga muvofiq jabrlanuvchining mulkiga zarar etkazilganda sug'urta qoplamasi \$1050ga teng miqdorda chegaralanadi, etkazilgan zarar miqdori \$3000 ni tashkil etadi. Bu holda sug'urta kompaniyasi faqat ko'zda tutilgan \$1050 ni to'laydi, qolgan qiymatni esa sug'urtalanuvchi o'z yonidan to'lashiga to'g'ri keladi.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda sug'urta polisi qiymati birinchi navbatda transport vositasining turi va quvvatiga bog'liq (yillik baza stavkasi). Masalan, engil avtomobil dvigatelinining hajmi, avtobus va mikroavtobusning yo'lovchi sig'imi, yuk avtomobilining yuk ko'tarish qobiliyati qanchalik katta bo'lsa, polis narxi ham shuncha yuqori bo'ladi.

Keyin quyidagilarga ko'ra sug'urta polisi narxini orttiruvchi va pasaytiruvchi koeffitsientlar qo'llaniladi:

- transport vositasi ro'yxatga olingan joy;
- transport vositasini boshqarishga ruxsat etilgan shaxslar soni;
- o'tgan davr va haydovchi staji davomida sug'urta hodisalarining ro'y bergan yoki bermaganligi;
- transport vositasidan foydalanishning mavsumiyligi;
- qoida buzish holatlarining mavjudligi;
- haydovchining yoshi.

Shu bilan birga, ta'kidlash kerakki, fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash bo'yicha maksimal sug'urta mukofoti yillik baza stavkasiga muvofiq ravishda uning besh barobaridan yuqori bo'lmasligi kerak.

Shunga ko'ra, agar sug'urtalanuvchi, masalan, divigatel hajmi 1200-2000 sm³ atrofida bo'lgan engil avtomobil egasi bo'lsa va undan taksi sifatida foydalanilmasa, fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashning yillik polisi miqdori yuqorida qayd etilgan omillarga ko'ra \$10,8 dan \$67,5 gacha bo'lgan qiymatni tashkil etadi.

Shu bilan birga, 1941-1945 yilgi urush qatnashchilari yoki partizanlari yohud ularga tenglashtirilgan shaxslar, 1941-1945 yildagi urush davri mehnat faxriylari, bolaligida ota-onalaridan biri yoki qayta turmushga chiqmagan beva ayol bilan birga kontsentratsion lagerda bo'lgan sobiq asirlar, xarbiy xizmatni o'tash chog'ida yarador, kontuziyasi yoki nogiron bo'lgan va shuning natijasida haok bo'lgan yoki frontda orttirilgan kasallik oqibatida vafot etgan xarbiy xizmatchilarning farzandlari, Chernobil AESidagi avariya natijasida jabrlanganlar, nafaqadagilar va nogironlar uchun sug'urta mukofoti narxining 50 foizi miqdorida chegirma belgilanadi.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda sug'urtalanuvchi yo'l-transport hodisasi aybdori bo'lib qolsa va uchinchi bir shaxsga zarar etkazsa, bunday vaqtda sug'urtalanuvchi yoki sug'urtalanuvchining vakolatiga ega bo'lgan shaxs yo'l-transport hodisasi sodir bo'gandan so'ng 72 soatdan kechigmagan holda sug'urta kompaniyasining, yo'l harakati xavfsizligi xizmatining hodisa sodir bo'lgan va transport vositasi ro'yxatga olingan xududlardagi bo'limlarini yozma ravishda voqeadan xabardor qilishi lozim.

Shuningdek, sug'urta kompaniyasiga sug'urta polisining asli yoki nusxasini ilova qilgan holda sug'urta to'lovini to'lash haqidagi ariza, etkazilgan zarar fakti va miqdorini, mulkka etkazilgan zarar vaqti va miqdorini, jabrlanuvchining shaxsini, vorislik yoki huquqqa egalikning kuchga kirishini tasdiqlovchi hujjatlarni, shuningdek, vorislarning shaxsini va huquqqa egalikning davlat ro'yxatidan o'tganini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi lozim.

O'z navbatida, sug'urta kompaniyasi 15 kun muddatdan kechiktirmagan holda sug'urta qoplamasini to'lash to'g'risidagi arizani ko'rib chiqishi va o'z qarorini sug'urtalanuvchiga ma'lum qilishi shart. Sug'urta qoplamasi to'lash rad qilinganda, rad qilish to'g'risidagi qarorda asoslovchi dalillar ko'rsatilgan bo'lishi shart.

Sug'urtalanuvchi, birinchi navbatda, o'z tashabbusi yoki sug'urta kompaniyasining talabi bilan zararlangan mulkni yoki uning qoldiqlarini zarar etkazilish holatlarini aniqlash va qoplanishi talab etiladigan zarar miqdorini aniqlash maqsadida ko'rib chiqish va mustaqil ekspertizadan o'tkazish uchun sug'urta kompaniyasiga taqdim etishi shart.

Sug'urta kompaniyasi esa, o'z navbatida, agar o'zaro yozma ravishda boshqa muddat kelishilmagan bo'lsa, zararlangan mulk yoki uning qoldiqlarini besh kundan ortiq bo'lmagan muddat ichida ko'rib chiqishi va mustaqil ekspertizasi o'tkazishi darkor.

Sug'urta kompaniyasi zararlangan mulkni yoki uning qoldiqlarini ko'rib chiqmasa va yuqorida qayd etilgan muddat ichida mustaqil ekspertiza o'tkazmasa, sug'urtalanuvchi shunday ekspertizani mustaqil ravishda tashkil etishi mumkin. Bundan tashqari, bunday holda sug'urtalanuvchi sug'urta kompaniyasiga zararlangan mulk yoki uning qoldiqlarini taqdim etmaslikka haqlidir, sug'urta kompaniyasi esa mazkur mustaqil ekspertiza natijalariga e'tiroz bildirishi mumkin emas.

Sug'urta to'lovi uchun asos bo'lgan mustaqil ekspertiza qiymati sug'urta kompaniyasi tomonidan qoplanuvchi zarar tarkibiga kiritiladi, ammo har qanday takdirda ham umumiy to'lov o'rnatilgan sug'urta summasidan oshmasligi kerak. Shuni unutmash kerakki, sug'urta qoplamasini to'lash sug'urta kompaniyasi tomonidan zararni qoplash to'g'risidagi qapor qabul qilingandan keyin 5 kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Boshqa variant. Mijoz jabrlanuvchiga etkazgan zararni o'z yonidan to'laydi, sug'urta kompaniyasi esa o'rnatilgan limit (sug'urta miqdori) doirasida mijozning xarajatini qoplaydi. Ammo sharti shundaki, bu ishni mijoz o'z sug'urta kompaniyasining yozma roziligi asosida amalga oshirgan bo'lsa va unga etkazilgan zararni qoplaganini tasdiqlovchi hujjatlarni takdim etgan bo'lishi kerak. Agar mijoz zararni qisman qoplagan bo'lsa, sug'urta kompaniyasi sug'urta to'lovining tegishli qismini mijoziga, qolgan qismini esa jabrlanganga (uning vorisi yoki xuquqa egalik qiluvchi shaxsga) yuqoridagi shartga asosan to'laydi. Yana bir variant mavjud. Jabrlanuvchi hayotiga, sog'lig'iga va (yoki) mulkiga etkazilgan zararni qoplashni so'rab yozma ravishda o'zi polis olgan sug'urta kompaniyasiga murojat qiladi. O'z navbatida, ushbu kompaniyaning sug'urta qoplamasini to'lash bilan bog'liq barcha harajatlarni qoplaydi. Bu sug'urta holati zararni bevosita bartaraf etishi deb ataladi. Ta'kidlash joizki, sug'urta kompaniyasi mijozining tashabbusi yoki sug'urta kompaniyasining talabi bilan qabul qilingan zararni bartaraf etish yoki kamaytirish bo'yicha kechiktirib bo'lmas choralar bilan bog'liq mijozning barcha talab qilingan va isbotlangan (sud xarajatlari, jarimalar va boshqa shunga o'xshash to'lovlardan tashqari) xarajatlarini qoplaydi.

Mamlakatimiz sug'urta tarixida shu kunga qadar ushbu sug'urta turi bo'yicha faoliyat yurituvchi biror sug'urta kompaniyasining bankrotga uchrash holati kuzatilmagan. Ammo shunga qaramay, kelajakda bu holatning yuzaga kelmasligiga hech kim kafolat berolmaydi.

2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi bugungi kunda xizmat burchini bajarayotgan paytida jarohat olgan xodimlarning ijtimoiy muhofazasini ko'zda tutadi. Mehnat Kodeksi ish beruvchining xodimiga etgan ziyon uchun javobgar ekanini belgilagan. Ma'lumki, Mehnat Kodeksining 189- va 192-moddalariga binoan, ish beruvchi olgan jarohati, kasb kasalligi yoki mehnat jarayoni bilan bog'liq ravishda sog'lig'iga etgan zararni, shuningdek boquvchisini yo'qotganlik uchun etgan zararni belgilangan tartibda to'liq qoplashi shart.

Ko'rinib turibdiki, xizmat burchini o'tayotgan paytda jarohat olgan xodimlarni moddiy jihatdan himoyalash ish beruvchi hisobidan amalga oshiriladi. Xodimning xizmat burchini o'tayotgan paytda olgan jarohati uchun ish beruvchi javobgar hisoblanadi.

Shu bilan birga, ish beruvchi qoplashi kerak bo'lgan zarar hajmi doim ham ish beruvchining moliyaviy imkoniyatlariga mos kelavermaydi yoki ish beruvchining faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Chunki ish beruvchi qoplashi kerak bo'lgan zarar hajmiga bir vaqtda va har oyda to'lanishi kerak bo'lgan kompensatsiya to'lovlari kirishi mumkin. Masalan, Mehnat Kodeksining 190-moddasiga binoan, xodimning sog'lig'iga etgan zarar uchun qoplanishi kerak

bo'lgan mablag' xodim jarohat olgan vaqtga qadar olgan oylik o'rtacha ish haqiga qo'shimcha ravishda, xodim olgan jarohat darajasiga qarab belgilangan oylik foiz, jarohat olishi bilan bog'liq harajatlarni qoplash, shuningdek, bir martalik nafaqa ko'rinishidagi to'lovdan iborat. Bir martalik nafaqa hajmi jamoa shartnomasida, agar shartnoma tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi va kasaba uyushmasi yoki xodimlarning boshqa vakolatli organi o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi. Bunda jarohat olgan xodimga to'lanadigan bir martalik nafaqa hajmi jaroxatlangan xodimning bir yillik o'rtacha ish haqidan kam bo'lmasligi, halok bo'lgan xodimning oila a'zolariga beriladigan bir martalik nafaqa hajmi esa xalok bo'lgan xodimning oltita o'rtacha yillik ish haqidan kam bo'lmasligi kerak.

Shu munosabat bilan, "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risida"gi Qonun barcha ish beruvchilarga ularning xodimlari xizmat burchini o'tayotgan paytda hayoti yoki salomatligiga ziyon etgan taqdirda majburiy tarzda sug'urta himoyasini taqdim etishni ko'zda tutadi.

Qonun xodimlarning xizmat burchini o'tayotgan paytda hayoti yoki salomatligiga ziyon etishi yoki kasb kasalligiga uchrashi, halok bo'lishi yohud kasb kasalligi oqibatida vafot etishi bois ish beruvchining javobgarligi yuzaga kelgan hollarda sug'urta kompaniyalari tomonidan davriy va bir martalik to'lovlarni to'lash uchun zarur mablag'larni to'lashlarini ta'minlovchi murakkab tizim uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda turli mulkchilik shaklidagi 34 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan, "O'zbekinvest" EIMSK jadal rivojlanayotgan sug'urta kompaniyalaridan biridir. 1994 yilda tashkil etilgan ushbu kompaniya bugun barcha viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasida keng hududiy filiallar tarmog'iga va sug'urta bo'limlariga ega.

Sug'urta qonunchiligiga asosan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining "Umumiy sug'urtalash" ning 17 toifasi bo'yicha sug'urta qilish va qayta sug'urtalash xizmatlarini ko'rsatish huquqini beradigan litsenziyasiga ega ushbu kompaniya asosiy e'tiborini bugungi kundagi dolzarb vazifa – ish beruvchining fuqarolikligini majburiy sug'urta qilish ko'lamini kengaytirishga qaratmoqda.

Sug'urtaning ushbu turining majburiyligi birinchi navbatda mamlakatning barcha ish beruvchilarini qamrab olish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida sug'urtaning ushbu turi bo'yicha minimal sug'urta tariflarini qo'llash imkonini yaratadi. Mohiyatan, majburiy sug'urtaning bu turi mamlakat ish beruvchilari o'rtasidagi jabr ko'rgan ish beruvchilar ko'rgan zararlarni qoplash uchun mo'ljallangan mablag'larni qayta taqsimlash mexanizmi sifatida ish ko'radi.

Bu mexanizm birinchi navbatda jabr ko'rgan xodimlar ko'rgan zararni qonunda belgilangan sug'urta summasi doirasida qoplash kafolatini ta'minlaydi. Ikkinchidan, majburiy sug'urta ish beruvchi o'zining jabr ko'rgan xodimga zararni qoplab berganda ham moliyaviy barqarorligi saqlanib qolishi va ish beruvchining faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi real usul bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur sug'urta turiga asosan ish beruvchi, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini sug'urtalash shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi, annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi, jabrlanuvchi va naf oluvchi ushbu majburiy

sug'urta turining sub'ektlari sanaladi. Jismoniy shaxs bilan qonunchilikda belgilangan tartibda mehnat shartnomasini tuzgan yuridik yoki jismoniy shaxs ish beruvchi deb tan olinadi.

Mehnat jarohati, kasb kasalligi yoki xizmat burchini bajarayotgan vaqtda salomatligiga ziyon ktib, sug'urta qoplamasini olish huquqiga ega bo'lgan xodim jabrlanuvchi hisoblanadi.

Naf oluvchi – xodim o'z xizmat burchini o'tayotgan vaqtda halok bo'lgan hollarda sug'urta qoplamasini olish huquqiga ega bo'lgan shaxslardir. Masalan, halok bo'lgannning qaramog'ida bo'lgan mehnatga layoqatsiz shaxslar, shuningdek, o'n olti yoshga etmagan farzandlari, otasining o'limidan keyin tug'ilgan bolasi, halok bo'lgan kishining ishlamaydigan yo bo'lmasa, bolalar tarbiyasi bilan band bo'lgan xotini (yoki eri), yoki halok bo'lgan kishining farzandlari, uch yoshga etmagan uka va singillari, nabiralarini tarbiyalayotgan oilaning boshqa a'zosi yoki halok bo'lganning o'limi kunida uning qaramog'ida bo'lish huquqiga ega bo'lganlar.

Mehnat jarohati, kasb kasalligi yoki xizmat burchini bajarayotgan vaqtda salomatligiga ziyon ktib, sug'urta qoplamasini olish huquqiga ega bo'lgan xodim jabrlanuvchi hisoblanadi.

Naf oluvchi – xodim o'z xizmat burchini o'tayotgan vaqtda halok bo'lgan hollarda sug'urta qoplamasini olish huquqiga ega bo'lgan shaxslardir. Masalan, halok bo'lgannning qaramog'ida bo'lgan mehnatga layoqatsiz shaxslar, shuningdek, o'n olti yoshga etmagan farzandlari, otasining o'limidan keyin tug'ilgan bolasi, halok bo'lgan kishining ishlamaydigan yo bo'lmasa, bolalar tarbiyasi bilan band bo'lgan xotini (yoki eri), yoki halok bo'lgan kishining farzandlari, uch yoshga etmagan uka va singillari, nabiralarini tarbiyalayotgan oilaning boshqa a'zosi yoki halok bo'lganning o'limi kunida uning qaramog'ida bo'lish huquqiga ega bo'lganlar.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi umumiy sug'urta sohasida faoliyat olib borish huquqini beruvchi tegishli litsenziyaga, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomalari yoki annuitet shartnomalarini tuzish, ish beruvchi yoki jabrlanuvchi (naf oluvchi)larning sug'urta qoplamasini to'lash haqidagi talablarini belgilangan tartibda ko'rib chiqishga vakolatlangan alohida bo'linmalarga ega bo'lishi kerak. Annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchilarga ham shunga o'xshash talablar qo'yilgan. Hayot sug'urtasi sohasida faoliyat yuritayotgan sug'urtalovchilar annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchilar sifatida ish ko'rishlari mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan sug'urta sub'ektlarining majburiy sug'urtaning ushbu turini amalga oshirish chog'ida o'zaro munosabatda bo'lish tartiblari va shartlari Qonunda belgilab qo'yilgan. Sug'urta sub'ektlari o'zaro munosabatlari tartibi va shartlari majburiy sug'urtalashning ish mexanizmini tashkil etadi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash jarayonini shartli ravishda ikki bosqichga bo'lish mumkin. Birinchi bosqich majburiy sug'urta shartnomasi imzolangan paytdan sug'urta hodisasi sodir bo'lgan kun yoki majburiy

sug'urta shartnomasi tugagan sanagacha davom etadi. Ikkinchi bosqich majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta hodisasi yuzaga kelgan paytdan boshlanadi.

Birichi bosqich sug'urta munosabatlarida faqat sug'urtaning ushbu turini amalga oshirgan sug'urtalovchi va ish beruvchi kabi sub'ektlar qatnashadi. Mazkur bosqichda majburiy sug'urta shartnomasi tuziladi va sug'urtaning ushbu turi bo'yicha sug'urta mukofoti to'lanadi. Sug'urta shartnomasiga binoan, sug'urtalovchi kelishilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga sug'urta hodisasi yuzaga kelganda ish beruvchi va jabrlanuvchi, yoki naf oluvchiga sug'urta shartnomasida kelishilgan sug'urta summasi doirasida sug'urta to'lovlarini to'lash majburiyatini zimmasiga oladi.

Ta'kidlash kerakki, majburiy sug'urta shartnomasining asosiy shartlari Qonunning o'zi bilan muvofiqlashtiriladi. Mazkur shartlar asosida Vazirlar Mahkamasining 177-sonli Qarori bilan ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash Qoidalari tasdiqlangan.

Ushbu Qoidalar majburiy sug'urtalashning mazkur turini amalga oshirishning umumiy qoidalari, subrogatsiya, sug'urtalovchini almashtirish yoki annuitetlar shartnomasiga ko'ra sug'urtalovchini o'zgartirish, yakuni qoidalar kabi umumiy shartlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, Qoidalar fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomasiga tegishli shartlarni ham o'z ichiga oladi. Bu shartlar majburiy sug'urta shartnomasini tuzish, o'zgartirish va muddatidan avval bekor qilish, sug'urta summasi, sug'urta mukofoti va uni to'lash qoidalari, majburiy sug'urta shartnomasida tomonlarning huquq va majburiyatlari, sug'urta hodisalarini ko'rib chiqish tartibi, ko'rilgan zarar hajmini aniqlash va majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta qoplamasini to'lash, shuningdek, annuitetlar shartnomasiga tegishli, annuitetlar shartnomasini tuzish tartibini belgilovchi shartlar, sug'urta summasi, sug'urta mukofoti va annuitetlar shartnomasi bo'yicha qaytarib sotib olish summasi, annuitetlar shartnomasida tomonlarning huquq va majburiyatlari, annuitetlar shartnomasi bo'yicha joriy to'lovlar shaklida sug'urta qoplamalarini to'lash tartibi, annuitetlar shartnomasini o'zgartirish va muddatidan avval bekor qilish tartibidan iborat.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomasi oshkora shartnoma hisoblanadi va bir yil muddatga tuziladi. Lekin agar ish beruvchining faoliyati bir yildan kam muddat davom etishi mo'ljallangan bo'lsa, u holda shartnoma ish beruvchi tomonidan ushbu faoliyatni olib borish muddatiga tuziladi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda sug'urta mukofoti quyida keltirilgan formulalar orqali aniqlanadi:

Shartnoma 1 yil muddatga tuzilganda:

$$SMQ = SS \times YBS \times STK / 100$$

Shartnoma 1 yildan kam muddatga tuzilganda:

$$SQM = SS \times YBS \times STK / 100 / 365 \times K$$

Bu erda:

SMQ – Sug'urta mukofoti qiymati;

SS – Sug'urta summasi;

YBS – Yillik bazaviy stavka;

STK – Sug'urta tarifining mos koeffitsenti;

K – Shartnoma tuziladigan kunlar soni.

Majburiy sug'urtaning ushbu turi bo'yicha sug'urta summasi quyidagicha belgilanadi:

- majburiy sug'urta shartnomasi tuzilayotgan sanaga kelib bir yildan ko'p faoliyat olib borgan ish beruvchi uchun – ish beruvchining barcha xodimlarining ushbu shartnoma tuzilgunigacha o'tgan o'n ikki oyda olgan yillik ish haqi hajmida;
- o'z faoliyatini yangitdan boshlayotgan ish beruvchi uchun – barcha xodimlarning majburiy sug'urta shartnomasi tuzilgandan keyin keladigan o'n ikki oy uchun oladigan ish haqi hajmida. Bunda yillik ish haqi miqdori birinchi oydagi ish haqini o'n ikkiga ko'paytirish yo'li bilan hisoblanadi;
- o'z faoliyatini kamida bir yil avval boshlagan ish beruvchi uchun ish beruvchining barcha xodimlari ish beruvchining ushbu faoliyatini amalga oshirish muddatida olgan ish haqi hajmida.

Majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta mukofoti sug'urta tariflari asosida hisoblanadi. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash bo'yicha sug'urta tarifi ikki tarkibiy qismdan shakllantiriladi: bazaviy stavka va ish beruvchi olib borayotgan faoliyatning xavflilik darajasiga qarab bazaviy stavkaga ko'paytiriladigan koeffitsent.

Bazaviy stavka ish beruvchilar va sug'urtalovchilar uchun yagona hisoblanadi va ish beruvchining fuqarolik javobgarligi shartnomasi bo'yicha sug'urta summasining yillik 0,1% miqdorida belgilanadi.

Bazaviy stavkaga ko'paytiriladigan koeffitsent ish beruvchi olib boradigan faoliyatning xavflilik darajasiga qarab belgilanadi. Faoliyat xavflilik darajasi Klassifikatsiyaga muvofiq belgilanadi.

Ish beruvchining faoliyat turining xavflilik darajasi Klassifikatsiyasi Qoidalari asosida tasdiqlangan. Ushbu Klassifikatsiyaga binoan, iqtisodiyot sohalari kasbiy xatarlarning 20 ta sinfiga ajratilgan. har bir sinf bo'yicha tegishli koeffitsentlar belgilangan. Agar ish beruvchi Klassifikatsiyada keltirilmagan faoliyat turi Bilan shug'ullanayotgan bo'lsa, faoliyatning bu turiga nisbatan kasbiy xatarlar sinflari bo'yicha o'rtacha sug'urta tariflariga teng 3,400 hajmidagi koeffitsent qo'llaniladi.

Shuningdek, sug'urtaning ushbu turi bo'yicha sug'urta tariflari tarkibi ham belgilangan bo'lib, bunda sug'urta mukofoti hajmidagi nettog'stavka va sug'urta mukofoti hajmida majburiy sug'urtani amalga oshirish harajatlari ulushi belgilab beriladi. Sug'urta tarifi tarkibiga muvofiq, tarif stavkasining 70% ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomasi bo'yicha to'lovlar va 30% ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash xarajatlari (shu jumladan, sug'urta hodisalarining oldini olishga oid ogohlantirish tadbirlari zahirasiga chegirmalar tarifining 5% ni tashkil etadi) dan iborat.

Bundan tashqari, majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta tariflari koeffitsentini qo'llash tartibi 1 yildan kam muddatga shartnomalar tuzilishini ham hisobga oladi. Majburiy sug'urta shartnomasi 1 yildan kam muddatga tuzilganda Ushbu shartnoma bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta mukofoti hajmi sug'urta summasining yillik bazaviy stavkaga, sug'urta tarifining tegishli koeffitsenti va

majburiy sug'urta shartnomasi yilning necha kuniga tuzilayotganiga qarab kunlar soni ulushiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

Shuningdek, Qoidalar Bilan quyidagi hujjatlarning namunalari tasdiqlangan:

- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomasi va annuitetlar shartnomasi;
- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomasini tuzish va annuitetlar shartnomasi haqidagi arizalar;
- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomasi bo'yicha sug'urta polisi va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urta polisi blankalari;
- sug'urta qoplamasini to'lash haqidagi ariza;
- ishlab chiqarishdagi baxtsiz xodisa va boquvchisini yo'qotganlik bilan bog'liq zararlarni qoplash haqidagi buyruqlar.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ikkinchi bosqichda sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta hodisasi yuzaga kelganda boshlanadi. Qonunga muvofiq sug'urta hodisasi bu – majburiy sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan vaqtda xodimning jarohat olishi, kasb kasalligi yoki xizmat burchini bajarayotgan vaqtda salomatligiga etgan zararlarni qoplash bo'yicha ish beruvchining javobgarligi yuzaga kelganini tasdiqlovchi holatdir.

Ikkinchi bosqichda majburiy sug'urta munosabatlari tomonlariga jabrlanuvchi, naf oluvchi va annuitet shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi qo'shiladi. Sug'urta hodisasi yuzaga kelganda jabrlanuvchi va naf oluvchi majburiy sug'urta shartnomasiga asosan sug'urta qoplamasini oluvchilarga aylanadilar.

Majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta qoplamasi quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi:

- jabrlanuvchining mehnat jarayonida jarohat olguniga qadar bo'lgan o'rtacha oylik ish haqiga xodimning kasbiy layoqatini yo'qotish yoki kasb kasalligi darajasiga nisbatan foizlar ko'rinishidagi har oylik to'lovlar;
- halok bo'lganining o'rtacha oylik ish haqidan uning o'ziga tegishli bo'lgan hamda uning qaramog'ida bo'lib, mehnatga layoqatli bo'lgan, lekin etkazilgan zararni qoplashga huquqi bo'lmagan shaxslarga tegishli ulushi chegirib tashlangan har oylik to'lovlar;
- jabrlanuvchi yoki manfaat ko'ruvchiga qonunchilikda belgilangan hollarda bir martalik nafaqa to'lovlari;
- majburiy sug'urta shartnomasida belgilangan hajmda Dafn marosimlari xarajatlari;
- ish beruvchining qonunchilikka muvofiq qo'shimcha xarajatlari.

Shuni ta'kidlash zarurki, sug'urta qoplamalarini to'lash muddatiga qarab uni to'lash tartibi belgilanadi. Agar etkazilgan zararni qoplash bir yildan ortiq muddatga mo'ljallangan to'lovlarni ko'zda tutsa, u holda sug'urta to'lovlari bevosita jabrlangan yoki naf oluvchiga to'lanadi.

Agar etkazilgan zararni qoplash bir yildan ko'p muddatga mo'ljallangan to'lovlarni ko'zda tutsa, u holda sug'urta to'lovlari sug'urtalovchi tomonidan ish beruvchiga to'lanadi. Bunda ish beruvchi sug'urtalovchi Bilan annuitetlar

shartnomasini tuzishi shart va majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha olgan sug'urta to'lovlarini faqat annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofotlarini to'lashga sarf qilishi kerak. Bu holda sug'urta munosabatlariga annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi ham qo'shiladi. Sug'urta to'lovlari muntazam asosda va bir yildan ortiq muddatga to'lanishi munosabati bilan ish beruvchi va hayot sug'urtasiga ixtisoslashgan sug'urtalovchi o'rtasida annuitetlar shartnomasi tuziladi. Shu tariqa, keyinchalik jabrlanuvchi yoki manfaat ko'ruvchi annuitetlar shartnomasi bo'yicha muntazam ravishda zararni qoplash hisobiga to'lovlar oladi.

Anuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urta summasi jabrlanuvchi yoki manfaat ko'ruvchiga etkazilgan zararning qonunchilikka muvofiq ravishda qoplab berilishi kerak bo'lgan hajmda belgilanadi.

Anuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofotlari ish beruvchi tomonidan annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urta muddatining hammasi uchun bir martada to'lab beriladi.

Shuni aytish kerakki, bugungi kunda respublikada majburiy sug'urtaning ijtimoiy yo'naltirilgan tizimi qurilmoqda. Bu tizim mamlakat iqtisodiyotining zamonaviy talablariga to'la javob beradi. Majburiy sug'urta turlarining manna shunday tizimlarining tatbiq etilishi yaqin yillar ichida mamlakat sug'urta bozorini rivojlantirishga qudratli turtki beradi va majburiy sug'urtaning aholini ijtimoiy himoyalashda ishtirokini kengaytiradi.

3. Kasbiy javobgarlikni sug'urtalash sug'urtachining sug'urta ob'ektiga keltirilgan zararni to'liq yoki qisman qoplash miqdorida sug'urta to'lovlari bo'yicha majburiyatlarni ko'zda tutuvchi sug'urta turlarini ifoda etadi.

Bunda jismoniy shaxsning mulkiy manfaatlari sug'urta ob'ekti hisoblanadi. Ushbu ob'ektni sug'urta qilish to'g'risida fuqarolik qonunchiligi tomonidan belgilangan tartibda jismoniy shaxsning uchinchi shaxs tomonidan sug'urtalangan kasbiy faoliyatni amalga oshirish munosabati bilan etkazilgan zararni qoplash majburiyatlari bilan bog'liq sug'urta shartnomasi tuziladi. Kasbiy faoliyatga talablar va uni amalga oshirish tartibi tegishli qonunchilik hamda me'yoriy hujjatlar tomonidan belgilanadi.

Kasbiy javobgarlikni sug'urtalash kasbiy faoliyatni amalga oshirishda uchinchi shaxsga zarar etkazishi mumkin bo'lgan turli shaxslar toifalarining mulkiy manfaatlari sug'urta qilish turlarini birlashtiradi. Ko'pincha shifokorlar, notariuslar, baholovchilar, ekspertlar, qo'riqchilar, advokatlar va boshqalarning kasbiy javobgarligi sug'urta qilinadi.

Kasbiy javobgarlikni sug'urtalashda boshqa sug'urta turlaridan farqli ularoq sug'urta holatining boshlanishi tashqi omillarga (tabiiy ofatlar va kesin o'zgarishlar, uchinchi shaxs harakatlari va hokazolar) emas, balki muayyan kasbiy faoliyatni amalga oshiradigan shaxs malakasiga bog'liq. Sug'urtachi sug'urta shartnomasi tuzganidan so'ng kasbiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxs ehtiyotkorlik bilan ish tutishi va kasbiy ko'nikmalarni namoyon etishi lozim.

Ko'pchilik holatlarda sug'urta holatining boshlanishi sudning mutaxassisning mijozga moddiy zarar etkazganligi va uning miqdori uchun mulkiy javobgarligini belgilovchi qarori qonuniy kuchga kirgandan keyin tan olinadi. Bundan tashqari, sug'urtachining uchinchi shaxsga e'tirozlarni sudgacha hal etishda etkazgan zarari

uchun javobgarligining belgilanishi ham faqat sug'urtachi tomonidan etkazilgan zarar aniq isbotlanganda sug'urta holati sifatida tan olinishi mumkin. Bunda sug'urta shartnomasida sug'urtachi javobgarligining paydo bo'lishi asosli ekanligini tan olish va zararni qoplash miqdorini aniqlash sug'urtachi yoki vakolatli vakili ishtirokida amalga oshirilishi kelishib olinadi.

Kasbiy javobgarlikni sug'urtalashning har bir turi ma'lum bir kasbning o'ziga xos xususiyatlari bilan asoslangan o'z xususiyatlariga ega. Har bir ma'lum kasbning o'ziga xos xususiyatlari kasbiy javobgarlikni sug'urtalash shartnomasini tuzishda hisobga olinadi. Bu borada sug'urtachining o'z kasbiy majburiyatlarini bajarishga vijdonan, mulohaza bilan va asosli yondoshuvi kasbiy javobgarlikni sug'urtalashda umumiy printsip sanaladi. Aks holda sug'urtachi sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha o'z javobgarligidan ozod etilishi mumkin.

Xorijiy amaliyotda kasbiy javobgarlikni sug'urtalashning ayrim turlari majburiy asosda amalga oshiriladi, ya'ni yuridik yoki jismoniy shaxslar (masalan, shifokorlar, rielterlar, baholovchilar, notariuslar va boshqalar) kasbiy javobgarlikni sug'urtalash polisisiz ma'lum bir kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega emas.

Bu borada sug'urtalanuvchi - kasbiy faoliyatni amalga oshiradigan yuridik yoki jismoniy shaxs, sug'urtachi - sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun tashkil etilgan va belgilangan tartibda ro'yxatga olingan hamda korxonaning kasbiy javobgarlikni sug'urtalash huquqini beruvchi litsenziyaga ega yuridik shaxs sug'urta huquqiy munosabat sub'ekti hisoblanadi. Ushbu sug'urta sub'ektlari sug'urta majburiyatlarining asosiy tomonlari, ya'ni sug'urta shartnomasi tomonlaridir. Bundan tashqari, jabr ko'rgan shaxs (sug'urta shartnomasi uning foydasiga tuzilgan) ham kasbiy javobgarlikni sug'urtalash sub'ektlari sirasiga kiradi. Odatda, jabr ko'rgan shaxs, agarda sug'urta shartnomasida boshqa narsa ko'zda tutilmagan bo'lsa, etkazilgan zarar miqdorida sug'urta to'lovi olishga haqqi bor.

Kasbiy javobgarlikni sug'urtalash shartnomasini tuzishda jabr ko'rganlar (foyda oluvchilar) sug'urtalanuvchiga ham sug'urtachiga ma'lum qilinmaydi. Ushbu holatda sug'urta shartnomasida bu shartnoma kimning foydasiga tuzilganligi aytilmagan yoki u sug'urta qiluvchi yoxud boshqa shaxs foydasiga tuzilgan bo'lsada, sug'urta to'lovi olish huquqiga foyda oluvchi faqatgina sug'urta qiluvchi uning oldida javobgar bo'lgan shaxsgina (yoki uning merosxo'ri) hisoblanadi.

Kasbiy javobgarlikni sug'urtalash shartnomasi shartlarida sug'urtachining sug'urtalanuvchi yoki uning xodimi vakolatiga nisbatan kafolatlari ko'zda tutilmagan.

Sug'urtachi uchinchi shaxsga sug'urtalanuvchi tomonidan qonuniy va me'yoriy hujjatlar buzilishi, sug'urtalanuvchining atayin harakatlari natijasida zarar etkazilsa sug'urtalanuvchi majburiyatlari bo'yicha javobgar hisoblanmaydi. Sug'urtalanuvchining harakatlaridagi niyatni isbotlash sug'urtachi zimmasiga yuklatiladi. Sug'urtalanuvchining niyati sudning qonuniy kuchga kirgan qarori, hukmi bilan aniqlanadi. Agarda sug'urtalanuvchiga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atilgan bo'lsa, sug'urta

mukofoti to'g'risidagi masala sud qarori va hukmigacha to'xtatiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi qonunining 20-moddasiga binoan shaxsiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius o'z faoliyati sug'urta qilish shartnomasini tuzishga majbur. Notarius o'z majburiyatlarini sug'urta shartnomasini tuzmasdan turib bajarish huquqiga ega emas.

Notariusning qonunchilik tomonidan belgilangan tartibda uchinchi shaxsga notarial faoliyatni amalga oshirishda etkazilgan zararni qoplashga doir majburiyatlari bilan mulk manfaatlari sug'urta ob'ektlari hisoblanadi.

Notariuslarning kasbiy javobgarlikni sug'urtalash shartnomasi shartlariga muvofiq sug'urta qiluvchi sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan sug'urta mukofotini to'laganidan keyin sug'urtalanuvchiga sug'urta shartnomasining amal qilinish davrida ahamiyatga ega bo'lgan notarial harakatlarni qonunga xilof ravishda amalga oshirishgan (yoki kerakli notarial harakatlari bajarmagan) sug'urta qiluvchi o'z kasbiy majburiyatlarini tegishli tarzda bajarmagani oqibatida yuzaga kelgan e'tirozlar bo'yicha zararni qoplash majburiyatlarini qabul qiladi.

Sug'urta qiluvchining zararni qoplash majburiyati notarius mijozlariga notarius tomonidan o'zining kasbiy majburiyatlarini amalga oshirishdagi e'tiborsiz harakatlari, xatolari yoki kerakli notarial hatti-harakatlarni bajarilmasligi natijasida yuzaga kelgan zarar etkazilgan holatlarda paydo bo'ladi. Sug'urtachi odatda amaldagi qonunchilikka nomuvofiq tarzda amalga oshirilgan notarial harakatlar yoki sug'urtalanuvchining g'arazli niyatida kerakli notarial harakatlarni bajarmaslik natijasida etkazilgan zararni qoplamaydi. Notariusning g'araz niyati sudning qonuniy kuchga kirgan qarori va hukmi bilan aniqlanadi. Bunda sug'urtalanuvchining harakatlarida g'araz niyat borligini isbotlash sug'urtachi zimmasiga yuklanadi.

Sug'urta holati sug'urtalanuvchining zararni qoplash majburiyati belgilangan paytdan boshlanadi. Odatda sug'urta holati notariusga uchinchi shaxsga u tomonidan bajarilgan noqonuniy notarial harakatlar, xatolar yoki kerakli notarial harakatlarni bajarmaslik oqibatida etkazilgan zararni qoplashni yuklaydigan sud organining qarori kuchga kirgach, boshlangan hisoblanadi. Sug'urta shartnomasida sug'urta holatini belgilash va mijozning notariusga zararni qoplash talabi bildirilgan e'tirozi asosli bo'lganda, uni sug'urta yo'li bilan to'lash majburiyati ko'zda tutiladi. Sug'urta holatini aniqlash sug'urta shartnomasida aniq bayon etilishi shart.

Notariusning kasbiy javobgarligini sug'urtalash shartnomasi bo'yicha eng kam sug'urta summasi O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi qonunining 20-moddasiga muvofiq belgilangan eng kam ish haqining yuz baravar miqdoridan kam bo'lmasligi kerak.

Notariusning kasbiy javobgarligini sug'urtalash shartnomasi notariusning yozma arizasi asosida tuziladi. Arizada odatda notarius haqida sug'urta xavfi darajasini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega ma'lumotlar, ya'ni kasbiy javobgarligi sug'urta qilinayotgan shaxsning ismi sharifi, kasbi, kasbiy faoliyati boshlangan sana, shaxsiy notarial amaliyot bilan shug'ullanish huquqini beruvchi

litsenziyani olish sanasi va raqami, pochta manzili, telefon, faks, teleks ko'rsatiladi. Ariza berish paytida notarius faoliyati sug'urtalangani, avval tuzilgan sug'urta shartnomasi to'xtalishi nimaga bog'liqligi, notariusning kasbiy faoliyatiga taaluqli xatolar, ehtiyotsizlik yoki kamchiliklar bilan bog'liq e'tiroz bildirilgan ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Notariusning kasbiy javobgarligini sug'urtalash shartnomasi notarius kasbiy faoliyatini amalga oshirishda o'z harakatlari uchun javob bergandagina, shaxslar foydasiga tuzilagan hisoblanadi. Sug'urta shartnomasini tuzishda foyda oluvchilar sug'urtalanuvchi yoki sug'urtachiga ma'lum qilinmaydi. Shunday bo'lsada, sug'urta shartnomasida u kimning foydasiga tuzilgani aytilmagan bo'lsa yoki shartnoma notarius yoxud boshqa shaxs foydasiga tuzilgan bo'lsa ham sug'urta to'lovi olish huquqiga ega foyda oluvchi faqatgina notarius uning oldida javobgar bo'lgan shaxs bo'lishi mumkin.

Sug'urta shartnomasi odatda bir yildan kam bo'lmagan muddatga tuziladi. Sug'urta shartnomasi agarda shartnomada boshqa narsa ko'zda tutilmagan bo'lsa, sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta mukofotlari to'langanidan keyin kuchga kiradi.

Sug'urta shartnomasining amal qilinishi shartnomada ko'rsatilgan muddatda yoki sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta summasi to'liq to'langan yoxud sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta manfaatini yo'qotgan holatda to'xtatiladi. Sug'urtalanuvchining sug'urta manfaatdorligi notarius vakolatini to'xtatganda yo'qotilgan sanaladi. Ushbu holatda sug'urtalanuvchi sug'urtachiga bu haqda yozma bildirishnoma va sug'urta manfaatdorlik yo'qolganini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etadi. Shartnomani sug'urtalanuvchining sug'urta manfaatdorligi yo'qotganligi natijasida muddatidan oldin to'xtatilishi sug'urtachi sug'urtalanuvchiga sug'urta mukofoti sug'urta shartnomasining bekor qilinishining haqiqiy sanasidan unda ko'rsatilgan amal qilish sanasigacha qolgan muddatga mutannosib tarzda qaytaradi.

Odatda sug'urta shartnomasida sug'urtalanuvchining quyidagi majburiyatlari ko'zda tutiladi: sug'urta holati sabablari, uning borishi va oqibatlarini aniqlash uchun barcha imkoni bor va maqsadga muvofiq chora-tadbirlarni qabul qilish; sug'urtachini unga sug'urta holati munosabati bilan bildirilayotgan barcha e'tiroz haqida kechiktirmasdan (sug'urta shartnomasida kelishilgan muddatda) xabardor qilish; sug'urtachiga sug'urta holati sabablari, uning borishi va oqibatlari, etkazilgan zarar xususiyatlari va miqdori haqida muhokama qilish imkonini beradigan barcha axborotlar hamda hujjatlarni taqdim etish.

Sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urtachi unga sug'urtalanuvchi nomidan zararni undirish to'g'risida talab qayd etilgan e'tirozlar bildirilgan holatda muzokaralar olib borishi va etkazilgan zararni qoplash haqida bitim tuzish, sug'urta holati holatlari va sabablarini yoki sug'urtalanuvchining roziligini kutmasdan zarar miqdorini aniqlash uchun choralar ko'rish, shuningdek, sud va boshqa vakolatli organlarda sug'urtalanuvchi nomidan hamda topshirig'i bo'yicha ish yuritish huquqiga ega.

Agarda notarius rozi bo'lmasa yoki boshqa tarzda qayd etilgan harakatlarni amalga oshirishga to'sqinlik qilsa, sug'urtachi sug'urta to'lovini to'lashdan bosh tortishi mumkin.

Notariusning kasbiy javobgarligini sug'urtalash shartnomasida sug'urta mukofotini to'lash muddatlari aniqlanadi. Sug'urta mukofotining miqdori sug'urta shartnomasiga muvofiq belgilanadi va sug'urta summasi miqdoriga bog'liq bo'ladi.

4. Sug'urta mukofoti tarif stavkalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi va tanlangan sug'urta summasiga bog'liq bo'ladi. Sug'urta tariflari statistika ma'lumotlari, sug'urta bozori konyukturasi, tavakkalchilik darajasi, sug'urta qilish muddati va sug'urta summasi miqdori hisobga olingan holda belgilanadi. Bundan tashqari, sug'urta mukofoti miqdori notarius tomonidan kasbiy harakatlarning amalga oshirilishi va amalga oshirilayotgan notarial harakatlar turlari munosabati bilan e'tirozlarni qonunda belgilangan tartibda qondirish to'g'risida ma'lumotlar aniqligiga bog'liq bo'ladi. Notarius ijro xatlarini amalga oshirish chog'ida sug'urtachi oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llashi mumkin.

Hisoblab chiqarilgan sug'urta mukofoti sug'urtalanuvchi tomonidan bir yo'la yoki qisman naqd yoxud naqdsiz yo'li orqali shartnoma tuzilgan kundan boshlab kelishilgan muddat ichida to'lanishi mumkin. Sug'urta mukofoti to'liq to'lanmagan holatda esa sug'urta summasi sug'urta mukofotining to'langan qismiga mutanosib ravishda kamayadi.

Notariusga e'tirozlar u bilan shartnoma munosabatidan bo'lgan mijoz va u bilan shartnoma munosabatida bo'lmagan, biroq etkazilgan zarar sababli e'tiroz bildirish huquqiga ega shaxslar tomonidan bildirilishi mumkin.

Sug'urta holati sodir bo'lgan chog'da sug'urtalanuvchi sug'urta shartnomasida belgilangan muddatda bu haqda sug'urtachiga yozma ravishda xabar berishga majbur.

Sug'urta holati sodir bo'lgan chog'da sug'urtalanuvchi sug'urtachiga sug'urta holati sodir bo'lganini isbotlovchi barcha kerakli hujjatlarni taqdim etadi. Bunda sug'urtalanuvchi sug'urtachiga sug'urta holati bilan bog'liq unga ma'lum bo'lgan yoki paydo bo'lgan ma'lumotlar va vaziyatlarni xabar qilishi shart. Sug'urtachi taqdim etilgan hujjatlar xaqiqiyligini tekshirish huquqiga ega.

Sug'urta to'lovi sug'urtachi tomonidan sug'urta shartnomasida belgilangan muddat davomida sug'urtalanuvchidan sodir bo'lgan sug'urta holati haqida barcha kerakli hujjatlarni olganidan keyin to'lanadi. Sug'urta to'lovi miqdori sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta summasidan oshmasligi kerak. Sug'urtachi agarda sug'urtalanuvchi sug'urta shartnomasi shartlarini tegishli ravishda bajarmasa, sug'urta to'lovi summasini kamaytirish huquqiga ega. Sug'urta to'lovi miqdori zarar va e'tiroz bildiruvchi tomonidan qilingan sarf-harajatlar, shuningdek, notarius tomonidan sug'urtachining yozma ravishdagi roziligi bilan qilingan sarf-harajatlar miqdori summasi kabi aniqlanadi. Biroq sug'urta shartnomasi sug'urtachining har bir sug'urta holati va jabr ko'rgan kishi tomonidan bildirilgan e'tiroz bo'yicha javobgarligi limitini belgilashi mumkin. Agarda notariusga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atilgan bo'lsa, sug'urta to'lovini to'lash haqida masalani hal qilish to'xtatiladi.

Notariusning bir yo'la bir qancha mijozlarining zararini qoplashda agarda uning miqdori sug'urtachi javobgarligining umumiy limitidan ohsa (sug'urta summasining sug'urta shartnomasi bo'yicha miqdori), sug'urta to'lovi har bir jabrlanuvchiga etkazilgan zarar summasiga nisbatan sug'urtachi javobgarligining umumiy limitiga mutanosib ravishda to'lanadi.

Shuningdek, sug'urta shartnomasida notarius tomonidan qoplanishi lozim bo'lgan zarar miqdori - franshiza ko'zda tutilishi mumkin. Ushbu holatda kompaniya notarius tomonidan franshiza miqdorida qoplanishi lozim bo'lgan summadan oshadigan zararni qoplash majburiyatini qabul qiladi.

Notarius harakatiga bildirilgan e'tirozlar, shikoyatlar, arizalarni ko'rib chiqish bilan bog'liq sud yoki boshqa sarf-harajatlar, agarda ushbu sarf-harajatlar sug'urtalanuvchi zimmasiga yuklatilgan bo'lsa, sug'urtachi tomonidan sug'urtachi javobgarligi limiti doirasida qoplanadi.

Sug'urtalanuvchi sug'urta shartnomasiga amal qilish bekor qilinganidan keyin sug'urtachi undan sug'urta shartnomasiga amal qilish davrida sug'urta holati to'g'risida e'tiroz (bildirish) olgan bo'lsagina, sug'urta summasini olish huquqiga ega bo'lishi mumkin. Pul mablag'lari sug'urtachining hisobraqamidan sug'urtalanuvchi hisobraqamiga o'tkazilgan kun sug'urta summasi to'lash kuni hisoblanadi.

Sug'urtachi quyidagi hollarda sug'urta to'lovini to'lashdan bosh tortish huquqiga ega: agarda sug'urtalanuvchi soxta ma'lumotlar taqdim etgan va ular asosida sug'urta shartnomasi tuzilgan bo'lsa; agarda zarar sug'urtalanuvchi aybi bilan etkazilgan bo'lsa; agarda zarar sug'urtachi yoki uning mijozining bevosita g'arazli niyati sababli etkazilgan bo'lsa; agarda sug'urtalanuvchi notarial harakatlarni qonuniy muddatlardan tashqari amalga oshirgan bo'lsa (litsenziyani chaqirib olish, litsenziyaning amal qilish muddati tugashi); agarda sug'urtalanuvchi sug'urtachining sug'urta shartnomasida ko'zda tutilgan harakatlarni amalga oshirishiga rozi bo'lmasa yoki boshqacha yo'l bilan to'sqinlik qilsa; agarda sug'urtalanuvchi sug'urtachiga sug'urta holati sodir bo'lgani to'g'risida o'z vaqtida xabar bermasa.

Agarda sug'urta to'lovi to'langanidan keyin ushbu to'lov notarius yoki boshqa manfaatdor shaxslar tomonidan g'arazli harakatlar natijasida qalbaki yo'llar bilan olinganligi aniqlansa, to'langan mablag'ning hammasi uni to'lagan sug'urtachiga qaytariladi. Sug'urtachi va sug'urtalanuvchi o'rtasida yuzaga keladigan barcha tortishuvlar muzokaralar yo'li bilan, o'zaro kelishuvga erishilmasa, sudga hal etiladi.

5. Sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofoti miqdori sug'urta summasi miqdoridan kelib chiqqan holda sug'urtachining tarif stavkasi bo'yicha hisoblanadi. Sug'urta tariflari statistika ma'lumotlari, sug'urta bozori konyukturasi, tavakkalchilik darajasi, sug'urtalanuvchi faoliyati turini sug'urta qilish muddati, tanlangan tavakkalchilik va tavakkalchilik darajasiga ta'sir qiluvchi boshqa holatlar hisobga olingan holda belgilanadi.

Sug'urta mukofoti auditorlik xizmatlarni amalga oshirishga doir rejalashtirilayotgan aylanma mablag' asosida belgilanadi. Sug'urta shartnomasining amal qilish muddati yoki shartnomada belgilangan boshqa

davrning tugashi bilan odatda sug'urta puli va sug'urta mukofoti miqdori sug'urtalanuvchi faoliyatining natijalari hisobga olingan holda qayta hisoblanadi.

Sug'urta mukofotini to'lash tartibi tomonlar kelishuvi bo'yicha belgilanadi: bir yo'la yoki qisman sug'urtachining hisobraqamiga naqd pulsiz o'tkazish yo'li bilan. Sug'urta mukofoti sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta shartnomasida kelishilgan muddat ichida shartnoma imzolangan kundan boshlab to'lanadi. Sug'urta mukofoti to'liq to'lanmagan holatda sug'urta puli sug'urta to'lovining to'langan qismiga mutanosib ravishda kamayadi.

Shartnomani bir yildan kam muddatga tuzilganda sug'urta mukofoti yillik sug'urta mukofoti summasidan foiz hisobida ajratiladi. Sug'urta shartnomasiga to'liq bir oy amal qilinmagan holatda ham sug'urta mukofoti to'liq to'lanadi. Shartnomani bir yildan oshiq muddatga tuzishda sug'urta to'lovi imtiyozli tarif stavkalari bo'yicha hisoblanadi.

Sug'urta mukofoti to'liq to'lanmagan holatda sug'urta polisida sug'urtalanuvchi tomonidan haqiqatdan ham to'langan sug'urta mukofoti va unga tegishli sug'urta puli ko'rsatiladi.

Sug'urtalanuvchi sug'urtachiga yozma ravishda sug'urta shartnomasiga amal qilish muddati ichida tavakkalchilik darajasidagi o'zgarishlar haqida xabar qilish shart. Agarda tavakkalchilik darajasining oshishi sug'urta mukofoti miqdorini oshirish zaruratini yuzaga keltirganda sug'urtachi sug'urtalanuvchiga qo'shimcha sug'urta mukofoti uchun hisob bilan birga sug'urta shartnomasiga kiritilgan tegishli qo'shimchalarni ham jo'natadi. Sug'urtalanuvchi qo'shimcha sug'urta mukofotini to'lashi va mukofot uchun hisobni hamda shartnomaga qo'shimcha matnini olgan kundan boshlab sug'urta shartnomasiga kelishilgan muddat ichida qo'shimchani imzolashi yoki sug'urta shartnomasini buzishni talab qilishi mumkin.

Agarda sug'urtalanuvchi ko'rsatilgan hatti-harakatlarni bajarmasa, sug'urtachi sug'urta shartnomasini bekor qilishni va shartnomani bekor qilish orqali etkazilgan zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega.

Sug'urta shartnomasini amal qilish davri tugagandan keyin va u bo'yicha sug'urta holati sodir etilmasa sug'urtalanuvchiga shartnoma bo'yicha to'langan sug'urta mukofotining bir qismi qaytariladi.

Sug'urtalovchining javobgarligi uning hisobraqamiga sug'urta mukofoti kelib tushgan kundan boshlanadi, sug'urta to'lovini to'lash bo'yicha sug'urtachi javobgarligining kuchga kirishi odatda sug'urta polisi bilan tasdiqlanadi. Sug'urta polisi sug'urtalanuvchiga sug'urta mukofotini sug'urtachining hisobraqamiga sug'urta shartnomasida kelishilgan muddat ichida kelib tushgan kundan boshlab beriladi.

Sug'urta holati sodir etilganda yoki uning boshlanishiga sabab bo'luvchi holatlarda, shuningdek, uchinchi shaxsdan e'tirozlar kelib tushganda sug'urtalanuvchi sug'urta holati sabablari, uning borishi va oqibatlarini aniqlash uchun kerakli choralarni, zararning oldini olish yoki kamaytirish, zarar etkazilgan shaxslar hayoti va mulkini saqlashga oid barcha imkoni bor va maqsadga muvofiq choralarni ko'rishi, qisqa muddat ichida sug'urta qiluvchiga ushbu holatning sodir etilgani haqida xabar berishi va unga ushbu ishga taaluqli barcha hujjatlarni

yuborishi, sug'urta qiluvchiga uning oqibatlari, sudda ishni ko'rish va ushbu ishga taaluqli boshqa faktlar haqida ma'lumot berishi, agarda sug'urtalanuvchi sug'urta holati bo'yicha sug'urtachi va sug'urtalanuvchining manfaatlarini sudda hamda suddan tashqari tartibda himoya qilish uchun o'z advokatini yoki boshqa vakolatli shaxsni tayinlash kerak deb hisoblasa unga bu borada imkoni boricha yordam berishi, zararni to'lamasligi, sug'urta holati bo'yicha sug'urtalanuvchiga bildirilgan talablarni qisman yoki to'liq tan olmasligi, bunday talablarni bartaraf etish bo'yicha sug'urta qiluvchining rozilgisiz hech qanday majburiyatlarni qabul qilmasligi, sug'urtalanuvchi imkoni boricha sug'urta qiluvchining zarar etkazilgan mulkni ko'zdan kechirish va etkazilgan zarar miqdorini belgilashda ishtirok etishini ta'minlashi, sug'urta holatida etkazilgan zarar uchun javobgar bo'lgan uchinchi shaxsga nisbatan teskari talablarni ta'minlashga oid barcha choralarni ko'rish, agarda sug'urtalanuvchida zararni muntazam to'lashni to'xtatishi yoki uning miqdorini qisqartirish imkoni paydo bo'lganda, bu haqida sug'urtachiga xabar berishi va bunday to'lovlarni to'xtatish yoki ularning miqdorini kamaytirish bo'yicha barcha choralarni ko'rish shart.

Sug'urtachi sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalanuvchining sug'urta holati sababli yuzaga kelgan mulkiy yo'qotishlarining o'rnini to'ldiradi. Agarda shartnomaga amal qilish davrida ahamiyatga ega bo'lgan sug'urta holati sug'urta qilish boshlangunga qadar ahamiyatga ega bo'lgan yoki ta'sir qilishni boshlagan sabablarga ko'ra sodir etilsa, zarar sug'urtalanuvchiga shartnomani tuzish paytida ushbu sug'urta holatining boshlanishiga sabab bo'lgan sabablar haqida unga ma'lum bo'lmaganda to'lanishi lozim.

Agar sug'urta to'lovi sug'urta summasi miqdorida to'langan bo'lsa, sug'urta polisiga amal qilish to'lov to'langan paytdan boshlab bekor qilinadi. Sug'urta puli miqdorida to'liq to'lanmagan sug'urta to'lovi to'lanadigan sug'urta polisi o'z kuchini unga amal qilish muddati oxirigacha sug'urta summasi va to'langan summa o'rtasida farq miqdorida saqlab qolinadi.

Sug'urta to'lovi sug'urtachi tomonidan sug'urta shartnomasida belgilangan muddat ichida sug'urtalanuvchidan sodir etilgan sug'urta holati to'g'risidagi barcha kerakli hujjatlar olingandan keyin to'lanadi. Sug'urta to'lovi sug'urtalanuvchining isbotlangan javobgarligi miqdorida sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta pulidan ortiq bo'lmagan holda to'lanadi.

Sug'urtachining hisobraqamidan sug'urtalanuvchining hisobraqamiga pul o'tkazilgan kun sug'urta to'lovi to'langan kun hisoblanadi.

Sug'urtachi agarda sug'urtalanuvchi sug'urta shartnomasi shartlarini tegishli ravishda bajarmasa, sug'urta to'lovi miqdorini kamaytirish huquqiga ega.

Sug'urtalanuvchi sug'urta shartnomasiga amal qilish bekor qilinganidan so'ng sug'urtachiga sug'urta shartnomasiga amal qilish davrida undan sug'urta holati to'g'risida e'tiroz bildirilgandagina sug'urta to'lovini olishi mumkin.

Sug'urtachi agarda sug'urtalanuvchi ataylab soxta ma'lumotlar taqdim etgan va ular asosida sug'urta shartnomasi tuzilgan bo'lsa, zarar sug'urtalanuvchi aybi bilan etkazilmagan bo'lsa, zarar sug'urtalanuvchi yoki korxonaning bevosita g'arazli niyati oqibatida etkazilgan bo'lsa, sug'urtalanuvchi tekshiruvlarni qonunda belgilangan muddatdan tashqari muddatda amalga oshirgan bo'lsa (litsenziyani

chaqirib olish, litsenziyaga amal qilish muddatining tugashi), auditorlik tekshiruviga malaka shahodatnomalariga ega bo'lmagan va auditorlarning kasbiy reestriga kiritilmagan shaxslar jalb qilingan bo'lsa, sug'urtalanuvchi tomonidan imzolangan va belgilangan tartibda muhr bilan tasdiqlangan auditorlik xulosasi bo'lmasa, sug'urtalanuvchi sug'urtachiga sug'urta shartnomasida ko'zda tutilgan hatti-harakatlarni amalga oshirishga rozi bo'lmasa yoki boshqacha yo'l bilan to'sqinlik qilsa, sug'urtalanuvchi o'z vaqtida sug'urtachiga sug'urta holatining sodir etilgani to'g'risida xabar bermagan bo'lsa, sug'urta to'lovini to'lashni rad etish huquqiga ega.

Sug'urta holati tufayli etkazilgan zarar hajmi sug'urtalanuvchiga sug'urta holati bo'yicha etkazilgan zarar hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Zarar hajmi maxsus tayinlangan davlat organi yoki sudning jarima yoki boshqa moddiy sanksiyalar qiymatidan yoxud sud tomonidan qondirilgan da'vo talabalaridan kelib chiqqan holda qaror chiqarilganda, e'tirozlar uchinchi shaxsga etkazilgan zarar qiymatidan kelib chiqqan holda ixtiyoriy qondirilganda aniqlanadi.

Qoplanayotgan zarar summasiga sug'urta holatida zararining oldini olish yoki kamaytirish uchun maqsadga muvofiq sarf-harajatlar ham kiritilishi mumkin, biroq to'lovlarning umumiy qiymati sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta pulidan oshmasligi kerak.

Sug'urta to'lovini to'lagan sug'urtachiga to'langan mablag' doirasida sug'urta to'lovini olgan sug'urtalanuvchiga boshqa shaxs etkazilgan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan ega bo'lgan talablarni talab qilish huquqi o'tadi. Sug'urtalanuvchi sug'urtachiga o'zidagi barcha hujjatlar va dalillarni berishi hamda ushbu huquqni amalga oshirish uchun kerakli barcha rasmiy ishlarni bajarishi kerak. Agar qayd etilgan shaxslar etkazilgan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan talab qilish huquqidan voz kechsa yoki ushbu huquqni ularning aybi bilan (hujjatlarni taqdim etmaslik va hokazolar) amalga oshirishning iloji bo'lmasa, sug'urtachi sug'urta to'lovlarini to'lashdan ozod etiladi. Agarda ushbu to'lovlar to'langan bo'lsa, qayd etilgan shaxslar sug'urtachiga olingan mablag'larni uni olgan kundan boshlab qonunchilikda belgilangan foizlar bilan qaytarishi shart.

Sug'urtalanuvchi sug'urtachiga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan belgilangan da'vo muddati ichida qonun yoki sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta to'lovini to'lashdan bosh tortish uchun asos bo'lgan holatlar aniqlanganda, to'langan pulni qaytarishga majbur.

Agarda sug'urta holati sodir etilgan paytda sug'urtachi tomonidan sug'urtalangan ob'ekt bo'yicha sug'urtalashning boshqa shartlariga amal qilingan bo'lsa, sug'urta to'lovi sug'urta mablag'lariga nisbatan mutanosib ravishda taqsimlanadi va ushbu mablag'lar uchun auditor javobgarligi har bir sug'urta qiluvchi tomonidan sug'urtalangan, har bir sug'urta qiluvchi esa o'z ulushiga to'g'ri keladigan zararining bir qismini to'laydi, xolos.

Sug'urtalanuvchi yoki uchinchi shaxsning sug'urta holati sodir etilishiga qaratilgan g'arazli hatti-harakatlari, sug'urtalanuvchi yoki uchinchi shaxs tomonidan sug'urta holati bilan bevosita sababli aloqada bo'lgan jinoyatning atayin sodir etilishi, sug'urtalanuvchining sug'urtachiga ataylab sug'urta ob'ekti bo'yicha soxta ma'lumotlarni berishi, sug'urtalanuvchi tomonidan zararni etkazishda aybdor

bo'lgan shaxsdan uning undirilishi, sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urtachiga tuzilgan sug'urta shartnomasi bo'yicha tavakkalchilik darajasining oshganligi to'g'risida ma'lum qilinmasligi va qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa holatlar sug'urtachining sug'urta to'lovini to'lashdan bosh tortishiga asos hisoblanadi. Sug'urta shartnomasi shartlarida sug'urta to'lovini to'lashdan bosh tortish uchun qo'shimcha asoslar ham ko'zda tutilgan.

10-mavzu:Qayta sug'urta

REJA:

1. Qayta sug'urta haqida tushuncha.
2. Qayta sug'urtaning turlari va shakllari.

1. Qayta sug'urtalash - sug'urtalashga riskni qabul qilish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi (risklarni birlamchi joylashtirish). Sug'urtalovchi muvozanatlashgan sug'urta portfelini yaratish va sug'urta operatsiyalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida qabul qilib olingan riskni bir qismini o'zaro kelishilgan holda boshqa sug'urtalovchiga berishi (riskni ikkilamchi joylashtirish). Qayta sug'urtalash operatsiyalari bilan bir qatorda asosan, ixtisoslashgan qayta sug'urtalash kompaniyalari amalga oshiradi. Qayta sug'urtalash aktiv (riskni berish) va passiv (riskni qabul qilib olish) ko'rinishida bo'ladi. Bundan tashqari qayta sug'urtalash nisbiy va nonisbiy shaklda bo'ladi.

Ayrim holatlarda qayta sug'urtalash operatsiyalari qayta sug'urtalovchi broker - ikkita tomon, ya'ni sug'urta kompaniyasi va qayta sug'urtalovchi kompaniyasi o'rtasidagi vositachidir.

Qayta sug'urta qilish shartnomalari bir tomondan sug'urta kompaniyalari o'rtasida o'zaro tuzilishi yoki ikkinchi tomondan, sug'urta kompaniyasi va ixtisoslashgan qayta sug'urta qilish kompaniyasi o'rtasida tuzilishi mumkin. Bu erda shartnoma o'zi nima degan savol to'g'ilishi mumkin. o'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 354 - moddasida "ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi" – deb ko'rsatilgan. Dastlab, sug'urta kompaniyasi o'zining moliyaviy qobiliyatini mustahkamlash maqsadida qabul qilib olingan riskni bir qismini boshqa sug'urta kompaniyasida yoki ixtisoslashgan qayta sug'urta qilish kompaniyasida sug'urtalash to'g'risida qaror qabul qiladi. Ushbu qarorni ijrosini ta'minlash maqsadida sug'urtalovchi ixtisoslashgan sug'urta kompaniyasiga murojaat qiladi. Agar qayta sug'urtalovchi kompaniya riskni qayta sug'urta qilishga rozilik bildirsa, ular o'rtasida qayta sug'urtalash shartnomasi tuziladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, shartnoma shartlarida, unda ishtirok etuvchi tomonlarning huquqlari va majburiyatlari, olingan majburiyatlarning bajarilishi yuzasidan javobgarlik, shartnomani kuchga kirishi, amal qilish va bekor etilishi qoidalari mujassam bo'lishi kerak. Shuningdek, shartnomada qayta sug'urtalash mukofoti miqdori va javobgarlik

hajmi ko'rsatilishi zarur. o'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga ko'ra, qayta sug'urta qilishda sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lash uchun asosiy sug'urta shartnomasi buyicha sug'urtalanuvchi oldida ushbu shartnoma buyicha sug'urta kompaniyasi javobgar bo'lib qolaveradi. Biroq asosiy sug'urta shartnomasi buyicha sug'urtalanuvchi hisoblangan sug'urta tashkiloti sug'urta hodisasi yuz berishidan oldin tugatilgan taqdirda, uning ushbu shartnoma buyicha huquq va majburiyatlarining qayta sug'urta qilingan qismi qayta sug'urta qilish shartnomasi buyicha sug'urtalovchiga o'tadi.

Qayta sug'urta qilish shartnomalari bir qator o'ziga xos belgilarga egaki, bu ushbu shartnomalarni savdo va boshqa turdagi shartnomalardan tubdan farq qiladi. Shuning uchun ham qayta sug'urta qilish sohasini nazariy jihatdan qaysi sug'urta tarmog'iga kiritish yoxud uni mustaqil sug'urta sohasi sifatida qarash ancha bahs munozarani talab qiladi.

Agar sug'urta hodisasi ruy bersa, bu haqda sug'urta kompaniyasi qayta sug'urtalovchi kompaniyaga darhol xabar qilishi kerak. o'z navbatida, qayta sug'urtalovchi kompaniya shartnomada ko'zda tutilgan qoplamani to'lashi shart. Qayta sug'urta qilish kompaniyasi shartnoma buyicha o'z majburiyatlarini to'latukis bajarsa, u holda shartnoma ijro etilgan hisoblanadi.

2. Tsedent atamasi riskni ikkilamchi joylashtirishni amalga oshiruvchi, ya'ni riskni qayta sug'urtalash uchun beruvchi sug'urta kompaniyasi. Ikkilamchi tsedent retrotsedent deb ataladi. Bundan qayta sug'urtalashda tsessiya atamasi ham keng qullaniladi. Tsessiya – sug'urta riskini qayta sug'urtalashga berish jarayonidir.

Qayta sug'urtalovchi sifatida sug'urta kompaniyasi ham bo'lishi mumkin. Jahondagi eng yirik sug'urtalovchilar guruhiga Myunxen qayta sug'urtalash jamiyati, Shveytsariya qayta sug'urtalash jamiyati, Kyoln qayta sug'urtalash jamiyatlari kiradi.

Qayta sug'urtalash ishida uning bir necha turlarini uchratish mumkin. Jumladan, fakultativ, obligator va fakultativ-obligatorli qayta sug'urtalashdir. Fakultativ qayta sug'urtalash - nisbiy qayta sug'urtalash shartnomasining turi. Fakultativ qayta sug'urtalashda har bir berilayotgan risk buyicha alohida shartnoma tuziladi. Tsedent har bir risk buyicha qayta sug'urtalash zarur yoki zarur emaslik masalasini mustaqil ko'rib chiqadi. o'z navbatida, qayta sug'urtalovchi ham tsedentning taklifini qabul qilishi yoki qabul qilmasligi ham mumkin.

Obligatorli qayta sug'urtalash xalqaro amaliyotda ikki xil ma'noni bildiradi:

1) qayta sug'urtalashning majburiy shakli. Ayrim mamlakatlar qonunchiligiga ko'ra, ushbu mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan barcha sug'urta kompaniyalari qabul qilgan risklarini bir qismini majburiy ravishda qayta sug'urtalash kompaniyasiga beradi. Bu chora qayta sug'urtalash orqali chet elga valyuta chiqib ketishini oldini oladi;

2) sug'urta kompaniyasi (tsedent) ma'lum bir sug'urta turi buyicha riskni qayta sug'urtalovchiga berishini va o'z navbatida, qayta sug'urtalovchi, riskni qabul qilishni nazarda tutuvchi qayta sug'urtalash shartnomasi. Fakultativ-

obligator shartnomasi - tsedent qayta sug'urtalovchi bilan kelishgan toifadagi har qanday sug'urta riskini berishi, qayta sug'urtalovchi esa ularni qabul qilishi shart ekanligi haqidagi qayta sug'urtalash shartnomasi.

Qayta sug'urta qilish operatsiyalari nisbiy va nonisbiy shaklda amalga oshiriladi. Nonisbiy qayta sug'urta qilishga nisbatan nisbiy qayta sug'urtalash ancha ilgari paydo bo'lgan. Shu nuqtai nazardan qaraganda nisbiy qayta sug'urtalashni, ba'zan, an'anaviy qayta sug'urtalash ham deb atash qabul qilingan.

Nisbiy qayta sug'urta qilishning asosiy mohiyati shundaki, qayta sug'urtalovchi kompaniyaning riskni taqsimlashdagi ulushi sug'urta kompaniyasi aniqlagan nisbat asosida oldindan aniqlanadi. Ushbu nisbatga qarab, qayta sug'urtalash mukofotining va sug'urta kompaniyasining tegishli ulushi aniqlanadi. Nisbiy qayta sug'urta qilishning printsipi "qayta sug'urtalovchi tsedentning riskini bo'ladi" degan fikrdan iborat.

Sug'urta ishi amaliyotida nisbiy qayta sug'urtalashning quyidagi shakllari mavjud:

- * Kvotali qayta sug'urta qilish;
- * Ekstsedent qayta sug'urta qilish;
- * Kvotali-ekstsedent qayta sug'urta qilish.

Nonisbiy qayta sug'urta qilishda qayta sug'urtalovchining sug'urta mukofoti va qoplamasidagi foizlardagi ishtiroki printsipi qullanilmaydi. Nisbiy qayta sug'urta qilishda tomonlarning manfaati bir-biriga mos keladi.

Qayta sug'urta qilish shartnomasiga xos bo'lgan belgilardan biri qayta sug'urta qilish buyicha sug'urta mukofotlarini qaytarib olish xarakteriga ega ekanligidir. Qayta sug'urta qilish munosabatlarining uzoq yillik rivojlanishi jarayoni davomida xalqaro va milliy darajalarda foydalaniladigan qayta sug'urta qilish shartnomalarining bir necha xillari shakllangan. Ular quyidagilardir:

- * fakultativ qayta sug'urta qilish;
- * obligatorli qayta sug'urta qilish;
- * fakultativ-obligatorli qayta sug'urta qilish;

Yuqorida qayd qilingan qayta sug'urta qilish shartnomalaridan eng ommaviysi va uzoq yillardan beri qo'llanib kelinayotgani - bu fakultativ qayta sug'urta qilish shartnomalaridir. Mazkur shartnomaning ijobiy tomoni shundaki, bunda riskni qayta sug'urtaga beruvchi – sug'urta kompaniyasi ham va qayta sug'urtalovchi kompaniya ham qancha miqdordagi riskni o'ziga olib qolish yoki qabul qilib olish masalalarini mustaqil hal qiladilar. Aksincha, obligatorli qayta sug'urta qilish shartnomalari buyicha sug'urta kompaniyasi qabul qilib olingan har bir riskning tegishli qismini qayta sug'urta kompaniyasiga berishi shart.

